

**“ISFT”
ILMIY-USLUBIY
JURNAL**

2024



www.jurnal.isft-ilm.uz

3046



Ilmiy-uslubiy jurnal

Biznes, boshqaruv va pedagogika sohasi xodimlari uchun mo'ljallangan ilmiy-uslubiy elektron jurnal



Tahririyat manzili:

111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi – 7.



Raqamlar:

+99899 861-61-10;
+99878 147-37-37.



Elektron pochta:

jurnal@isft-ilm.uz
info@isft-ilm.uz



Elektron manzili:

www.jurnal.isft-ilm.uz
t.me/isftjurnal



Jurnalga kiritilgan materiallar mazmuniga mualliflar mas'uldir.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 03-iyulda 097320-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Scientific-methodological journal

A scientific-methodological electronic magazine intended for employees of business, management and pedagogy



Editorial address

112218 University Street 7, Kibray
District, Tashkent Region



Phone number

+99899 861-61-10
+99878 147-37-37



E-mail

jurnal@isft-ilm.uz
info@isft-ilm.uz



Electron adress

www.jurnal.isft-ilm.uz
t.me/isftjurnal



The authors are responsible for the content of the materials included in the journal.

The journal was registered with the state registration number 097320 on July 3, 2023 by the Information and Mass Communications Agency under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz



“ISFT”
Ilmiy-uslubiy jurnal

“ISFT”
Научно-методический журнал

“ISFT”
Scientific-methodological journal



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

BOSH MUHARRIR:

Tuxtamish Azizov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Faridaxon Xamidova

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR:

Bahodirova Gulnoz

Pedagogika fanlari nomzodi (PhD), dotsent

TEXNIK MUHARRIR:

Tolib Najmiddinov

TAHRIR HAY'ATI:

1. **Galina Melnik (Rossiya)** – siyosiy fanlar doktori, professor, akademik;
2. **Sol Von Te (Janubiy Korea)** – PhD, professor;
3. **Saidahror G'ulomov** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik;
4. **G'ayrat Shoumarov** – psixologiya fanlari doktori, professor, akademik;
5. **Narzulla Jo'rayev** – siyosiy fanlar doktori, professor, akademik;
6. **Yuldash Jo'rayev** – yuridik fanlar doktori, professor;
7. **Bohodir Isroilov** – iqtisodiyot fanlar doktori, professor;
8. **Narboy Karimov** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
9. **Shahriddin G'aniyev** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
10. **G'anisher Raximov** – filologiya fanlari doktori, professor;
11. **Qurdosh Qahramonov** – filologiya fanlari doktori, professor;
12. **Ulug'bek Hamdamov** – filologiya fanlari doktori, professor;
13. **Oybek Hayitov** – psixologiya fanlari doktori, professor;
14. **Umarali Qodirov** – psixologiya fanlari doktori, professor;
15. **Hasanboy Abdusamatov** – psixologiya fanlari doktori, professor;
16. **Mashraboy Xalimova** - psixologiya fanlari doktori, professor;
17. **Nigina Shermuhamedova** – falsafa fanlari doktori, professor;
18. **Ruxsora Ruziyeva** – falsafa fanlari doktori, professor;
19. **Ravshan Xudayberganov** – falsafa fanlari doktori, dotsent;
20. **Amrullo Karimov** – filologiya fanlari doktori, dotsent;
21. **Sanjar Saidov** – siyosiy fanlar doktori, dotsent;
22. **Baxtiyor Djalilov** – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;
23. **Erkinjon Botirov** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
24. **Rahimboy Jumaniyozov** – filologiya fanlari nomzodi, professor;
25. **Dilorom Rahimbayeva** – tarix fanlari nomzodi, dotsent;
26. **Feruza Musayeva** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim;
27. **Dilfuza Shadiyeva** – filologiya fanlari nomzodi;
28. **Alisher Matyakubov** – filologiya fanlari nomzodi;
29. **Rayhon Sarsenbayeva** – pedagogika fanlari nomzodi;
30. **Laziz Rahmatov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);
31. **Ulug'bek Olimov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);
32. **Farida Kuldasheva** – qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
33. **Mustafo Xidirov** – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
34. **Vaziraxon Ochilova** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
35. **Mardonbek Eshimbetov** – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

CHIEF EDITOR:

Tukhtamish Azizov

Vice-rector on scientific affairs and innovation,

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Associate Professor

THE DEPUTY EDITOR:

Faridakhon Khamidova

Doctor of Economic Sciences, Professor;

RESPONSIBLE EDITOR:

Gulnoz Bahodirova

Doctor of Philological Sciences, Associate Professor;

TECHNICAL EDITOR:

Tolib Najmiddinov

EDITORIAL BOARD:

1. **Galina Melnik (Russia)** – Doctor of Political Sciences, Professor, Academic
2. **Sol Von Te (South Korea)** – PhD, Professor
3. **Saidahrar Gulomov** – Doctor of Economic Sciences, Professor, Academic
4. **Gayrat Shoumarov** – Doctor of Psychological Sciences, Professor, Academic
5. **Narzulla Jurayev** – Doctor of Political Sciences, Professor, Academic
6. **Yuldash Jurayev** – Doctor of Legal Sciences, Professor
7. **Bohodir Isroilov** – Doctor of Economic Sciences, Professor
8. **Narboy Karimov** – Doctor of Economic Sciences, Professor
9. **Shahriddin Ganiyev** – Candidate of Economic Sciences, Professor
10. **Ganisher Rakhimov** – Doctor of Philological Sciences, Professor
11. **Qurdosh Qahramonov** – Doctor of Philological Sciences, Professor
12. **Ulugbek Hamdamov** – Doctor of Philological Sciences, Professor
13. **Oybek Hayitov** – Doctor of Psychological Sciences, Professor
14. **Umarali Kadirov** – Doctor of Psychological Sciences, Professor
15. **Hasanboy Abdusamatov** – Doctor of Psychological Sciences, Professor
16. **Mashraboy Khalimova** – Doctor of Psychological Sciences, Professor
17. **Nigina Shermukhamedova** – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
18. **Ruxsora Ruziyeva** – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
19. **Ravshan Khudayberganov** – Doctor of Philosophical Sciences, Associate Professor
20. **Amrullo Karimov** – Doctor of Philological Sciences, Associate Professor
21. **Sanjar Saidov** – Doctor of Legal Sciences, Associate Professor
22. **Baxtiyor Djalilov** – Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor
23. **Erkinjon Botirov** – Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
24. **Rahimboy Jumaniyozov** – Candidate of Philological Sciences, Professor
25. **Dilorom Rahimbayeva** – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor
26. **Feruza Musayeva** – Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Senior Researcher
27. **Dilfuza Shadieva** – Candidate of Philological Sciences
28. **Alisher Matyakubov** – Candidate of Philological Sciences
29. **Rayhon Sarsenbayeva** – Candidate of Pedagogical Sciences
30. **Laziz Rakhmatov** – Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD)
31. **Ulugbek Olimov** – Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD)
32. **Farida Kuldasheva** – Doctor of Philosophy in Agricultural Sciences (PhD)
33. **Mustafo Khidirov** – Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)
34. **Vazirakhon Ochilova** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)
35. **Mardonbek Eshimbetov** – Doctor of Philosophy in Physical and Mathematical Sciences (PhD)



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

MUNDARIJA

MOLIYA VA IQTISOD

Ulug‘bek NURMANOV. Xalqaro amaliyotda pul mablag‘lari aylanishini boshqarish va ularning zamonaviy modellari	8
Rahmonali OBIDOV. Xalqaro standartlar asosida daromadlarni tan olishning xususiyatlari	16
Shakhnoz ABDULLAYEVA. Strengthening of social protection mechanism of the population in the condition of sustainable economic development	23
Ortiq ERNAZAROV, Nigina NURULLAYEVA. Aloqa xizmatlari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili	31
Насиба ИМАМОВА. Организация консолидированного учета и отчетности на основе международных стандартов финансовой отчетности	39
Amriddin XAMDAMOV. Turistik korxonalar faoliyatini tartibga solishning moliyaviy mexanizmini shakllantirish asoslari	48

FILOLOGIYA

Durdona XUDAYBERGANOVA. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari tilining lingvomadaniy xususiyatlari	55
Tolib NAJMIDDINOV. Xorxe Luis Borxes ijodida uslubiy rang-baranglik va o‘ziga xoslik	64
Nargiza DJURAYEVA. The problems of task-based language teaching in finance students: a comprehensive study	72
Muniskhon MAKHKAMOVA. Anthropocentric views in the linguistic landscape of the world	85

FALSAFA

Go‘zal. ERGASHEVA. Tarbiya jarayonida ijtimoiy falsafiy qarashlardan foydalanish metodikasi	89
Dilbar Qodirova. Badiiy asar qurilmasida estetik me’yorlar va mezonlar paragdigmasi tahlili	93

PSIXOLOGIYA

Zarnigor XAYRULLAYEVA. Yoshlarni ota-onalikka tayyorlashda sharq mamlakatlari tajribasi	100
Ilhom KARIMOV. Yoshlar siyosatiga doir qonunchilik ijrosining sotsiologik tahlili	109

TA’LIM VA O‘QITISH METODIKASI

Гулноз БАХОДИРОВА. Некоторые функции и методы контроля в управлении качеством образования	117
--	------------



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Sardor ABDUXAMIDOV, Davron QURBONALIYEV. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilar innovatsion salohiyatini rivojlantirishning ijodiy faoliyat metodikasi	127
Ne‘matulla ZUVAYDULLAYEV. The negative impacts of artificial intelligence on education	133

SIYOSAT VA TARIX

Laziz RAHMATOV. Zamonaviy tashqi siyosat bo‘yicha e’tiborli manba	137
Jo‘rabek TO‘RAMURODOV. Muzeylarda zamonaviy innovatsiyalarning qo‘llanilishi: Yevropa tajribasi	141

JURNALISTIKA

Zoxir TOSHXUJAYEV. O‘zbekiston milliy axborot makonida saytlarning o‘rni	149
Гулноза НАЖМИДДИНОВА, Кундыз ПИРИМБЕТОВА. Интернет как новая среда социальной коммуникации	154

TALABA MINBARI

Камола АЪЗАМЖОНОВА. Взаимосвязь мотивации и индекса счастья педагогов	158
Arina AMONKELDIYEVA. Financial performance analysis of company Amazon and Alibaba	164



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

MOLIYA VA IQTISOD

XALQARO AMALIYOTDA PUL MABLAG‘LARI AYLANISHINI BOSHQARISH VA ULARNING ZAMONAVIY MODELLARI

Ulug‘bek NURMANOV¹

¹ISFT instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

KALIT SO‘ZLAR

Joriy aktivlar, pul mablag‘lari, pul mablag‘lari harakati, pul tushumlari, pul oqimi, pul oqimlarini prognozlash, investitsiyalangan pul mablag‘lari, pul mablag‘larini optimallashtirish, pul mablag‘larini optimallashtirish modellari, sotishdan pul tushumi, pul oqimining shakllanishi, kritik o‘zgaruvchan, pul aktivlari qoldig‘i.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Оборотные активы, денежные средства, движение денежных средств, денежные потоки, прогнозирование денежных потоков, инвестированные денежные средства, оптимизация денежных средств, модели оптимизации денежных средств, выручка от продаж, формирование денежных потоков, критическая переменная, остаток денежных активов.

KEY WORDS

Current assets, cash, cash flow movement, cash receipts, cash flow, cash flow forecasting, invested cash, cash optimization, cash optimization models, cash flow from sales, cash flow formation, critically variable, cash asset balance.

ANNOTATSIYA

Joriy aktivlar qisqa muddatli ishlatish uchun mo‘ljallangan va bir ishlab chiqarish sikl davomida pulga aylantiriladigan mablag‘lar sanaladi. Shu sababli ularni samarali tashkil etish va boshqarish uchun qanday mezonlarga ko‘ra tupkumlanishi, tuzilmasi hamda tarkibiy qismlari o‘rtasidagi nisbat qanday bo‘lishi kabi jihatlarini o‘rganish muhimdir. Xo‘jalik subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda ham joriy aktivlardan samarali foydalanish muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Pul mablag‘lar harakatiga baho berish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni xo‘jalik jarayoniga jalb qilish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish dolzab sanaladi.

АННОТАЦИЯ

Оборотные активы – это средства, предназначенные для краткосрочного использования и конвертируемые в денежные средства в течение одного производственного цикла. Поэтому важно изучать как они сливаются, какова их структура, а также каково соотношение между их компонентами для их более эффективной организации и управления. Эффективное использование оборотных активов также является одной из важных задач в обеспечении финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов. Актуальна оценка движения денежных средств и разработка программ по выявлению внутрихозяйственных возможностей повышения эффективности производства и вовлечению их в хозяйственный процесс.

ABSTRACT

Current assets are resources intended for short-term use and are converted into cash within a single production cycle. Therefore, it is crucial to study how they are formed, their structure, and the ratio between their components to ensure more effective organization and management. Efficient use of current assets is also a key task in maintaining the financial stability of business entities. Evaluating cash flow and developing programs to identify internal opportunities for improving production efficiency and integrating them into the economic process remain highly relevant.

Kirish. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo‘jalik subyektlarining joriy aktivlarini tahlil qilish natijasida, ularning solishtirma hissasi ishlab chiqarish sohasida doimiy ravishda ko‘payib, muomala sohasida (tayyor mahsulot, pul mablag‘lari) esa kamayib borganligini ko‘rish mumkin. Joriy aktivlarni o‘rganishda pul mablag‘lari alohida o‘rin egallaydi. Bunday mablag‘lar kassa, hisob-kitob, valyuta hisobraqamidagi pullar tushuniladi. Mazkyp joriy aktivlar munosabatlarini to‘lov majburiyatlarining bajarilishida birlamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valyuta hisobraqamidagi mablag‘lar mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, byudjet, bank, sug‘urta va boshqalar bilan bo‘ladigan aloqa manbayidir. Shy tufayli ushbu masala alohida o‘rganilishi lozim.

Pul mablag‘lari hisob-kitobi – kreditorlarga xo‘jalik subyektlarining kreditga bo‘lgan tig‘iz talabini baholash uchun va operatsion sikl davomida qisqa muddatli ssudalarni qoplash uchun yetarli darajadagi pul mablag‘larini ishlab topishga qodirligini aniqlash imkoniyatini beradi, shuningdek, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kreditlarga ehtiyoji mavjudligini aniqlashda hamda qarzdorlarning mavsumiy tijopat sikli davomidagi moliyaviy ehtiyojlarini aniqlashda majburiyatlar qoplanishining imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish faoliyatini yuritishda asosiy huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasida aktivlar va majburiyatlarni baholash tartibi keltirilgan [1]. Shuningdek, ushbu qonun bilan

birga bir qator BHMClar ham joriy aktivlarni hisobga olishning meyoriy-huquqiy asoslari hisoblanadi. Xususan, 9-sonli “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot” nomli BHMClar [2], 15-sonli “Buxgalteriya balansi” [3] nomli BHMClar orqali joriy aktivlar hisobi tartibga solib boriladi.

Xalqaro amaliyotda esa naqd pul muomalasi 32-son IAS va 39-sonli “Moliyaviy-qimmatli qog‘ozlar” [4] va 7-con IFRS “Pul oqimi hisobotlari” bilan tartibga scolinadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Pul mablag‘lari to‘g‘risida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Spiceland, David J., James F. Sepe va Lawrence A. Tomassinlarning fikricha “Pul mablag‘lari o‘z tarkibiga banknotlar va tangalar, hisobraqamlardagi qoldiqlar, shuningdek, ushbu hisobraqamlarga kirim qilinishi bo‘yicha xaridoplar tomonidan berilgan cheklar kiritiladi. Pul mablag‘larining ushbu ko‘rinishlari korxonaning qarzini qoplashga yoki joriy faoliyatda foydalanishda hech qanday huquqiy va shartnomaviy cheklovlersiz oson qo‘llanilishi mumkin” [6].

V.Kovalev va V.Patrovlarning ta’kidlashlaricha, “Moliyaviy boshqaruv san’ati aynan shundan iboratki, hisobraqamlarda minimal mablag‘lar summasini qoldirib, qolganlarini joriy operatsion faoliyatda zarur bo‘ladigan tez pealizatsiya qilinadigan aktivlarda saqlashdir” [7].

I.Ismanov, N.Toshmamatov, S.Buzrukxonovlarning fikricha “Korxonaning pul mablag‘lari ularning hisob-kitobidagi,

maxsus hisobraqamlaridagi va kassadagi naqd pullardan tashkil topadi» [8] – deb ta’kidlagan.

Pul oqimlari to’g’risidagi ma’lumotlar xo’jalik yurituvchi sybyektning ishlab chiqarish qobiliyatini baholash va ularga bo’lgan ehtiyojini aniqlash uchun zarydir. IAS 7-son “Pul mablag’lari harakati to’g’risida hisobot» xalqaro moliyaviy hisobot standartining maqsadi operatsion (joriy), investitsion va moliyaviy faoliyatdan kelib chiqqan pul mablag’lari va ularning ekvivalentlarining tarixiy o’zgarishlari to’g’risida ma’lumot berishdan iborat ekanligi bejiz emas.

Natijalar. Xo’jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimini boshqarish moliyaviy menejerning eng muhim

faoliyatidan biri bo’lib, ular quyidagilardan iborat: moliyaviy bosqichni hisoblash;


- pul oqimi tahlili;
- pul oqimlarini prognozlash;
- mablag’larning optimal darajasini aniqlash;
- pul mablag’larini boshqarish usullarini ishlab chiqish.

Ushbu faoliyat turlarining har birini quyida kengroq yoritib o’tamiz:

Moliyaviy bosqich yoki pul muomalasi bosqichi – bu mablag’lar muomaladan chetlashtiriladigan vaqt hisoblanib, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida mablag’lar aylanishining asosiy bosqichlari quyidagi rasmda ko’rsatilgan.

График 1.

Динамика кредитования малого бизнеса и уровня просроченной задолженности (2018-2023)



1-rasm. Joriy aktivlarning aylanish bosqichlari

Moliyaviy bosqich moliyaviy resurslarning zaxiralar va debitorlik qarzlarida haraktsiz bo‘lgan umumiy vaqtni tavsiflaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt yetkazib beruvchining schyot-fakturalarini vaqt oralig‘i bilan to‘laganligi sababli pul mablag‘larini muomaladan chiqarib yuborish vaqti, ya‘ni moliyaviy bosqich kreditorlik qarzlar aylanishining o‘rtacha vaqtiga nisbatan qisqaroq sodir bo‘ladi. Moliyaviy davrlarning dinamikasi qisqarishi ijobiy jarayon sifatida

qaraladi. Agar muomala davrining qisqarishini ishlab chiqarish jarayoni va debitorlik qarzlar aylanmasini tezlashtirish orqali amalga oshirish mumkin bo‘lsa, moliyaviy bosqichni shu omillar ta‘sirida hamda kreditorlik qarzlar aylanmasining kritik bo‘lmagan sekinlashuvi hisobiga ham qisqartirish mumkin. Moliyaviy bosqichning aylanish kunlardagi davomiyligi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$MB = MBD - KQMD = IChZMD + DQMD - KQMD \quad (1)$$

Bunda: MBD – muomala bosqichi davomiyligi; KQMD – kreditorlik qarzlarni muomala davri; IChZMD – ishlab chiqarish zaxiralarini muomala davri; DQMD – debitorlik qarzlarning muomala davri.

$$ChZMD = \frac{IChZO'}{MICHX} * D \quad (2)$$

$$DQMD = \frac{DQO}{KST} * D \quad (3)$$

$$KQMD = \frac{KQO'}{MICHX} * D \quad (4)$$

Bunda:

D – davriylik (D = 365 kun);

IChZO' – ishlab chiqarish zaxiralarining o‘rtachasi;

DQO' – debitorlik qarzlarning o‘rtachasi;

KQO' – kreditorlik qarzlarning o‘rtachasi;

MICHX – mahsulot ishlab chiqarish uchun xarajatlar;

KST – kredit bo‘yicha sotishdan tushum.

Hisoblashning axborot ta‘minoti – moliyaviy hisobotlar hisoblanadi.

Mazkur hisoblash ikki yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin:

- debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar uchun;

- ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ko‘ra.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini prognoz qilish ma‘lum bir davr

uchun kichik davrlar kontekstida amalga oshiriladi: *yil - chorak, yil - oy, chorak - oy* va boshqalar.

Prognozlash tartibining bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- pul tushumlarini kichik davrlar bo‘yicha prognozlash;

- kichik davrlar bo‘yicha pul mablag‘larining chiqishini prognozlash;

- davrlar bo‘yicha sof pul oqimi (ortiqcha/taqchilligi)ni hisoblash;

- kichik davrlar sharoitida qisqa muddatli moliyalashtirishga umumiy ehtiyojni aniqlash.

Birinchi bosqichda mumkin bo‘lgan pul tushumlari miqdorini hisoblash amalga oshiriladi. Amalda esa ko‘pchilik korxonalar mijozlarning hisob-kitoblarni to‘lash uchun ketadigan o‘rtacha vaqtini hisobga oladi. Shunga asoslangan holda mahsulotlarni

sotishdan tushgan tushumning qaysidir qismi xuddi shu yarim davrda, qaysidir qismi esa keyingi davrda tushishini hisoblash mumkin. Bundan tashqari balans usulidan foydalangan holda kassa tushumlari va debitorlik qarzlarning o'zgarishi zanjirli tarzda hisoblanadi. Ya'ni asosiy tenglama ko'rinishi quyidagicha:

$$DQ_b + ST = DQ + PT$$

Bunda: DQ_b – davr boshidagi tovar va xizmatlar uchun debitorlik qarzlari;

DQ – tovar va xizmatlar uchun debitorlik qarzlari;

ST – davr uchun mahsulot sotishdan tushum;

PT – davrda pul tushumlari.

Ikkinchi bosqich naqd pul oqimini hisoblash aniqlanadi. Uning asosiy maqsadi kreditorlik qarzlarni to'lashdir. To'lovni kechiktirish jarayoni “muddati uzaytirilgan” kreditorlik qarzlari deb ataladi. Bunda kechiktirilgan kreditorlik qarzlari qisqa muddatli moliyalashtirishning qo'shimcha manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunday tizimda kechiktirilgan kreditorlik qarzlari ancha qimmat mablag' manbayiga aylanadi, chunki mol yetkazib beruvchining chegirmalarining bir qismi yo'qoladi.

Uchinchi bosqich yuqorida keltirilgan ikkita bosqichning mantiqiy davomi bo'lib, unda bashorat qilingan pul tushumlari va to'lovlarini taqqoslash orqali sof pul oqimi hisoblab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich – qisqa muddatli moliyalashtirishga bo'lgan umumiy ehtiyoj hisoblab chiqiladi. Bunda prognoz qilingan pul oqimini ta'minlash uchun zarur bo'lgan har bir kichik davr uchun qisqa muddatli bank kreditining hajmi aniqlanadi.

Har xil turdagi joriy aktivlar turlicha likvidlikka ega bo'lib, bu esa ushbu aktivni pulga aylantirish uchun zarur bo'lgan vaqt davri va konvertasiyani ta'minlash xarajatlari sifatida tushuniladi. Bunda faqat naqd pul mablag'lari mutlaq likvidlikka ega.

Investitsiyalangan pul mablag'lari investitsiyalangan tovar-moddiy zaxiralari nazariyasi nuqtayi nazaridan alohida holatlaridan biridir. Shu sababli ularga umumiy talablar qo'llaniladi, ya'ni:

- joriy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asosiy mablag'lar ta'minoti talab qilinadi;
- kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun ba'zi mablag'lar kerak;
- faoliyatning mumkin bo'lgan yoki bashorat qilinadigan kengayishini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda bepul naqd pulga ega bo'lish tavsiya etiladi.

Ya'ni, zaxiralarni boshqarish nazariyasida ishlab chiqilgan va pul miqdorini optimallashtirishga imkon beruvchi modellar pul mablag'lariga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Pul mablag'lar miqdorini optimallashtirish uchun turli xil modellari mavjud:

- **Baumol modeli.**
- **Miller-Orr modeli.**
- **Stoun modeli.**
- **Monte-Karlo modeli.**

Baumol modeli bunda xo'jalik yurituvchi subyekt maksimal va maqsadga muvofiq mablag'lar bilan ishlab boshlaydi hamda ularni doimiy ravishda ma'lum vaqt davomida sarflaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan barcha mablag'larni qisqa muddatli qimmatli



qog'ozlarga sarmoya qiladi. Pul mablag'lari zaxirasi tugashi bilan nolga tenglashadi yoki ma'lum bir belgilangan xavfsizlik darajasiga yetadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt qimmatli qog'ozlarning bir qismini sotadi va shu orqali pul zaxirasini dastlabki qiymatiga qadar to'ldiradi.

Miller-Orr modeli oddiy va xarajatlari barqaror hamda prognoz qilinadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun juda maqbuldir. Aslida esa bunday holat kamdan-kam hollarda sodir bo'ladi.

Miller va Orr tomonidan ishlab chiqilgan model oddiylik va haqiqat o'rtasidagi kelishuvdir. Bu orqali quyidagi savolga javob berishga yordam beradi, ya'ni agar pulning kunlik chiqishi yoki kirib kelishini bashorat qilishning iloji bo'lmasa, xo'jalik yurituvchi subyekt pul ta'minotini qanday boshqarishi kerak?

Miller va Orr modelni yaratish uchun Bernulli jarayonidan foydalanadilar, bunda davrdan davrga pulning kelib tushishi va sarflanishi mustaqil tasodifiy hodisalar bo'lgan stoxastik jarayondir.

Mazkur modelning mantig'i quyidagicha: hisob balansi yuqori chegaraga yetgunga qadar tasodifiy o'zgaradi. Bu holat sodir bo'lishi bilan xo'jalik yurituvchi subyekt mablag'lar zaxirasini qandaydir normal darajaga (qaytish nuqtasi) qaytarish uchun yetarli miqdorda qimmatli qog'ozlarni sotib olishni boshlaydi. Agar pul zaxirasi quyi chegaraga yetsa, u holda xo'jalik yurituvchi subyekt o'z qimmatli qog'ozlarini sotadi va naqd pul zaxirasini normal darajaga (qaytish nuqtasi) to'ldiradi.

Stoun modeli asosiy xususiyati xo'jalik yurituvchi subyektning hozirgi vaqtdagi harakatlari yaqin kelajak uchun prognoz

qilinishi bilan belgilanadi. Agar yaqin kunlarda yuqori xarajatlar kutilsa, shu bilan birga konvertatsiya operatsiyalari sonini minimallashtirish va natijada xarajatlarni kamaytirish orqali yuqori chegaraga erishishda pul mablag'larining qimmatli qog'ozlarga darhol o'tkazib bo'lmaydi.

Miller-Orr modelidan farqli o'laroq, Stoun modeli maqsadli pul mablag'lar qoldig'i va nazorat chegaralarini aniqlash usullarini ko'rsatmaydi. Ushbu modelning muhim afzalligi shundaki, uning parametrlari belgilangan qiymatlarga ega emas. Model mavsumiy tebranishlarni hisobga olishi mumkin, chunki menejer prognoz qilishda ma'lum vaqt oralig'ida ishlab chiqarish xususiyatlarini baholaydi.

Monte-Karlo modeli. Ushbu model maqsadli qoldiqni aniqlash uchun ishlatiladi hamda model ko'rsatkichlarning ehtimollik xususiyatini hisobga oladi. Monte-Karlo usuli (Monte-Carlo Simulation) simulyatsiya modellashtirish parametrlarning noaniq qiymatlari bilan matematik modelni qurish imkonini beradi, firmaning pul oqimlari parametrlarining ehtimollik taqsimotini bilish, shuningdek, maqsadli pul qoldig'ining taqsimlanishini olish uchun parametr o'zgarishi (korrelyatsiya) o'rtasidagi munosabatdir.

Mazkur usulni qo'llashning birinchi bosqichi pul oqimining shakllanishiga ta'sir qiluvchi har bir o'zgaruvchini taqsimlash funksiyasini aniqlashdir. Qoida tariqasida taqsimot funksiyasi normal deb taxmin qilinadi va shuning uchun uni aniqlashtirishda faqat ikki nuqta – o'rtacha va dispersiyani aniqlash kerak.

Funksiyaviy taqsimot aniqlangandan so‘ng Monte-Karlo jarayonini qo‘llash mumkin. Monte-Karlo imitatsion usulining algoritmi quyidagilardan iborat:

1-bosqich. Statistik paketdan foydalanish asosida tasodifiy ravishda ehtimoliy taqsimot funksiyasidan kelib chiqib, pul oqimini aniqlash parametrlaridan biri bo‘lgan o‘zgaruvchining qiymati tanlanadi.

2-bosqich. Tasodifiy o‘zgaruvchining tanlangan qiymati, ekzogen o‘zgaruvchilar bo‘lgan o‘zgaruvchilar qiymatlari bilan birgalikda maqsadli pul qoldig‘ini hisoblash uchun ishlatiladi.

1-bosqich va 2-bosqich ko‘p marta takrorlanadi, masalan 1000 va natijada maqsadli pul qoldig‘ining 1000 qiymati o‘zining matematik taxmini va standart o‘zgarishi bilan maqsadli balans qiymatining taqsimlanish zichligini yaratish uchun ishlatiladi.

Kritik o‘zgaruvchining minimal va maksimal qiymatlarini bosqichma-bosqich taqsimlanadigan o‘zgaruvchi uchun ikkita qo‘shimcha qabul qilinadigan boshqa qiymatlarni aniqlash zarur. O‘zgaruvchining o‘zgarish chegaralari shunchaki mumkin bo‘lgan qiymatlarning butun spektrini hisobga olgan holda aniqlanadi.

O‘zgaruvchining oldingi kuzatuvlariga asoslanib, uning mos keladigan qiymatlarni olish va tezligini aniqlash mumkin. Bunday holda ehtimollik taqsimoti nisbiy shkala bo‘yicha (0 dan 1 gacha) bo‘lsa-da, qiymatning paydo bo‘lish tezligini ko‘rsatadigan bir xil tezlik taqsimotidir.

Ehtimoliy taqsimot ma‘lum bir oraliqdan qiymatlarni tanlash ehtimolini tartibga soladi.

Berilgan taqsimotga muvofiq, maqsadli pul qoldig‘ini aniqlash modeli o‘zgaruvchi uchun o‘z qiymatlarini tanlaydi. Maqsadli pul qoldig‘ini ehtimoliy aniqlash modelining bir qismi sifatida, o‘zgaruvchining turli qiymatlari bo‘lganda, samaradorlik ko‘rsatkichi qanday harakat qilishini (u qanday chegaralar ichida o‘zgarishi, qanday taqsimlanishi) aniqlash uchun ko‘p sonli ko‘rsatmalar amalga oshiriladi hamda berilgan taqsimotga muvofiq modelga almashtiriladi.

Muhokama va natija. G‘arb amaliyotida Baumol modeli va Miller-Orr modeli eng ko‘p qo‘llaniladi. Naqd pul qoldiqlarining maqbul miqdorini matematik hisoblashning aniqligiga qaramay ushbu modellardan quyidagi sabablarga ko‘ra moliyaviy boshqaruvning mahalliy amaliyotida foydalanish hali ham qiyin, jumladan:

– joriy aktivlarning surunkali taqchilligi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularning zaxirasini hisobga olgan holda zarur miqdorda pul mablag‘lari qoldig‘ini shakllantirishga imkon bermaydi;

– to‘lovlar aylanmasining sekinlashishi pul tushumlari miqdorida sezilarli (ba‘zan oldindan aytib bo‘lmaydigan) o‘zgarishlarga olib keladi, bu mos ravishda pul aktivlari qoldig‘i miqdorida aks etadi;

– muomaladagi qisqa muddatli fondlarning cheklangan ro‘yxati va ularning past likvidligi hisob-kitoblarda qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardan foydalanishni qiyinlashtiradi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘ricida”gi Qonuni.
2. “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot» nomli 9-sonli BHMS.
3. Spiceland, David J., James F. Sepe and Lawrence A. Tomassini. Intermediate accounting, 4th ed. Irwin: McGraw-Hill, 2009.
4. “Buxgalteriya balansi” 15-sonli BHMS.
5. Moliyaviy-qimmatli qog‘ozlar» 39-sonli MXXS.
6. «Pul oqimi hisobotlari» 7-son MXXS.
7. Ковалев В.В., Патров В.В., Быков В.А. Как читать баланс. - 3-е изд., переработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 5-е изд., перераб. И доп.-М: 2006. - 672 с.
8. Ismanov I., Toshmamatov N., Buzrukxonov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. – T.: Sano-standart, 2019. – B. 52.
9. World Bank Group. Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program. – Washington, D.C.: World Bank, 2022.
10. Государственный комитет статистики Республики Узбекистан. Статистический ежегодник Узбекистана 2023. – Ташкент: Госкомстат.



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA DAROMADLARNI TAN OLISHNING XUSUSIYATLARI

Rahmonali OBIDOV¹

¹ ISFT instituti professor v.b., PhD

KALIT SOʻZLAR
Tushum, majburiyat, nazorat, qoplash huquqi, debitor qarzarlar, daromad, baholash usullari, natijalar usuli, resurslar usuli, shartnoma bahosi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Выручка, обязательство, контроль, право на возмещение, дебиторская задолженность, доход, методы оценки, метод результатов, метод ресурсов, контрактная оценка.
KEY WORDS
Income, liability, control, right of reimbursement, receivables, income, valuation methods, results method, resource method, contract price.

ANNOTATSIIYA
Oʻzbekiston jahon hamjamiyati bilan aloqa qilishda nufuzli korxonalar bilan birgalikda faoliyat koʻrsatishida, chet el investorlarini jalb qilishda xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Chet el davlatlaridagi xaridorlar bilan savdo aloqalarini toʻgʻri tashkil etishda IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) dan foydalaniladi. Ushbu maqolada xalqaro amaliyotda va milliy hisobda tushum, daromadlarni tan olish usullari, baholash mezonlari, oʻziga xos xususiyatlari va ahamiyatlari ochib berilgan.
АННОТАЦИЯ
Подготовка финансовой отчетности на основе международных стандартов имеет важное значение для взаимодействия Узбекистана с мировым сообществом, привлечения иностранных инвесторов, совместной деятельности с авторитетными предприятиями. При правильной организации торговых связей с покупателями в зарубежных странах используются международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) МСФО 15 “Доходы на основе контрактов с клиентами”. В данной статье раскрыты методы признания выручки, доходов, критерии оценки, их особенности и значение в международной практике и национальном учете.
ABSTRACT
Preparation of financial reports based on international standards is of urgent importance for Uzbekistan's communication with the world community, working together with reputable enterprises, and attracting foreign investors. International financial reporting standards (IFRS) entitled IFRS 15 "Revenues on the basis of contracts with customers" are used for the correct organization of trade relations with buyers in foreign countries. This article reveals income, income recognition methods, evaluation criteria, specific features and importance in international practice and national accounting.

Kirish. Davlatimizda dunyo hamjamiyati bilan oʻrnatilayotgan iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar, doʻstlik va hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Xorijiy hamkorlar bilan har tomonlama manfaatli aloqalarni oʻrnatish, sherikchilikni kengaytirish uchun Oʻzbekiston butun dunyo ochiq bozorlariga chiqishi kerak, bu esa, oʻz navbatida, yangi texnologiyalarni

olib kelinishiga, bozor islohotlarini rivojlantirishga va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tezlashishiga sabab boʻladi. Prezidentimizning “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi” nomli kitobidagi quyidagi jumlagi eʼtibor qaratsak: “Bizga iqtisodiy integratsiya kerak! Bu borada muloqot va raqobatga tayyor boʻlish uchun esa nafaqat

rahbarlar, balki menejerlar o‘z ustida tinimsiz ishlashi shart”. “Albatta, biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun bu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o‘zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor” [1; 42]. Prezidentimizning yuqoridagi gaplariga aniq isbot sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini keltirish mumkin. Ushbu qarorda: “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari”ga (keyingi o‘rinlarda – MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

1. Belgilansinki, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o‘tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS

bo‘yicha moliyaviy hisobot” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud “Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)”, “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)” va “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)” sertifikatlaridan (keyingi o‘rinlarda – xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta‘minlaydi” keltirilgan [2].

Tadqiqot metodologiya. MHXS larini mohiyatini tushunish uchun ularni har birini chuqur o‘rganib, milliy hisobot standartlarimiz bilan uyg‘unlashtirish yo‘llarini ishlab chiqish juda muhimdir.

MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standarti 2014-yil may oyida buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHMS) IAS 11 “Qurilishdagi shartnomalar” va (BHMS) IAS 18 “Tushum” nomli standartlarning o‘rniga chiqarilgan.

MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standartida tushumga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Tushum – bu odatiy, ya‘ni korxonaning asosiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan daromaddir” [3] deyilgan. Tushumni tan olishda 5 ta asosiy qadamlar ajratilgan:

1-qadam. Xaridor bilan shartnomani identifikatsiyalash, ya‘ni shartnomani tuzishdagi talablarga javob berilishi: shartnoma sanasi, nomi, rekvizitlari, summalari aniqlangan bo‘lishi kerak. Tushum faqatgina xaridor bilan shartnoma tuzilgandagina tan olinadi.

2-qadam. Xaridor bilan tuzilgan shartnoma asosida yuzaga keladigan majburiyatlar, ularni bajarilishini ta'minlash identifikatsiya qilingan, aniq qilib ko'rsatilgan bo'lishi kerak, ya'ni tuzilgan shartnomaga asosan sotuvchi shu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni ijrosi yuzasidan qanday majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi, shartnomada ko'rsatilgan har bir tovar va xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

3-qadam. Shartnoma narxini belgilash. Shartnomada tovar va xizmatlar yuzasidan bo'ladigan to'lovlarning har xil shartlari bo'lishi mumkin: oldindan to'lov miqdori, ma'lum vaqtga kechiktirib to'lash, tovar uchun to'lov qilishda qat'iy belgilangan o'zgaruvchan qismlari bo'lishi mumkin, to'lov pul ko'rinishida yoki aksincha pul bo'lmagan ko'rinishda ham amalga oshirilishi mumkin. Shartnoma tuzilgan sanada narx belgilanadi. Agar vaqt faktori mavjud bo'lsa, ya'ni to'lov shartnoma shartlariga asosan bir yildan ortiq bo'lgan muddatga amlaga oshiriladigan bo'lsa, shartnoma shartlarida moliyalashtirish komponenti mavjud bo'ladi va u alohida ko'rsatilishi kerak. Agar o'zgaruvchan komponentni olish taxmini yuqori bo'lsa, u holda u shartnoma bahosiga qo'shiladi [2].

Masalan, shartnoma shartiga ko'ra to'lov 2 yildan so'ng amalga oshirilsa, 2 yildan keyingi pul birligi hozirgi kundagi pul birligiga teng bo'lmaganligi sababli, kelajakda olinadigan summa diskontlanadi.

4-qadam. Shartnoma bahosining shartnoma shartlari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarga taqsimlanishi. Avvalgi qadamda belgilangan shartnoma bahosi, 2-qadamda ko'rsatilgan tovar va xizmatlar bo'yicha taqsimlanishi kerak, ya'ni

2-qadamdagi tovar va xizmatlar alohida sotilganda qanchaga sotilishi mumkinligi aniqlanib, foizda ulushi topiladi va shartnoma bahosini topilgan ulush doirasida alohida tovar va xizmatlar bo'yicha shartnoma bahosi proporsional taqsimlanadi.

5-qadam. Sotuvchi shartnomaga asosan o'z majburiyatlarining bajarilishi mobaynida daromadni tan olib borishi kerak. Shartnoma majburiyatlarining bajarilishi aniq bir vaqtda va ma'lum bir davr mobaynida amalga oshirilishi mumkin. Buni aniqlash uchun majburiyatlarni bajarilish darajasi baholanadi. Umuman olganda odatda tushum (daromad) xaridorga tovar va xizmatlar ustidan nazorat topshiriladigan vaqtda tan olinadi.

Tahlil va natijalar. MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standarti debitorlik qarzlari tushunchasini o'zgartirdi. Odatda debitorlik qarzlari xaridorlarning yetkazib berilgan tovar yoki xizmatlar bo'yicha to'lanmagan qarzi hisoblanadi. Ushbu standartga asosan esa debitorlik qarzi – bu tashkilotning shartsiz qoplash huquqiga ega bo'lishi, ya'ni sotuvchi yetkazilgan tovar va xizmatlar uchun to'lov olishga so'zsiz haqli degani. Xaridor shartnomaga asosan oldindan to'lov qilishi kerak bo'lsa (xali yetkazib berilmagan tovar va xizmatlar uchun), shartnoma tuzilgan vaqtda sotuvchi o'z hisobida debitorlik qarzini hamda tovar va xizmatlarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatni ham tan oladi.

Shartnoma bo'yicha aktiv (qoplash huquqi) – bu yetkazib berilgan tovar va xizmatlar uchun olinadigan qoplash huquqi, lekin hisobot sanasiga vujudga kelmagan, ya'ni sotuvchi qo'shimcha shartlarni oxirigacha bajargandagina debitorlik qarzi tan

olinadi, sotuvchi shartnoma shartiga asosan xaridorga hamma tovarlarni yetkazib bergandagina xaridor pulini to‘laydi. Yetkazib bermaguncha u debitor qarzi emas, shartnoma bo‘yicha aktiv deb tan olib turiladi. Nima uchun qisman yetkazib berilgan tovar uchun olinadigan to‘lovni debitorlik qarzi deb hisobga olmaymiz, chunki shartnoma shunday tuzilgan, xaridor hamma tovarlarni olgandagina tovar uchun to‘liq to‘lov qiladi. Moliyaviy hisobotlar investorga aniq va to‘g‘ri ma‘lumot berish uchun tuziladi, investor ko‘rgan ma‘lumotlaridan to‘g‘ri qaror chiqarishi uchun chalg‘imasligi, debitor qarzi alohida, shartnoma bo‘yicha aktiv alohida ko‘rsatilishi kerak, ya‘ni debitorlik qarzidagi pul olinishi aniq bo‘lgan summadir. Shartnoma bo‘yicha aktiv esa hali debitor qarzga aylanmagan summa, ya‘ni sotuvchida yana ozgina bajarilmagan majburiyat bor va shu majburiyat yuzasidan xarajat ham bor, shular bajarilgandan keyingina oladigan summasi aniq bo‘ladi degan ma‘noni bildiradi.

Masalan, sotuvchi hisobot davrida 200 000 so‘mlik tovarni xaridorga yetkazib bergan, sotilgan tovarning tannarxi 180 000 so‘m. Shartnoma shartiga asosan 250 000 so‘mlik tovar yetkazib berilgandan keyin, xaridor qarzini to‘laydi. Sotuvchi hisobot davrida quyidagicha buxgalteriya provodkalarini beradi:

Debet: Shartnoma bo‘yicha aktiv 200 000 so‘m.

Kredit: Sotilgan tovar bo‘yicha tushum 200 000 so‘m.

Tovar sotilganda tannarxi ham hisobdan chiqariladi.

Debet: Sotilgan mahsulot tannarxi 180 000 so‘m.

Kredit: Chiqib ketgan tovar 180 000 so‘m.
250 000 so‘mlik tovar yetkazib berildi, ya‘ni qolgan 50 000 so‘mi yetkazib berildi:

Debet: Debitorlik qarzi 250 000 so‘m.

Kredit: Shartnoma bo‘yicha aktiv 200000 so‘m.

Kredit: Sotilgan tovar bo‘yicha tushum 50000 so‘m.

MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standartida daromadga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Daromad – bu ta‘sischilarning xususiy kapitalga kiritilgan ulushi bilan bog‘liq bo‘lmagan, aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning kamayishi natijasida xususiy kapital ko‘payishiga olib keladigan moliyaviy hisobotning elementi hisoblanadi” [3].

Nazorat – bu imkoniyat (ko‘pincha yuridik huquq bilan himoyalangan):

Aktivdan foydalanish huquqini aniqlash imkoniyati;

Shu aktivdan foydalanish evaziga kelajakda undan iqtisodiy naf olish imkoniyati;

Olingan iqtisodiy naf (foyda)ga uchinchi shaxslarning aralashuvini cheklash imkoniyatlaridir.

Tushumni tan olish davri.

Sotuvchi tashkilot xaridor oldidagi majburiyatlarini bajarilishi mobaynida, ya‘ni tovar va xizmatlar bo‘yicha nazoratni berayotgan vaqtda tushumni tan oladi. Majburiyatlarning bajarilishi xususiyatidan kelib chiqib tushum:

Aniq vaqtda, ayni operatsiya sodir bo‘lgan vaqtda va

Ma‘lum davr mobaynida tan olinadi.

Davr mobaynida tushumni tan olish quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilganda ham tan olinadi:

Sotuvchi tomonidan majburiyatlar bajarilishi mobaynida xaridor bir vaqtning o‘zida ham foyda oladi va ham foydadan foydalanadi (har oylik texnik xizmat misol bo‘ladi);

Sotuvchi tomonidan majburiyatlarni bajarish orqali aktivning vujudga kelishi jarayonida xaridor nazoratida bo‘ladi;

Sotuvchi tashkilot tomonidan majburiyatlarini bajarish davrida barpo bo‘layotgan aktiv bo‘yicha mabodo shartnoma to‘xtatilsa va sotuvchi bu aktivdan foydalana olmasa va sotib yuborish alternativasi, ya‘ni yo‘li bo‘lmasa (aktiv xaridorning maxsus buyurtmasi orqali barpo bo‘lgan), xaridor shartnoma to‘xtatilish davrigacha, shartnoma asosida bajarilgan ish yuzasidan to‘lov olish huquqi bilan ta‘minlanganidir.

Boshqa qolgan vaziyatlarda tushum, ma‘lum vaqtda, operatsiya sodir bo‘lgan vaqtda tan olinadi.

Korxona tushumni, shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni davr mobaynida bajarish chog‘ida, faqatgina majburiyatlarni bajarish darajasini baholay olgandagina tan olishga haqlidir.

Majburiyatni bajarilish darajasini baholash 2 xil usulda amalga oshiriladi:

Natijalar usuli;

Resurslar usuli.

Yuqoridagi usullar faqatgina xaridor nazoratiga o‘tgan tovar va xizmatlar uchun qo‘llaniladi. Agar sotuvchi korxona tovar va xizmatlar bo‘yicha nazoratni xaridorga bermagan bo‘lsa, u tovar va xizmatlar

majburiyatlarni bajarish darajasini aniqlash usulida qatnasha olmaydi.

Baholash usullari xaridor oldidagi majburiyatlarni bajarish darajasini haqqoniy aks ettirishi kerak [4].

Natijalar usuli – shartnomada kelishilgan tovar yoki xizmatlarni xaridorga topshirish sanasigacha qolgan qismiga nisbatan baholanib, tushum tan olinadi.

Resurslar usuli – bu usul orqali tushum (daromad) ni tan olishda korxona shu aktivni yaratish uchun qancha xarajat qilgan, resurs ishlatgan, masalan, xom-ashyo, vaqt, ishchilar xizmat haqqisi kabi xarajatlardan kelib chiqqan holda tan olinadi.

Tushumni baholash.

Shartnoma bahosi – bu xaridordan yetkazib berilgan tovar va xizmatlar uchun va‘da qilingan to‘lov qoplamasi tarzida olinadigan summa.

Shartnoma bahosi belgilanayotgan vaqtda sotuvchi tashkilot shartnoma shartlaridagi quyidagi omillarni hisobga olishi kerak:

Tovar va xizmat uchun olinadigan to‘lov pul ko‘rinishidami yoki pul bo‘lmagan ko‘rinishdami;

Shartnomada moliyalashtirish komponentini mavjudligiga;

Majburiyatlarni bajarilishida vaqt bo‘yicha omillarning mavjudligiga;

To‘lovni qat‘iy belgilangan va o‘zgaruvchan qismlari mavjudligiga;

To‘lovni xaridorga qaytarish omillarini mavjudligi.

Pul ko‘rinishida to‘lanmaydigan to‘lov haqqoniy baho bo‘yicha baholanadi.

Agar tovar va xizmatlarning yetkazilishi va xaridorni to‘lovni qilinish muddati bir yildan ortiq bo‘lsa, pulning vaqt omili hisobga



olinishi kerak va shartnomada moliyalashtirish komponenti mavjud deb qaraladi (Faqatgina xaridor oldindan to'lov qilib, o'zi tovar va xizmatlarni yetkazib berish muddatini belgilagan vaziyatlardan tashqari) [5].

Xaridor kechiktirib to'lov qiladigan vaziyatda, tovar va xizmatlar sotilgan vaqtdagi tushum summasi, xaridordan olinadigan to'lov, bozor bahosini kredit risklarini hisobga olgan holda diskontlangan summasiga teng bo'ladi. Kechiktirib to'lov olinishi, sotuvchini xaridorga kiritgan ma'lum miqdordagi investitsiyasi, ya'ni moliyalashtirish komponenti mavjud degan ma'no chiqadi. Sotuvchi bozor bahosida diskontlangan to'lov summasidan foiz ko'rinishidagi daromadga ega bo'ladi. Buning natijasida yuzaga keladigan debitor qarzdorlik MHXS IFRS 9 “Moliyaviy instrumentlar” standartini orqali tartibga solinadi.

Sotuvchi xaridordan oldindan to'lov olgan vaziyatda, tovar va xizmatlar xaridorga yetkazilganda, tushum summasi olingan to'lovni bozor narxida, kredit risklarini hisobga olgan holda diskontlangan summasiga teng. Bu vaziyatda xaridor sotuvchini ma'lum ma'noda moliyalashtiryapti deb tushuniladi va sotuvchi xuddi qarz olganday bo'lib, foiz ko'rinishidagi xarajatni tan olib boradi [6].

Sotilgan mahsulotni xaridor tomonidan qaytarilishi bilan bog'liq kafolatlar.

Agar shartnoma shartlariga muvofiq sotilgan mahsulot ma'lum vaqtda qaytarilishi to'g'risida kafolatlar keltirilgan bo'lsa, sotuvchi tashkilot sotilgan mahsulotning qancha qismi qaytarilishi ehtimolini baholashi kerak. Sotilgan mahsulot bo'yicha olingan to'lovni qanchadir qismi xaridorga qaytarilishi kutilayotgan bo'lsa, tushum shu farq

summasini olib tashlab tan olinishi kerak, xaridorga qaytariladigan majburiyat sifatida aks ettirilishi lozim. Shu navbatda qaytarilishi kutilayotgan mahsulot balans qiymati bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda aktiv sifatida hisobga olishi kerak.

Qaytarilishni kafolat muddati tugaganidan so'ng, sotuvchi avval tan olgan majburiyatini yopib tushum tan oladi.

3	Jami	100,0	100,0	100,0	100,0

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, malakatimizda keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida aloqa xizmatlari bozorida nodavlat korxonalarining ulushi 9/10 dan yuqoriroq. Biroq 2019-yili 2016-yilga nisbatan 0,7 punktga kamaygan. Buning sababini keyingi yillarda aloqa xizmatlari subyektlari tarkibida xususiy sherikchilik asosida, ya’ni davlat ishtirokidagi korxonalarning paydo bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ushbu mulk shaklidagi asosiy korxonalar kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘lib, ularda samaradorlikning qator ko‘rsatkichlarini hisoblash hamda xizmatlar tarkibini o‘rganish

uchun yetarlicha ma’lumot olish mumkin bo‘lgan bir qator hisobot shakllari mavjud emas.

Turli mulkchilik shaklidagi aloqa xizmati korxonalarida moliyaviy resurslar, texnika vositalari va boshqa resurslar yetishmayotgan sharoitda, ular o‘rtasida texnika vositalari, pul mablag‘lari, mutaxassis xodimlari va boshqalardan birgalikda foydalanish (aloqa xizmati ko‘rsatish kooperativlarini tashkil etish) yuqori samara beradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, aloqa xizmatlari korxonalarida asosiy fondlarning samaradoligiga bir qator omillar ta’sir etadi. Asosiy fondlar aktiv qismining ulushi, asosiy fondlar unumdorligi, asosiy fondlarning

me'yoriy bo'sh turish vaqti, turli sabablar natijasida asosiy fondlarning bo'sh turib qolishi, xodimlarning malakasi kabi omillarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Aloqa korxonalari asosiy fondlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajasini turli usullarda aniqlash mumkin. Masalan, har bir ish o'rniga to'g'ri keluvchi xizmatlar hajmi o'zgarishiga ta'sir etgan omillarni hisoblashda iqtisodiy tahlilning qayta hisoblash usulidan foydalanish mumkin.

Har bir ish o'rnidan foydalanish samaradorligiga ikkita funksional omil ta'sir etganda qayta hisoblash usulidan foydalanish mumkin. Ya'ni ish o'rinlaridan foydalanish samaradorligi (S), xizmatlar hajmi (Xh) va ish o'rinlari soni (O's) bilan funksional bog'liq.

$$S = Xh : O's$$

Ushbu formulaga ko'ra, natijaga ikki omil ta'sir qiladi. Har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olamiz. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini (Xh₁) ikkinchi omilning rejadagi miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi (O's₀), ya'ni:

$$S = Xh_1 : O's_0$$

Aloqa korxonalari faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanganda, unga baho berilganda aylanma mablag'larning samaradorlik ko'rsatkichlariga ham alohida e'tibor berish lozim. Bunda aylanma mablag'larning aylanish tezligi, rentabelligi ko'rsatkichlarini aniqlash, ularga ta'sir etuvchi omillarga baho berish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar jarayonida aloqa korxonalari samaradorligiga bilvosita ta'sir etuvchi omil

sifatida soha subyektlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi huquqiy bazaning ahvoli ham chuqur o'rganiladi.

Kundalik hayot dalolat beradiki, soha subyektlari faoliyatining huquqiy jihatdan kafolatganlik darajasi birmuncha past. Shu sababdan ham so'nggi yillarda mamlakatimizda aloqa korxonalari faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi bir qator yangi tahrirdag huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Pochtasi to'g'risida" (2022-yil 9-iyun). Ular aloqa xizmatlari korxonalari faoliyati bilan bog'liq bir qator masalalarning huquqiy asosi bo'ladi.

Xulosao Ko'pgina mamlakatlarda aloqa xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Bular aloqa xizmati tarmog'ini boshqarish, iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, tarmoqning yangi-yangi xizmat turlarini tatbiq etish, innovatsion omillardan foydalanish bo'lib, qator xorijiy olimlar ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda aloqa xizmatlari bozorini jahon andozalariga mos tarzda rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalasi to'liq o'rganilmagan. Shu sababli, mamlakatimizda mazkur mavzuda tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Wilbur Schramm: Portrait of a Development Communication Pioneer. Communicator, 1987. – № 21 (1-4). – PP. 18-22.
2. Голубицкая Е.А. Экономика связи: учебник для студентов вузов / Е.А.Голубицкая; – М.: ИРИАС, 2006. – 488 с.
3. Голубицкая Е.А. Банк лекцией. Экономика связь. <https://siblec.ru/obshchestvennyye-nauki/ekonomika-svyazi>;
4. Brown G.G. Introduction to communication definition of communication. <https://architecture.uonbi.ac.ke/sites/default/files/cae/builtenviron/architecture.pdf>;
5. Ғуломов С.С., Алимов Р.Х., Лутфуллаев Х.С ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Тошкент.: Шарқ, 2000. – 592 б.
6. Алимов Р.Х., Ходиев Б.Ю., Алимов Қ.А. ва бошқалар. Миллий иқтисодда ахборот тизимлари ва технологиялари: Олий ўқув юртлари учун қўлланма. С.С.Ғуломов умумий таҳрири остида. – Т.: Шарқ, 2004. – 320 б.
7. Мирзаев Қ.Ж., Пардаев М.К. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 384 б.
8. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tehnologiya/telegraf-tarixi>;
9. О‘zbekistonda transport va aloqa. – Т.: О‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2020. – 87 б.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

ОРГАНИЗАЦИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Насиба ИМАМОВА¹

¹Институт ISFT, доктор философии по экономическим наукам (PhD)

KALIT SOʻZLAR	ANNOTATSIYA
Konsolidatsiyalashgan hisob, moliyaviy hisobot xalqaro standartlari, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, hisob siyosati.	Mazkur maqolada kompaniyalar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarini tashkil etish, tuzish, korxona moliyaviy hisob ma'lumotlarini birlashtirish, hisobotni shakllantirish jarayoni, asosiy tamoyillari, moliyaviy hisobotni tuzishning nazariy va me'yoriy huquqiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, maqolada kompaniyalar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida tashkil qilishning o'ziga xos jihatlariga ham to'xtalib o'tilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Консолидированный учет, международные стандарты финансовой отчетности, консолидированная финансовая отчетность, учетная политика.	В данной статье описаны организация и подготовка консолидированной финансовой отчетности компаний, интеграция информации финансового учета предприятия, процесс формирования отчетности, основные принципы, теоретические и нормативно-правовые основы подготовки финансовой отчетности. Кроме того, в статье рассматриваются специфические особенности организации консолидированной финансовой отчетности компаний на основе международных стандартов финансовой отчетности.
KEY WORDS	ABSTRACT
Consolidated accounting, International Financial Reporting Standards, consolidated financial reporting, accounting policies.	This article considers organization and preparation of consolidated financial statements of companies, integration of financial accounting information of an enterprise, the process of generating a report, the basic principles, theoretical and legal framework for the preparation of financial statements. In addition, the article discusses the specific peculiarities of the organization of consolidated financial statements of companies in reliance upon international financial reporting standards.

Введение. В то время, когда мировая экономика развивается быстрыми темпами, современное требование заключается в том, чтобы финансовая отчетность хозяйствующих субъектов была достоверной и прозрачной для ее пользователей. Международный опыт показывает, что форма и содержание финансовой отчетности в большей степени зависят от требований заинтересованных

пользователей. Чтобы изучить финансовое положение хозяйствующего субъекта, необходимо разобраться в его финансовых документах, либо необходимо подготовить финансовую отчетность на основе одних и тех же принципов и правил, не противоречащих друг другу. Одним словом, финансовая отчетность должна быть прозрачной, точной и, самое главное, достоверной. Международные стандарты



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

финансовой отчетности всегда рассматривались как основной инструмент реализации реформ в системе бухгалтерского учета и отчетности нашей республики. Внедрение международных стандартов финансовой отчетности позволяет совершенствовать систему управления хозяйствующими субъектами, доводить до пользователей внутреннюю и внешнюю информацию о финансовом состоянии предприятия, повышать конкурентоспособность компании за счет применения единых методов учета. Все акционерные общества, транснациональные корпорации и крупные компании, осуществляющие деятельность в различных сферах в мире, вместе со своими дочерними и другими связанными компаниями готовят финансовую отчетность в соответствии со своими МСФО на добровольной основе. Исходя из международного опыта, стоит отметить, что для эффективного управления и ведения консолидированного учета при составлении финансовой отчетности целесообразно объединять предприятия в большие группы. Именно формирование консолидированной финансовой отчетности на основе международных процедур и требований позволяет хозяйствующим субъектам быть хорошо осведомленным о финансовом положении своих партнеров и осуществлять эффективное управление при установлении экономических отношений друг с другом.

Обзор литературы по теме исследования С учетом опыта развитых стран при составлении консолидированной финансовой отчетности были выдвинуты

теоретические научные идеи и представлены соответствующие суждения. Следует также отметить, что существуют существенные различия в применении практических аспектов, исходя из опыта разных стран. В частности, подготовка консолидированного финансового отчета, его теоретические и практические аспекты изучены экономистами Республики Узбекистан и в рамках данного вопроса существуют разные подходы. Так ученые-экономисты Узбекистана И.Н.Кузиев и И.Авезов считают, что “В консолидированном отчете отражаются данные отчетов, составленных в головных компаниях, дочерних компаниях, на предприятиях, контролируемых в партнерстве, а также в дочерних обществах. Кроме того, отчет должен быть составлен таким образом, чтобы имущественное и финансовое положение, а также результаты деятельности материнской компании и группы дочерних компаний можно было увидеть в целом” [1].

И. Очиллов, изучив систему консолидированной финансовой отчетности в страховых компаниях, пришел к выводу, что если подобная страховая компания представлена консолидированной финансовой отчетностью и отдельным финансовым отчетом материнской компании, то информация о сегменте должна быть представлена только на основе консолидированной финансовой отчетности. Также консолидированная финансовая отчетность составляется только в том случае, если головная компания (материнская компания) имеет

подконтрольные дочерние общества, независимо от формы собственности и организационно-правовой формы материнской компании.[2]

По мнению многих зарубежных ученых, консолидированная финансовая отчетность – это ведение и представление единой отчетности и отчетов о деятельности головных и дочерних предприятий. В частности, с точки зрения российского экономиста Ю.Я. Сигидова относительно экономической природы, возможно объединение нескольких хозяйствующих субъектов путем консолидации.[3]

По мнению В.С. Плотникова и О.В. Плотниковой, требуется сформировать концептуальные основы консолидированного учета при создании унифицированного учета объединении предприятий, учета бизнес-процессов и создании консолидированного финансового учета и отчетности. [4].

Как считают Д.В.Исаев и Т.К.Кравченко, основным понятием теории консолидации является группировка предприятий. Предприятия, действующие по отдельным направлениям деятельности и отдельным сферам бизнеса в группе, не объединяются в одну компанию, а внутри группы действуют несколько предприятий, каждое из которых является самостоятельным с правовой точки зрения. [5]

По нашему мнению, консолидированная финансовая отчетность представляет собой сгруппированную финансовую отчетность, в которой финансовая отчетность хозяйствующих

субъектов представлена головной (материнской) компанией как единый финансовый отчет. В нем обобщаются отчеты, представленные компаниями головной компании.

Методология исследования. В ходе исследования использовались научные методы изучения экономических процессов: теоретические, исследовательские методы, методы обобщения, группировки, логические и сопоставительные методы анализа, методы сравнительного анализа.

Анализ и результаты Холдинговые компании, акционерные общества, транснациональные корпорации и крупные компании играют неопределимую роль в экономическом развитии каждой страны. В этом направлении при организации своей деятельности компании экономически объединяются в рамках одной компании или финансовых групп одного направления, а в случае слияния группы хозяйствующих субъектов, находящихся под контролем материнской компании, осуществляют консолидированные учет и отчетность. Основной целью подготовки консолидированной финансовой отчетности является полное раскрытие результатов обобщенной деятельности корпорации и финансового состояния предприятий головной компании. Статьи консолидированной финансовой отчетности формируются в целях удовлетворения потребности в информации об изменении финансового положения группы компаний, осуществляемой деятельности и финансовых результатах. Применение

единой учетной политики является неотъемлемой частью процесса подготовки консолидированной финансовой отчетности. Если при составлении консолидированной отчетности невозможно применить единую учетную политику, подобная ситуация должна быть разъяснена по тем частям отчета, где применяется иная учетная политика. Отсутствие пропорционально структурированной учетной политики может привести к образованию лишенных прозрачности данных при объединении данных статей отчета. В ходе исследований целесообразно разделить процесс объединения отчетных ресурсов группы

субъектов под руководством материнской компании на три этапа; предварительный, основной и заключительный этапы. На первом этапе материнская компания собирает данные необходимых показателей и объединяет их на основе единых принципов консолидации. На втором этапе происходит процесс консолидации, то есть формируется консолидированный отчет. Третий этап является заключительным, т.е. материнская компания предоставляет дополнительную информацию в приложении, пояснительных записках и реализует и представляет заключительный этап консолидированной финансовой отчетности (Рис. 1).




Рисунок 1.

Процесс объединения отчетных данных группы субъектов под руководством головного предприятия

На предприятии существует система финансового, управленческого и налогового учета как отдельных участков

учета, а правила осуществления операций определяются в учетной политике предприятия. На этом этапе можно



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

отметить еще один процесс в формировании их сводного учета, консолидированного финансового учета и системы отчетности. Ее основные принципы целесообразно определить в учетной политике при составлении консолидированной отчетности на предприятиях в составе головного предприятия. Определение принципов воплощает в себе правила подготовки достоверной консолидированной финансовой отчетности. В качестве таких принципов мы выделили унифицированную учетную политику, ведение учета в единой валюте, объединение группируемых предприятий в основную компанию, представление отчетности и т.д.

Принцип унифицированной учетной политики заключается в применении одних и тех же методов учета при оценке активов, обязательств и операций предприятия. Обеспечение составления консолидированной финансовой отчетности необходимо осуществлять на отчетную дату материнской компании. При наличии расхождений в отчетных датах дочерняя компания должна подготовить дополнительную финансовую информацию на отчетную дату материнской компании.

Вся отчетная информация, которую компания предоставляет своим пользователям, должна быть в определенной валюте. На дату осуществления процесса консолидации все денежные единицы конвертируются в одну денежную единицу. Для валютных статей баланса применяется официальный

обменный курс на конец отчетного периода. То есть на основе фиксированного курса по отношению к действующему в стране обменному курсу, например, курсу Центрального банка по отношению к суму.

При объединении сгруппированных субъектов в головную компанию отчет составляется по всем предприятиям материнской компании. Для составления подобных отчетов статьи дочерних компаний суммируются со статьями материнской компании.

По принципу представления отчета материнская компания представляет информацию отчета пользователям, приводя дополнительную информацию в приложении и пояснительных письмах.

Как уже говорилось выше, при принятии эффективных управленческих решений при составлении консолидированного финансового учета и отчетности международные стандарты финансовой отчетности предоставляют полную информацию, предусмотренную соответствующими положениями. В международных стандартах финансовой отчетности данный процесс регулируется определенными стандартами, такими как IAS 27 “Отдельная финансовая отчетность”, IFRS 10 “Консолидированная финансовая отчетность”, IFRS 3 “Объединение бизнеса”, IFRS 11 “Соглашение о совместной деятельности”, IFRS 12 “Раскрытие информации об участии в других предприятиях”, и IAS 28 “Инвестиции в ассоциированные и совместные предприятия”.

Таблица 1

Сравнительная таблица организации консолидированного учета на основе МСФО

Термины	МСБУ 27 “Отдельная финансовая отчетность”	МСФО 10 “Консолидированная финансовая отчетность”
Консолидированная финансовая отчетность	Представляет собой финансовую отчетность группы, в которой активы, обязательства, капитал, доходы, расходы и движение денежных средств головной организации и ее дочерних субъектов предпринимательства представлены как принадлежащие субъекту, осуществляющему единую экономическую деятельность	Финансовая отчетность группы, в которой активы, обязательства, капитал, доходы, расходы и движение денежных средств головной организации и ее дочерних субъектов предпринимательства выражаются как активы, обязательства, капитал, доходы, расходы и потоки денежных средств одного субъекта, осуществляющего единую экономическую деятельность.
Группа компаний	Головная компания и её дочерние субъекты предпринимательства	Головная компания и её дочерние субъекты предпринимательства
Контроль	Контроль – наличие полномочий по определению финансовой и операционной учетной политики предприятия в целях получения прибыли от предприятия.	Инвестор, если он подвержен рискам, связанным с получением переменного дохода от участия в объекте инвестирования или имеет право на получение подобного дохода, также имеет контроль над объектом инвестирования, если имеет возможность влиять на доход путем осуществления своих полномочий в отношении объекта инвестирования
Учета права голоса для определения контроля	Имеет право голоса с даты вступления в силу	Инвестор обладает полномочиями в отношении объекта инвестирования, если у него имеются права, позволяющие ему управлять значимой деятельностью, то есть деятельностью, оказывающей существенное влияние на доход объекта инвестирования. Часто инвестор может контролировать значительную деятельность посредством права голоса или аналогичных прав

В ходе исследования стоит отметить, что при формировании консолидированной финансовой отчетности преимущественно

совмещается информация из отчетов материнских и дочерних компаний. Но в данном процессе он не ограничивается

консолидацией учетной информации, касающейся активов, обязательств, собственного капитала, доходов и расходов. Процесс консолидации также требует специальных расчетов и включает в себя несколько этапов консолидации (consolidation schedule). Кроме того, особое значение при составлении консолидированной финансовой отчетности имеют аспекты объединения бизнеса (business combination), т.е. перехода дочерних компаний под контроль материнской компании. Согласно МСФО (IFRS) 3 “Объединение бизнеса”, “объединение бизнеса – это операция или другое событие, в ходе которого покупатель приобретает контроль над

одним или несколькими бизнесами и считается объединением бизнеса” [6]. Согласно данному стандарту, объединение бизнеса (business combination) осуществляется в двух случаях. Первый случай – это приобретение (acquisition), и в этом случае покупатель имеет контроль над объединением бизнеса. Слияние интересов предприятия (merger) – это процесс, при котором контроль осуществляется совместно согласно интересам сторон. В соответствии с международными стандартами финансовой отчетности консолидацию можно разделить на следующие основные группы. То есть полная консолидация, пропорциональная консолидация и метод долевого участия

Методы формирования консолидированной финансовой отчетности по МСФО




Рисунок 2. Методы формирования консолидированной финансовой отчетности по МСФО

Метод полной консолидации осуществляется в отношении головной

организации и ее дочерних субъектов предпринимательства. Пропорциональная



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

консолидация отличается от полной консолидации тем, что она осуществляется преимущественно в отношении активов. В основном данный метод используется при объединении отчетов о совместной деятельности. Собственный капитал используется в широком смысле для обозначения долей собственности в субъектах предпринимательства, принадлежащих инвесторам, а также интересов владельца, члена или участника субъектов предпринимательства. В основном это относится к доле инвестора. Чистые активы объекта инвестирования отражаются в балансе отдельной строкой, долей.

Выводы и предложения. Структурам корпоративного управления необходима быстрая и достоверная информация в бухгалтерском учете и отчетности. Еще одной специфической особенностью ведения финансовой отчетности в форме консолидированной финансовой отчетности является то, что пользователи отчетной информации, особенно акционеры-инвесторы, будут иметь возможность узнать финансовое состояние и результаты материнской компании через показатели финансового отчета материнской компании, а также возможно получение единой информации по нескольким подконтрольным компаниям. В

заключение, осуществление слияний бизнеса и корпоративного управления в нашей стране порождает необходимость поэтапного перехода к составлению отчетности на основе международных стандартов финансовой отчетности, и как следствие:

Во-первых, внедрение консолидированной финансовой отчетности по международным стандартам станет одним из важных шагов, которые откроют возможность субъектам предпринимательства нашей страны выйти на международные рынки капитала.

Во-вторых, международные стандарты финансовой отчетности составляются исходя из требований пользователей информации и являются основными критериями принятия управленческих и экономических решений.

В-третьих, в информации, предоставляемой инвесторам при привлечении иностранного капитала, предприятие обеспечивает прозрачность финансовой информации в управленческом учете и финансовой отчетности.

В-четвертых, консолидированные отчеты, подготовленные на основе требований международных стандартов финансовой отчетности, позволяют готовить отчеты на международном экономическом языке..

Список литературы

1. Кузиев И. Н., Авезов И. Теоретические основы подготовки консолидированной финансовой отчетности // Международные финансы и учет, 2018. – № 4-5.

2. Очилов И. Совершенствование подготовки консолидированной финансовой отчетности в страховых компаниях согласно требованиям

МСФО. <https://uzjournals.edu.uz/interfinance> Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 26.

3. Сигидов И., Настенко Д.А. Актуальные проблемы формирования консолидированной финансовой отчетности // Международный бухгалтерский учет, 2013. – №9 (255)



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

4. Плотников В.С., Плотникова О.В. Анализ теоретических основ концепции консолидированной финансовой отчетности // Economic Analysis: Theory and Practice, 2016. – № 11. – С. 90–103.

5. Исаев Д.В., Кравченко Т.К. Автоматизированные системы формирования

консолидированной финансовой отчетности. – Москва, 2006. – С. 139.

6. IFRS 3 Business Combinations
<https://www.iasplus.com/en/standards/ifrs/ifrs3>

7. IAS 27 Consolidated and Separate Financial Statements <https://www.iasplus.com>

8. IFRS 10 Consolidated Financial Statements, <https://www.ifrs.org/>



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

TURISTIK KORXONALAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Amriddin XAMDAMOV¹

¹“ISFT” instituti Samarqand filiali Ilmiy bo‘lim boshlig‘i, PhD

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIIYA
Turizm, moliyalashtirish, imtiyozli kreditlash, soliq imtiyozlari, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, moliyaviy mexanizm, davlat tomonidan tartibga solish.	Maqolada O‘zbekiston Respublikasi turizm tashkilotlarini moliyalashtirish sohasida hozirgi holati va asosiy tendensiyalari o‘rganilgan. Bunda davlatning va xususiy moliyalashtirish manbalari tahlil qilinib, imtiyozli kreditlash, soliq imtiyozlari va turizm infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali loyihalarni subsidiyalash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Ushbu maqolada turizm sektori oldida turgan asosiy muammo va yechilishi shart bo‘lgan masalalar belgilab berilgan va muvaffaqiyatli amaliyot va mexanizmlari tahlili asosida ularni bartaraf etish yo‘llari taklif qilingan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Туризм, финансирование, льготное кредитование, налоговые льготы, развитие туристической инфраструктуры, финансовый механизм, государственное регулирование.	В статье изучены текущая ситуация и основные тенденции в сфере финансирования туристических организаций Республики Узбекистан. Анализируются государственные и частные источники финансирования и особое внимание уделяется льготному кредитованию, налоговым льготам и субсидированию эффективных проектов, направленных на развитие туристической инфраструктуры. В данной статье определены основные проблемы, стоящие перед туристической сферой, и проблемы, которые необходимо решить, а также предложены пути их устранения на основе анализа успешной практики и механизмов.
KEY WORDS	ABSTRACT
Tourism, financing, preferential lending, tax incentives, tourism infrastructure development, financial mechanism, state regulation.	The current situation and main trends in the field of financing tourism organizations of the Republic of Uzbekistan are studied in the article. State and private sources of financing are analyzed and special attention is paid to preferential lending, tax incentives and subsidization of effective projects aimed at the development of tourism infrastructures. In this article, the main problem facing the tourism sector and the issues that need to be solved are defined, and the ways to eliminate them are proposed based on the analysis of successful practices and mechanisms.

Kirish. Jahon raqamli iqtisodiyot sharoitiga o‘tishning hozirgi bosqichida turizm eng tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan soha hisoblanib, istiqbolli tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda “jahon yalpi ichki mahsulotidagi turizm ulushi 10 foizni, jahon xo‘jaligi yalpi investitsiyalaridagi ulushi 7 foizni, soliq tushumlarining 5 foizni, jahondagi iste‘mol xarajatlarining 11 foizni,

jahon xo‘jaligi xizmatlar eksportining esa 29 foizini va har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o‘rnining bittasi aynan turizm sohasining hissasiga to‘g‘ri kelmoqda” [1].

Shuningdek, Butunjahon turizm va sayohatlar bo‘yicha kengashi (The World Travel & Tourism Council, WTTC) prognozlariga ko‘ra, 2033-yilda turizm sohasining dunyo yalpi ichki mahsulotiga



qo‘shgan hissasi 15,5 trillion AQSh dollariga yetadi, bu jahon iqtisodiyotining 11,6 foizini tashkil etadi hamda 430 million kishini ish bilan ta‘minlaydi [2].

Alohida ta‘kidlash kerakki, turizm sohasidagi korxonalar paydo bo‘layotgan imkoniyatlardan foydalanishga va yangi muammolarni hal qilishga intilayotgani sababli to‘g‘ri moliyaviy boshqaruvning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bundan tashqari, turizm O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy tarmoq sifatida paydo bo‘ldi. Mamlakatning boy madaniy merosi, rang-barang landshaftlari va tarixiy ahamiyati uni mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun jozibador maskanga aylantirgan. Turizm salohiyatini iqtisodiy farovonlik katalizatori sifatida e‘tirof etgan. O‘zbekiston hukumati turizm industriasini rivojlantirish, uning o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun turli strategiya va moliyaviy vositalarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berdi. Ushbu keng qamrovli tahlil O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun foydalaniladigan moliyaviy vositalarni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot turizm sektorini rivojlantirish uchun hukumat, moliya institutlari va xususiy sektor tomonidan qo‘llaniladigan moliyaviy mexanizmlar, siyosatlar va vositalarning ko‘p qirrali manzarasini o‘rganishga intiladi. Ushbu tadqiqotda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining murakkab tomonlarini o‘rganilgan, ushbu vositalarning O‘zbekistondagi turizm sanoatining umumiy o‘sishi, barqarorligi va raqobatbardoshligiga ta‘siri haqida tushuncha berilgan. Ushbu tadqiqotning ahamiyati uning O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda moliyaviy

vositalarining rolini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shish salohiyatidadir. Turizm sohasiga sarmoya kiritish va infratuzilmani rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan turli yondashuv va tashabbuslarga oydinlik kiritib, ushbu tahlil siyosatchilar, soha manfaatdor tomonlari va O‘zbekistonning rivojlanayotgan turizm bozorida ishtirok etishga intilayotgan investorlar uchun qimmatli tushunchalar berishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

A.Gudkov, E.Dedkova, E. Rozhdestvenskayalarning [3] ilmiy maqolasida turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratib, quyidagi takliflarni bergan. Hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish siyosiy, tibbiy va iqtisodiy tebranishlar tufayli ushbu sohani o‘ta beqaror qiladigan ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Turizm bilan bog‘liq eng muhim iqtisodiy muammolardan biri bu investitsiyalar va moliyalashtirishning yetishmasligidir. Ushbu maqolaning maqsadi turizmni moliyalashtirish sohasidagi muammolar va imkoniyatlarni ko‘rib chiqishdir. Tadqiqot maqsadida turizmni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha jiddiy va dolzarb tahlil va tadqiqotlarga erishildi [3].

X. A. Aidjanovich [4] o‘zining ilmiy ishida jahon mamlakatlarida turizm industriasining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib, quyidagi tavsiyalarni bergan. “Jahon turizmining rivojlanishi mamlakatlarni yaqinlashtiradi va ularning munosabatlarini faollashtirishga yordam beradi. Turizm deyarli barcha sohalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, mamlakat iqtisodiyotining jadal o‘sishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, turizm sohasiga investitsiyalarning kirib kelishi, sayyohlik kompaniyalari imkoniyatlarining oshishi va yuqori daromad olish imkoniyati ushbu sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmining oshishiga yordam beradi” [4].

D.Eshonqulov [5] turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo‘nalish va mexanizmlarining ahamiyati haqida chuqur ilmiy tahlil qilib, quyidagi takliflarni ilgari surgan. “O‘zbekistonda ko‘plab olimlar turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo‘nalish va mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. 2017-yildan 2021-yilgacha O‘zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy muammosi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta asosiy yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish besh yil davomida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi” [5].

Bugungi kunda o‘rganilayotgan dolzarb ilmiy ishlarning aksariyati jahon mamlakatlarida turizm sohasining rivojlanish tendensiyalariga qaratilgan. Davlatning turizm sohasidagi rivojlanishni oshirish uchun moliyaviy mexanizmlar va investitsiyalar haqida chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqotlar, jahon miqyosida turizm sohasining rivojlanishi va uning mamlakatlarning iqtisodiyotiga ta‘siri haqida yangi tahlillar, davlat siyosati va strategiyalar to‘g‘risidagi takliflar keng ko‘lamda qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi. Ushbu maqolalar jahon miqyosida turizm sohasidagi rivojlanishga oid yangi tahlillar va takliflarni ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola har bir ilmiy izlanish kabi olimlarning fikrlari va mulohazalarini tahlil etishni o‘z ichiga olib asosiy maqsadga erishish uchun ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, tizimli yondashish, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi nazariy tadqiqotlar o‘tkazish uchun tizimli yondashuvni, jumladan mavjud adabiyotlarni o‘rganish, konseptual asosni ishlab chiqish va tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq nazariya va tushunchalarni tanqidiy tahlil qilishni ta‘minlaydi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda turistik korxonalar faoliyatini samarali rivojlantirish uchun foydalaniladigan turli moliyaviy vositalarni ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bunda turizm sohasining infratuzilmasini rivojlantirish va marketing tashabbuslariga qaratilgan davlat imtiyozlari, soliq imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy mexanizmlar ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot moliyaviy vositalarning O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga ta‘sirini baholaydi. Ushbu vositalarning investitsiyalarni jalb qilish, sayyohlar sonini ko‘paytirish, infratuzilmani yaxshilash va turizm sektorining umumiy raqobatbardoshligini oshirishda samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu bo‘limda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun joriy moliyaviy vositalar bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlar ta‘kidlangan. Moliyalashtirishga kirish, tartibga solish to‘siqlari, xatarlarni boshqarish va innovatsiyalar va takomillashtirish uchun potensial sohalar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish

uchun moliyaviy vositalar samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Ushbu tavsiyalarning maqsadi aniqlangan muammolarni hal qilish va turizm sohasida barqaror o'sish uchun imkoniyatlardan foydalanishdir [7].


Turistik korxonalar faoliyatini tartibga solishning moliyaviy mexanizmini shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

- turizmni boshqarish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish;
- turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish.
- turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- turizm industriyasi obyektlarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo'nalishlari

bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo'lbo'yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish;

- xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo'llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish;
- mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalari ochish, Internet tarmog'idan faol foydalanish, har yili Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini o'tkazish yo'li bilan turizm sohasida mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish;
- O'zbekiston xorijiy investorlar uchun mehmondo'stlik va aviatsiya sohalarida, xususan, mehmonxonalar infratuzilmasini kengaytirish va mamlakat aeroportlarini modernizatsiya qilishda katta imkoniyatlar yaratish zarur hisoblanadi [7].

1-rasm. Korxonalarning moliyaviy mexanizmi




Turistik korxonalarning moliyaviy mexanizmi-korxona faoliyatini ta'minlovchi tizim bo'lib, moliyaviy metodlar, moliyaviy richaglar hamda normativ, huquqiy va axborot

ta'minoti bazasini kabi elementlarni o'z ichiga oladi. (1-rasm). Hukumatning xorijiy sarmoyalarni jalb etish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan

tashabbuslari xalqaro biznes uchun O‘zbekiston sayyohlik sanoatini rivojlantirishga hissa qo‘shish uchun qulay sharoit yaratadi. Xalqaro mehmonxona brendlarining Toshkentdan tashqarida Samarqand, Buxoro va Xiva kabi madaniy ahamiyatga ega shaharlarga kengayishi xorijiy investorlar uchun katta imkoniyat yaratadi. Bunga ko‘maklashish uchun quyidagi siyosat tavsiyalari taklif etiladi: Investitsiyalarni

rag‘batlantirish: hukumat qadimgi Ipak yo‘li bo‘ylab tarixiy ahamiyatga ega shaharlarda mehmonxonalar va franchayzalar tashkil etgan xorijiy investorlarga soliq imtiyozlari va imtiyozlarini taklif qilishni ko‘rib chiqishi kerak. Bunga soliq imtiyozlari, bojxona to‘lov imtiyozlari va korxonalarga investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun soddalashtirilgan ma‘muriy jarayonlar kiradi

2-rasm. Turistik korxonalarni tartibga solishning moliyaviy mexanizmi.



Moliyaviy faoliyat xarajatlari – uzoq muddatga ijaraga olingan mol-mulkklarga


to‘lovlar, chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlar va zararlar,

qimmatli qog‘ozlarga sarflangan mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar va hokazo. Turistik korxonalarni barqaror rivojlantirish asosida davlat-xususiy sherikchiligi natijasida turistik sub‘ektlar faoliyatini moliyalashtirishni rivojlantirish bo‘yicha mexanizm ishlab chiqilgan. Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi turistik korxonalar faoliyatini o‘rganganimizda hamkorlikdagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasi eng asosiy muhim jarayon ekanligini hamda foydaning taqsimlanish jarayonida belgilangan shartnoma asosida taqsimlanishini kuzatdik. Turistik korxonalarni barqaror

rivojlantirish natijalari sifatida turistik sub‘ektlar faoliyati natijasida nol chiqimga asoslangan texnologiyalarni turistik infratuzilmalarga joriy etish, mahalliy aholining bandligini oshirish, atrof-muhitni asrab avaylash madaniyatini shakllantirishga erishiladi (2-rasm).

Turistik korxonalarni moliyalashtirish byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qaytarilmaydigan asosda amalga oshiriladi. Bunday moliyalashtirish mexanizmi orqali davlat ushbu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish doirasida turizm korxonalarini maqsadli qo‘llab-quvvatlamoda.

3-rasm. Turistik korxonalarning moliyalashtirish manbalari.



Xulosa va takliflar. Zamonaviy iqtisodiyotda turizm nafaqat ko‘plab mamlakatlar uchun asosiy daromad manbalaridan biri, balki doimiy rivojlanish va o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishni

talab qiladigan soha sifatida ham ishlaydi. Turizm korxonalarini samarali moliyalashtirish ularning barqarorligi, raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishini ta‘minlashning hal qiluvchi



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

omilidir. Turli xil moliyalashtirish manbalarini jalb qilish, shuningdek, innovatsion mexanizm va vositalardan foydalanish turizm sohasidagi tashkilotlarning moliyaviy holatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi takliflar shakllantirildi:

Turizm korxonalari xavflarni minimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun xususiy investitsiyalar, davlat grantlari, kraudfanding va venchur kapitalni moliyalashtirishni o‘z ichiga olgan moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini izlashlari kerak. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarni faol o‘zlashtirish boshqaruv, marketing va xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini oshirishi mumkin, bu esa, o‘z navbatida, turistik tashkilotlarni investorlar uchun yanada jozibador qiladi.

Ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatga qaratilgan loyihalarni ishlab

chiqish va amalga oshirish hukumat va xalqaro tashkilotlarning yangi grantlari va moliyaviy ko‘magidan foydalanish imkoniyatini ochib beradi, shuningdek, bozordagi o‘rnini mustahkamlaydi. Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritish xizmat sifatini yaxshilaydi va korxonaning innovatsion salohiyatini oshiradi, bu esa uzoq muddatli muvaffaqiyatning kalitidir.

Xulosa qilib aytganda, turizm korxonalarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarga moslasha olishi, mahsulot va xizmatlarini rivojlantirishda innovatsion bo‘lishi, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish qobiliyatiga bog‘liq. Taklif etilgan tavsiyalarga amal qilish turistik korxonalarga nafaqat kuchli raqobat sharoitida omon qolishga, balki sezilarli o‘sish va rivojlanishga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.unwto.org>. World Tourism Barometer and Statistical Annex
2. <https://wtcc.org/research/economic-impact/> The World Travel & Tourism Council, WTTC
3. Gudkov A., Dedkova E., Rozhdestvenskaia E. Financial instruments for tourism development: Challenges and opportunities / International Conference on Comprehensible Science, 2020. – PP. 70-80.
4. Aidjanovich X. A. Jahon mamlakatlarida turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalari / E-Conference Zone, 2023. – PP. 84-90.
5. Eshonkulov D. Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo‘nalish va mexanizmlarining ahamiyati / Академические исследования в современной науке, 2023. – № 2 (13). – В. 225-229.

6. Xamdorov A. Turizm sohasida raqamli integratsiya resurslaridan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2024. – 56 bet.
7. Hamdamov A. Turizm sohasida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish tamoyillari va omillari //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 375-382.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

FILOLOGIYA

O‘ZBEK MILLIY HARAKATLI O‘YINLARI TILINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Durdona XUDAYBERGANOVA¹

¹O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, filologiya fanlari doktori

KALIT SO‘ZLAR

O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlari, lingvomadaniyatshunoslik, olamning lisoniy manzarasi, olamning qadriyatli manzarasi, madaniy kod, lingvomadaniy kod, antropomorfizm, biomorf kod, zoomorf kod, predmetli kod, aksiologik tilshunoslik, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Названия узбекских национальных подвижных игр, лингвокультурология, языковая картина мира, ценностная картина мира, культурный код, лингвокультурный код, антропоморфизм, биоморфный код, зооморфный код, предметный код, аксиологическая лингвистика, национальные ценности, социально-нравственные ценности

KEY WORDS

Names of Uzbek national action games, linguoculturology, linguistic picture of the world, value picture of the world, cultural code, linguistic and cultural code, anthropomorphism, biomorphic code, zoomorphic code, subject code, axiological linguistics, national values, socio-moral values.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq milliy o‘yinlari tilining lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan, unda o‘zbek milliy harakatli o‘yinlar mazmuniga lingvomadaniy aspektida yondashilgan. Maqolada bunday o‘yinlarning nomlari turli lingvomadaniy kodlar sifatida voqelanishi lingvistikadagi madaniy kodlar nazariyasi asosida tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek milliy harakatli o‘yinlari mazmunida milliy qadriyatlarning aks etishi, shu sababli ular lingvomadaniyatshunoslikning bo‘limlaridan biri hisoblangan aksiologik tilshunoslikning obyekti bo‘la olishi muayyan o‘yinlarning mazmun-mundariyasi asosida isbotlangan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены лингвокультурологические особенности языка узбекских национальных игр, содержание узбекских национальных игр рассмотрено в лингвокультурологическом аспекте. В статье реализация названий таких игр в качестве различных лингвокультурных кодов проанализировано на основе теории культурных кодов в лингвистике. Также на основе содержания определенных игр доказано отражение национальных ценностей в содержании узбекских национальных подвижных игр, благодаря чему они могут стать объектом аксиологической лингвистики, которая считается одним из разделов лингвокультурологии.

ABSTRACT

This article highlights the linguistic and cultural features of the language of the Uzbek national games, the content of the Uzbek national games is considered in the linguistic and cultural aspect. In the article, the implementation of the names of such games as various linguistic and cultural codes is analyzed on the basis of the theory of cultural codes in linguistics. Also, based on the content of certain games, the reflection of national values in the content of Uzbek national outdoor games has been proved, so that they can become the object of axiological linguistics, which is considered one of the sections of linguoculturology.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Kirish. Xalq o‘yinlari insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida o‘sha davr kishilarining turmush tarzi, mehnat sharoiti, milliy xarakteri, diniy qarashlari kabi omillarni o‘zida mujassam etib kelgan. Xalq o‘yinlari ishtirokchilarda abjirlik, kreativlik, chidamlilik, g‘ayratlilik, jismonan kuchli bo‘lishlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalashga xizmat qilgan. Dastlabki o‘yinlar insoniyatning bolaligi bo‘lgan terib yeyish davri bilan bog‘liq bo‘lgan. “Keyinchalik o‘yinlar mundarijasiga ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bog‘liq turlari kirib keldiki, bu hayotiy jarayonlar, yashash uchun harakat qilish, intilish bilan bog‘liqdir. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu o‘yinlar o‘sha davrdayoq odamlarning tabiat inijliklariga dosh berishlariga, turli kasalliklarni yengib o‘tishlariga zamin hozirlab bordi. O‘yinlarda tevarak-atrofdan yuz berayotgan voqea-hodisalar syujetlari jonlantirib borilgan. Syujetlar odamlarning hayoti bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan” [6; 3].

Ibtidoiy insonlarning hayot tajribasi osha borgan sari ularda yovvoyi hayvonlardan saqlanish, o‘z hududini begonalardan asrash, yirtqich hayvonlar bilan olishuvda nihoyatda abjir va kuchli bo‘lish hissiyoti shakllangan. Qabila boshliqlari yoshlarni kuchli va chaqqon qilib tarbiyalashga e’tibor qarata boshlaganlar. Urushlar yuzaga kelishi natijasida esa bu hayotiy zaruratga aylangan. Ana shu kabi jarayonlar keyinchalik xalq o‘yinlari tarkibidan muayyan element sifatida joy olgan [8; 8-10].

Ta’kidlash joizki, barcha dunyo xalqlarining o‘z milliy o‘yinlari bo‘lgan. Rossiya xalqlarida konkida uchish, chang‘ida yurish, mushtlashish, muzda cho‘milish,

kurash, bug‘u, itlarni aravaga qo‘shib poygalar uyushtirish qadimgi davrlardan mavjud bo‘lgan. Hindistonda fillarni va ilonlarni o‘yinga o‘rgatish, chim ustida xokkey milliy o‘yinlar hisoblangan. Arab mamlakatlarida qadimdan otda poyga, ot sakratish musobaqalari o‘tkazib kelingan. Afrika mamlakatlarida nayza, kamondan o‘q otish o‘yinlari uyushtirilgan. Koreya, Xitoy, Yaponiya, Tayvan kabi mamlakatlarda esa yakka kurash turlari bilan shug‘ullanish keng tus olgan. Kavkaz xalqlarida kurash, ot o‘yinlari mashhur hisoblangan. Qadimgi o‘yinlarning ko‘pchiligi keng tarqalib, sport turlariga aylangan. Bu kabi xalq o‘yinlari keyinchalik turli sport federatsiyalarining tuzilishiga, Yevropa va Jahon birinchiliklari hamda Olimpiya o‘yinlarining tashkil etilishiga sabab bo‘lgan [8; 8-9].

O‘zbek milliy o‘yinlari 2-3 ming yillik tarixga ega bo‘lib, o‘zida xalqning ruhiyati, ma’naviy dunyoqarashi, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini namoyon etadi. O‘zbekiston hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ashyolar, g‘orlarning devorlariga chizilgan rasmlar milliy o‘yinlarning qadimdan davom etib kelayotganini isbotladi. Boshqa xalqlar kabi, o‘zbek xalqida ham milliy o‘yinlar ijtimoiy tuzum xarakteriga ko‘ra shakllanib borgan.

O‘zbek xalq o‘yinlari o‘yin ishtirokchilarning yoshiga, jinsiga, joyiga, kasbiga, mavsumga, yashash hududiga qarab turli vaqtda, turli joyda va turli usullarda o‘tkazilgan.

O‘zbek xalq o‘yinlari turlaridan biri milliy harakatli o‘yinlar hisoblanadi. Mazkur o‘yin turi bo‘yicha pedagogik, etnopsixologik, etnografik xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar e’lon



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

qilingan [6, 8, 13, 14, 15]. Ammo, aytish joizki, shu vaqtga qadar ularning lingvistik xususiyatlari o'rganilgan emas. Milliy harakatli o'yinlarning lisoniy xususiyatlari ularni lingvomadaniy aspektda o'rganishni taqozo etadi. Zero, bu o'yin turi lingvomadaniy kontekst sifatida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Maqolada shu xususida so'z yuritamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohaları hamkorligida yuzaga kelgan [9; 8-9], fanlar integrallashuvi mahsuli bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik soha sifatida fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotativlik, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi, olamning qadriyatli manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalarni olib kirdi. Ular qatorida madaniy kodlar tushunchasi alohida mavqega ega. Ma'lumki, olamni idrok etishning har bir til jamoasi ongida tarixan shakllangan, barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy va majburiy usullari majmuyi olamning lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi. Olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig'indisidir. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniy kodlar olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi [7; 79]. V.N. Teliyaning fikriga ko'ra, madaniyat kodlari – muayyan madaniy mazmunni kodlashtirish maqsadida qo'llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir. [10; 13]

D.B.Gudkov, M.L.Kovshovalarning madaniyat kodlari xususidagi ta'rif ham yuqoridagi ta'rifga yaqin: “Madaniyat kodlari – insonning moddiy va ma'naviy olamiga oid bo'lgan madaniy mazmunni ifodalovchi belgilar tizimi, ular verbal shaklda ham, noverbal shaklda ham bo'lishi mumkin” [2; 6].

Madaniyat kodlari xususidagi ilmiy ta'rif va talqinlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu termin muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi. Madaniy kodlar inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir va bunda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson tili madaniy mazmunning eng muhim ifodachilaridan biri hisoblanadi. Lingvomadaniy kodlar madaniy kodlarning til vositasida voqelangan shaklidir. Lingvomadaniy kodlar tilda asosan xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda in'ikos etadi. Bunday kodlarda insonlarning moddiy va ma'naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy-obrazli tafakkuri, aksiologik qarashlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Lingvomadaniy kodlar xususidagi nazariyadan olamning lisoniy manzarasini tadqiq etishda, muayyan etnosning milliy tafakkuriga xos qonuniyatlar tadrijini aniqlashda foydalanish mumkin. Ayni vaqtda, ta'kidlash lozimki, lingvomadaniyatshunoslik birinchi navbatda mental tushunchalar va lisoniy birliklar aloqasini o'rganuvchi sohadir. Lingvomadaniy kodlar birinchi navbatda xalqning milliy-madaniy xususiyati bilan bog'liq hodisa hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda lingvomadaniy kodlarning turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma'naviy kod [4, 8], antropomorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me'moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi [7], mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi [5; 169] kabilar qayd etiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlarining asosiy turlari borasida V.V. Krasnixning tasnifi e'tirof etiladi. Olim somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod hamda ma'naviy kodni madaniyat kodlarining eng asosiy turlari sifatida belgilaydi. Uning fikricha, mazkur kodlarda ifodalangan mazmun olamning tuzilishi haqidagi ilk sodda taassurotlarni namoyon etib, rus madaniyatining arxetipik tasavvurlariga muvofiq keladi [3; 8].

O'zbek milliy o'yinlari o'z mazmuniga ko'ra lingvistik aksiologiyaning – qadriyatlar tizimiga doir tushunchalarning tilda aks etish mexanizmlari va usullarini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishining ham obyekti bo'la oladi [12; 14]. Zero, mazkur o'yinlar mazmunida lingvomadaniy hamjamiyat vakillari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar ta'kidlab ko'rsatiladi. Qadriyat bu –muayyan tarixiy davrda shu davr kishilari uchun ijtimoiy jihatdan ahamiyatli deb hisoblangan, ular uchun ijobiy-aksiologik ahamiyat kasb etgan ideal hodisalardir. Qadriyatlar ko'pchilik mutaxassislar tomonidan umuminsoniy (global) va milliy qadriyatlar sifatida ikkiga ajratiladi. Muayyan lingvomadaniyatda amal qiluvchi qadriyatlar tizimi xususidagi stereotiplar o'sha lingvomadaniy hamjamiyat a'zolarining

lisoniy ongida aks etadi. Bu esa mazkur stereotiplarning til sohiblari tomonidan yaratiladigan olamning qadriyatli manzarasida ham verbal tarzda namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu ma'noda o'zbek madaniyatidagi qadriyatlarni lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlaridan biri hisoblangan aksiologik tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganish mumkin.

Natijalar. O'zbek milliy harakatli o'yinlari nomlari o'z tabiatiga ko'ra turli lingvomadaniy kodlar sifatida voqelanadi. Mazkur atamalar tizimiga kiruvchi birliklar orasida biomorf kod turlaridan biri hisoblangan antropomorf kod ko'p uchrashi xarakterli holat sifatida ko'zga tashlanadi. Insonning flora va fauna haqidagi tasavvurlari biomorf kodlarda aks etadi. V. V. Krasnixning ta'kidiga ko'ra, turli lingvomadaniyatlardagi ko'plab etalonlar biomorf kodlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan [3; 16].

Til va madaniyat uzviyligini tadqiq etuvchi soha hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik asoschilaridan biri V.N. Teliya shunday yozadi: “Madaniyatning o'ziga xos “tili” bor: u biz bilan me'morchilik, rassomchilik, musiqa, raqs, adabiyot va insoniyatning boshqa ijod mahsullari orqali so'zlashadi. Lekin madaniyat “tili” ning eng universal vositasi tabiiy tildir [9; 12]. O'zbek milliy harakatli o'yinlarining mazmuni, ularning nomlari, bu o'yinlarda aytiladigan dialoglar bu turdagi o'yinlarning xalq madaniyati ifodachisi ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, o'zbek milliy harakatli o'yinlari nomlari ma'lum ma'noda o'zbek tili sohiblariga xos olamning lisoniy manzarasini namoyon etadi. Xalq turli milliy o'yinlarni ijod qilishda o'zi yashab turgan muhitdagi shaxslar,

predmetlar, hayvon va qushlar, tabiat hodisalari haqidagi tushunchalardan foydalangan. Mazkur tushunchalarni bildiruvchi obyektlar o'yinlar tarkibida turli vazifalarda qo'llangan. Aytish joizki, milliy o'yinlar ko'p hollarda antropomorfizmga asoslanganligi bilan ajralib turadi. O'yinlarda turli hayvonlar va predmetlarga insonning harakatlari va xususiyatlari ko'chiriladi. Ularda, xuddi ertaklardagi kabi, jonsiz narsalar odam kabi harakatlanadi (Nina va ip), hayvon va qushlar odam kabi fikrlaydi va so'zlaydi (Cho'loq qarg'a, Echki bolalar). O'zbek milliy harakatli o'yinlari nomlarining semantik tasnifi o'zbek xalqining olamning lisoniy manzarasini yaratish tarzi haqida muayyan tasavvurlarni hosil qiladi. Milliy harakatli o'yinlar nomlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Odam tushunchasini ifodalovchi nomlar: a) qarindosh-urug'chilikni bildiruvchi so'zlar: *Ona va bola, Yaxshi ona, Yaxshi ota, Kelin-kekin, Xola-xola, Xolakam* va boshqalar; b) lavozim va kasb-hunar egasini bildiruvchi so'zlar: *Podsho-vazir, Podachi, Izvoshchi, Sartarosh, Chavandoz va egarchi, Qorovul, Kashtachi* va b.

2. Hayvonot olamini ifodalovchi nomlar: a) hayvon va jonvorlarni bildiruvchi so'zlar: *Sichqon-mushuk, Qari bo'ri, Bo'ri va qo'ylar, Insiz quyon, Echki bolalari*; b) qush va parrandalarni bildiruvchi so'zlar: *Laylak keldi, Burgut keldi, Xo'rozlar jangi, Cho'loq qarg'a, Chag'alay, Tapir-tupur qaldirg'och* va b.

3. O'simliklarni bildiruvchi nomlar: *Oq terakmi, ko'k terak, Chuchmoma, Yong'oq, Ko'k* va b.

4. Predmetlarni bildiruvchi nomlar: *Nina va ip, Chillak, Lanka, Qopqon, Darra,*

Savat, Zanjir, Durra, Do'ppi yashirar, Belbog', Sandal-sandal, Latta koptok, Sopoltosh, Tayoqlar jangi, Karnaymi, surnay? va boshqalar.

5. Harakatni ifodalovchi nomlar: *Arqon talashish, Yelkada kurashish, Danak yashirish, Qidirib top, Urib qochdi, Ko'rpa yopindi, Oshqovoq uzdi, Buta soldi, Do'ppi yashirar* va b.

6. Xususiyatni ifodalovchi nomlar: *Chaqqonlar va merganlar.*

O'zbek milliy harakatli o'yinlari nomlarining lingvomadaniy tabiati birinchi navbatda ularning lingvomadaniy kodlar bilan aloqadorligida, aniqroq qilib aytganda, lingvomadaniy kodlar tizimiga kiruvchi birliklar ekanligida ko'rinadi. Buning sababi shundaki, til sohibi muayyan o'yin nomining ma'nosini tushunishi uchun ushbu birlikni dekodlashi, ya'ni uning ortida turgan muayyan vaziyat bilan bog'lagan holda uning mazmunini sharhlay olishi lozim. Bunday dekodlash frazeologik birliklar yoki metaforik ma'noli so'zlarni dekodlashga o'xshab ketadi.

O'zbek tilida faol uchraydigan lingvomadaniy kodlardan biri zoomorf kod hisoblanadi. Ma'lumki, zoomorf kod deyilganida muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan hayvonlar, qush va parrandalarni bildiruvchi so'z yoki so'z birikmalari tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik tushuniladi. [11, b.100] Buni o'zbek tilidagi *tulki* (ayyorlik ramzi), *sher* (mardlik ramzi), *eshak* (ahmoqlik va qaysarlik ramzi) kabi so'zlarning metaforik ko'chimlarida ham kuzatish mumkin. O'zbek milliy harakatli o'yinlari atamaları tizimidagi *insiz quyon, xo'rozlar jangi, eshak mindi, echki*

bolalar, tapir-tupur qaldirg'och, mushuk va sichqon kabi nomlar tarkibida kelgan hayvonlar va qushlarni bildiruvchi so'zlar (*quyon, xo'roz, eshak, echki, qaldirg'och, mushuk, sichqon*) ham, o'yin mazmunidan kelib chiqib yondashilganida, ma'lum ma'noda ramziylik kasb etadi va madaniy semali so'zga aylanadi. Buni “Echki bolalar” va “Xo'rozlar jangi” o'yinlarida qo'llanuvchi *echki, ona echki va xo'roz* so'zlari misolida kuzatish mumkin.

“Echki bolalar” o'yinida 8-10 ta bola ishtirok etadi. Bolalar (echki bolalari) aylana shaklida turadilar. O'rtada ona echki ovqat pishiradi (ovqat pishirish harakatlariga taqlid qiladi). Ona echki va uning ikkita bolasi o'rtasida quyidagicha dialog bo'ladi:

Birinchi echki bolasi: – Onajon, ovqat pishdimi?

Ona echki: – Yo'q, birpas o'ynab tur.

Ikkinchi echki bolasi: – Onajon, ovqat pishdimi?

Ona echki: – Ha, idishlarni olib kel, ovqatni suzaman.

Ikkinchi echki bolasi idishlarni olib kelayotganida ularni sindirib qo'yadi.

Ona echki bolalaridan jahli chiqib, ularni quvlab ketadi. Qaysi bolasini tuta olsa, o'sha keyingi o'yinda ona echki bo'ladi va o'yin qaytadan boshlanadi. Ushbu ertakdagi echki va ona echki rolidagi o'yin ishtirokchilarining nomlari – *Echki bola* va *Ona echki* ushbu o'yin shartlarini bajaradigan ishtirokchilardir. Ularga nima uchun shunday nomlar berilganini ushbu o'yin mazmunini anglamay turib idrok qilib bo'lmaydi. Demak, *echki* va *ona echki* birliklari o'yin ishtirokchilarining o'zaro kelishuviga asosan kodlanadi va lingvomadaniy ma'noga ega bo'ladi.

“Xo'rozlar jangi” o'yinida esa 2 nafar bola qatnashadi. Ular chizib qo'yilgan doira ichida bir oyoqlab hakkalab, yelkalari bilan birlarini turtib, doiradan tashqariga chiqarishga harakat qiladilar. Ushbu harakatlar davomida xo'rozlarning ovozigga taqlid qilib qichqiradilar. Qaysi bola doiradan butunlay chiqarib yuborilsa, o'sha yutqazgan hisoblanadi. Doira ichida qolgan bola – “xo'roz” g'olib hisoblanadi. Ko'rinadiki, ushbu o'yinlarda ham *echki, ona echki, xo'roz* birliklari o'yin tarkibiga kirgach, milliy-madaniy mazmunga ega bo'lgan va lingvomadaniy birliklar qatoridan joy olgan. Bu so'zlarning xalq o'yinlari tarkibida anglashiluvchi ma'nosi til sohiblarining o'zaro kelishuviga asosan kodlangan.

Ma'lumki, predmetli lingvomadaniy kodlar aksariyat inson maishiy turmushidagi ashyolar nomlarining ramziy ma'no kasb etishi vositasida yuzaga keladi: *Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor, Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi, shohi ko'rpa bo'z yamoq, belida belbog'i bor, ketmoni uchmoq, g'alvirni suvdan ko'tarmoq* birliklaridagi *qozon, elak, ko'rpa, belbog', g'alvir, ketmon* kabi so'zlar o'zbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning voqelik va undagi ijtimoiy mun

Ma'lumki, makon kodi ham lingvomadaniyatshunoslikda asosiy kodlardan biri hisoblanadi. Makon kodi mantiqiy ravishda temporal kodga bog'liq, chunki zamon va makon tushunchalari inson shuurida assotsiativ tarzda anglanib, bir-birini taqozo etadi. “Makon narsalarning ko'lamini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, zamon hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, hajmga, ko'lamga ega. Makon – vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa makonning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi” [1; 234]. Makoniy kod o'ziniki – begona, uzoq – yaqin, yuqori – past, sharq – g'arb kabi semantik oppozitsiyalar bilan bog'liq bo'lib, dunyoning inson tomonidan qismlarga bo'lingan holda idrok etilishi harakatlari natijasi hisoblanadi [5; 169]. O'zbek milliy harakatli o'yinlari nomlaridan biri hisoblangan “Quyonglar polizda” nomli o'yinda *poliz* so'zi ko'chma ma'noda qo'llanib, quyonglar (o'yin ishtirokchilari) sakrab kiradigan, avtomobil pokrishkalaridan hosil qilingan doirani bildirib, makon lingvomadaniy kodi sifatida voqelanadi. *Poliz* so'zining o'yin ishtirokchilari bostirib kiradigan hudud ma'nosida qo'llanganini bilish uchun o'yin mazmunidan xabardor bo'lish taqozo qilinadi.

Yuqorida aytilganidek, o'zbek milliy harakatli o'yinlarining lingvomadaniy xususiyatlaridan biri ularning o'zbek milliy qadriyatlar bilan aloqadorligida ko'rinadi. O'yinlar mazmunidan xalqning istaklarini, nimani ma'qullashi va nimani inkor qilishini bilib olish mumkin. “...o'zbek xalqining ming yilliklar bilan bo'ylashadigan teran ildizlari, oziqlangan bebaho qadriyatlarining borligi, ayniqsa, ular ichida xalq o'yinlari singari tengsiz boylikning mavjudligi millat identikligining o'q tomiri, bitmas-tuganmas noyob manbayidir. Bu noyob milliy o'yinlar katta-yu kichikka olam va odamga hurmat mohiyatini anglash, yurtga sadoqat, elsevarlik tuyg'ularini shakllantirish, tabiatni sevisht,

uyushib jamoa bo'lish, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tish, hozirjavoblik ko'nikmalarini o'stirish, tezkor qaror qabul qilish, jamoadoshlarga yelkadosh bo'lish, insonning tani sog'ligi, harakatchanligini ta'minlash imkoniyatini beradi [6; 151].”

O'zbek milliy harakatli o'yinlarini lingvomadaniy fenomen sifatida kuzatish shuni ko'rsatdiki, ularning mazmunida oila qadriyati muhim o'rin egallaydi. Bu, xususan, qizlar uchun mo'ljallangan o'yinlarda ko'zga tashlanadi. Jumladan, “Yaxshi ona” o'yinida ona qiziga ovqat pishirish, kashta tikish, gullarga suv quyish kabi ro'zg'or ishlarini o'rgatadi. Bu qizlarni uy bekasi maqomiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. “Ona va bola” o'yinida esa ona rolidagi opa singil rolidagi qizining to'zib ketgan sochlarini o'rib qo'yadi, qoshiga o'sma qo'yadi, yangi ko'ylak tikib beradi. “Mehmon keldi” o'yinida esa uy egasi mehmon kutish uchun yordam berayotgan shaxslarni boshqarib turadi. U o'z yordamchilariga dasturxon tuzash, ovqat pishirish, xamir qorish, non yopish kabi yumushlarni buyuradi, ular esa go'yoki shu ishlar bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunda hamma o'zining chaqqonligi, yumushkorligini ko'rsatishga harakat qiladi. Mazkur o'yin qizlarni kelgusi hayotga tayyorlashga, muomala madaniyatini o'rganishlariga katta yordam beradi. Yuqoridagi o'yinlarning barchasida oilaning inson hayotida muhim o'rin tutishi, oila a'zolarining, jumladan, ona, qiz farzand, kelinning oiladagi burchi va mas'uliyati hayotiy voqealar misolida ta'kidlangan. Shu sababli bu o'yinlarni “oilal” qadriyatini ifodalovchi lingvomadaniy matn sifatida belgilash mumkin.

Milliy xalq o‘yinlaridan biri bo‘lgan “Cho‘loq qarg‘a” o‘yinida esa sog‘likning eng muhim qadriyatlardan biri ekanligi ta’kidlangan. Bu fikrimizni ushbu o‘yinining mazmun-mundariyasi asosida dalillaymiz. O‘zbek milliy o‘yinlari tadqiqotchisi Guljahon Mardonova ushbu o‘yinni shunday ta’riflaydi: “Bu o‘yinda yetti-sakkiz nafar bolalar ishtirok etadi. Ulardan biri “rang sotuvchi”, ikkinchisi “cho‘loq qarg‘a”. Qolgan bolalar “rang”lardir. “Rang sotuvchi” va “rang”lar so‘zlashib turganda go‘yoki eshik taqillaydi.

– Kim u? – deb so‘raydi “rang sotuvchi”.

– Men “cho‘loq qarg‘a”man, – javob beradi “qarg‘a”. – Keling, “cho‘loq qarg‘a”.

– Sizga nima kerak? – so‘raydi “rang sotuvchi”.

– Menga qizil rang kerak, – deydi “cho‘loq qarg‘a”.

– Bizda qizil rang bor. Faqat u qimmatroq turadi, – deydi “rang sotuvchi”.

– Qancha turadi? – deydi “cho‘loq qarg‘a”.

– O‘n besh ming, – narx belgilaydi “rang sotuvchi”.

– Olaman, – deydi “cho‘loq qarg‘a”. “Qarg‘a” narxga rozi bo‘ldi. “Rang sotuvchi” kaftini ochib turadi. “Cho‘loq qarg‘a” esa uning kaftiga o‘n besh marta shapatilaydi. Bu vaqtda qizil rang uzoqlikka qochadi. Uni barcha ranglar olqishlab-qo‘llab turadilar. “Cho‘loq qarg‘a” esa uni quvlaydi. “Rang” jon holatda qochadi. Agar rang chaqqon bo‘lsa qochib kelib, do‘stlari qatoriga qo‘shiladi va o‘yinda davom etadi. Mabodo uni “cho‘loq qarg‘a” tutib olsa, maydon chekkasidagi ramziy “qo‘rg‘on”ga qamab qo‘yadi. Barcha “rang”lar “qarg‘a”ning

qo‘rg‘oniga qamalgach, ular “qarg‘a”ga yalina boshlaydilar.

– “Qarg‘ajon”, bizni qo‘yib yubora qol, iltimos.

– “Qarg‘a” esa:

– Agar siz sog‘lom bo‘lganingizda mening qo‘limga tushmas edingiz. Shuning uchun jismoniy harakat qiling. Buguncha sizlarni qo‘yib yuboraman. Ammo har biringizga shart aytman. Rozimisiz? – deb so‘raydi.

– Aytaqol, shartlaringni bajaramiz, – deydi “rang”lar.

“Cho‘loq qarg‘a” ularning kuchiga, quvvatiga, imkoniyatiga qarab turli shartlar aytadi. Shartlar xilma-xil bo‘lib, jismoniygina bo‘lib qolmay, adabiyot, san‘at, turli fanlardan savollar ham bo‘lishi mumkin. Shartni bajargan “rang” ozod bo‘ladi, bajara olmaganlar qayta-qayta harakat qiladilar” [6; 20-21].

O‘yin mazmunidan ko‘rinadiki, u voqeabandlik xususiyatiga ega. Unda cho‘loq qarg‘a bilan “ranglar” o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbatda sog‘liq inson uchun eng muhim narsalardan biri ekanligi cho‘loq qarg‘aning nutqi orqali bildiriladi: “Agar siz sog‘lom bo‘lganingizda mening qo‘limga tushmas edingiz. Shuning uchun jismoniy harakat qiling.” Bu mazkur o‘yin mazmuni hayotiy (vital) qadriyatlardan biri bo‘lgan sog‘liq qadriyati bilan bog‘langanidan dalolat beradi. O‘yindan agar inson sog‘lom bo‘lsa, har qanday murakkab sharoitdan ham chiqib keta oladi, degan xulosa kelib chiqadi. Shu sababli “Cho‘loq qarg‘a” o‘yini olamning qadriyatli manzarasi aks etgan lingvomadaniy matn sifatida baholash mumkin.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlarining semantik tasnifi o‘zbek xalqining olamning lisoniy manzarasini yaratishda qanday tushuncha va konseptlardan foydalanganligi haqida muayyan tasavvurni hosil qiladi. Til sohiblari milliy harakatli o‘yinlarni nomlashda odam, hayvonot olami vakillari, o‘simliklar, tabiat hodisalari, predmetlar, xususiyatlar va harakatlarni ifodalovchi so‘zlarga murojaat qilganlar. Ushbu so‘zlarning ayrimlari ramziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib, ular xalqning obrazli milliy tafakkuri hosilasidir. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlarining lingvomadaniy tabiati birinchi navbatda ularning lingvomadaniy kodlar bilan aloqadorligida ko‘rinadi. O‘yinlar matnining

lingvomadaniy hamjamiyat a‘zolari lisoniy xotirasidan joy olib, uzuallashishi natijasida mazkur nomlar lingvomadaniy kod maqomiga o‘tgan. Zoomorf lingvomadaniy kodi, predmetli lingvomadaniy kod, makon lingvomadaniy kodi o‘zbek milliy harakatli o‘yinlarida eng ko‘p uchraydigan kodlar hisoblanadi. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari o‘z mazmuniga ko‘ra lingvistik aksiologiyaning tadqiq obyekti bo‘la oladi. Mazkur o‘yinlar mazmunida lingvomadaniy hamjamiyat vakillari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, vital qadriyatlar ta’kidlanib, olamning qadriyatli manzarasi namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фалсафа. Комусий луғат. – Тошкент, 2004.
2. Гудков Д.Б., Ковшова М.Л. Телесный код русской культуры. – М.: Гнозис, 2007.
3. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001.
4. Краснобаева-Чёрная Ж. В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии) // Сибирский филологический журнал. – 2018. – №4. – С.169-180.
5. Кононенко Б.И. Большой толковый словарь по культурологии. – М.: Вече, 2003.
6. Мардонова Г. Ўзбек миллий ўйинлари. – Тошкент: Bookmany Print, 2022.
7. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4 (2). – С. 78-97.
8. Раҳимқулов К. Миллий ҳаракатли ўйинлар: ўқув қўлланма. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2012.
9. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.
10. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006.
11. Худайберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015.
12. Худойберганаева Д. Замоновий тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Bookmany Print, 2024.
13. Xo‘jayev F., Rahimqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o‘yinlar o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2008.
14. Usmonxo‘jayev T.S., X o‘jayev F. 1001 o‘yin. – Toshkent, 1990.
15. Usmonxo‘jayev T.S., Meliyev X. Milliy harakatli o‘yinlar. – Toshkent, 2000..



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

XORXE LUIS BORGES IJODIDA USLUBIY RANG-BARANGLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

Tolib NAJMIDDINOV¹

¹O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tadqiqotchisi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Jahon adabiyotshunosligi, rang-baranglik, asar, o‘ziga xoslik, oqim, avangard, mifologiya, afsona, janr, badiiy tafakkur, uslub.	Mazkur maqolada argentinlik yozuvchi Borges asarlarining jahon adabiyotshunosligida tutgan o‘rni yoritilgan. Muallif Borges asarlarining estetik qiymati, ijodida uslubiy rang-baranglik va o‘ziga xoslik, yangi adabiy janrlar hamda yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi haqida mulohaza yuritadi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
World literary criticism, diversity, work, originality, movement, avant-garde, mythology, myth, genre, artistic thought, style.	В данной статье освещается роль произведений аргентинского писателя Борхеса в мировом литературоведении. Автор размышляет об эстетической ценности произведений Борхеса, о стилистическом многообразии и своеобразии его творчества, о возникновении новых литературных жанров и направлений.
KEY WORDS	ABSTRACT
Мировое литературоведение, колорит, произведение, оригинальность, течение, Авангард, мифология, миф, жанр, художественное мышление, стиль.	This article examines the place of the works of the Argentine writer Borges in world literary criticism. The author discusses the aesthetic value of Borges’ works, the stylistic diversity and originality of his work, the emergence of new literary genres and trends.

Kirish. Borges ijodiy merosi va mavzular ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, yaratgan xarakterlari rang-barangligi bilan ham bizni hayratlantiradi. “Asteriy uyi” hikoyasi, “Yaratuvchi”, “Shekspir xotirasi”, “Abadiyat tarixi” “Butun jahon tinchlik tarixi”, “Qum kitob”, “Tergov”, “Munozara”, “Alif”, “Ibn Rushdni izlab”, “O‘z labirintida halok bo‘lgan Ibn Hoqon al-Buxoriy” hikoyalari tasavvufiy mavzularda bitilgan bo‘lib, juda ko‘plab tarixiy shaxslar, tarixiy voqelar mavzusi qamrab olindi hamda o‘quvchiga chin ma’noda hayot sabog‘i-yu ilm-ma’rifat beradi. Borges ijodi ilm ma’rifat manbayigina bo‘lib qolmay, ajoyib, sirli voqealarga, betakror, individual xarakterga, dramatik

to‘qnashuvlarga, ruhiy kolliziyalarga boyligi bilan ham alohida ajralib turadi. U murakkab falsafiy diniy-mistik, spiritualistik (ruhning materiyadan tashqari va undan mustaqil holda mavjud bo‘lishi) ta’limotlarni yengil esse yoki hikoya tarzda ifoda etishga va ularni real voqelik bilan bog‘liq holda tasvirlashga intiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada adabiyotshunoslikda qo‘llaniladigan bir qancha metodlardan foydalanilgan. Jumladan, adabiyotshunoslikda faol qo‘llanib kelinayotgan tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik va analitik metodlar asosida ijodkor shaxsiyatining badiiy olami, ijodining jahon adabiyotshunosligidagi o‘rni, uning



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

dunyo adabiyotshunosligiga qo‘shgan hissasi, ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, asarlarining tahliliy qiyosi orqali ko‘rsatilgan. Shuningdek, Lotin Amerikasi adabiyoti va Borxes ijodi tarixiy-madaniy metod orqali solishtiriladi hamda tahlillar asnosida ijodkor shaxsiyati gavdalanitiriladi.

Natijalar. Adibning asardan asarga ko‘chib yurgan obrazlari ko‘pincha qadimiy afsonalar va ertaklarning ilk qahramonlari: dehqonlar, ruhoniylar, dengizchilar, jangchilar, hikoyachilar va h.k. bo‘lib, ular abadiy inson taqdirining timsollariga aylangan. Adib ushbu syujetlardan o‘z ijodida qayta-qayta mohirlik bilan foydalangan.

Borxesning voqelikni nafis san‘at vositalari va obrazlari orqali tasvirlagan go‘zal ijodi badiiy san‘atning estetik talablariga to‘la javob bera oladi; uning asosini sivilizatsiyalar natijasida paydo bo‘lgan tushunchalar tashkil qilishi yozuvchining dunyo madaniy merosini o‘rganish, asrash, ommalashtirishga intilganidan dalolatdir.

Borxes ijodining shakl jihatdan muhim xususiyati kichik janrlarga ko‘p murojaat qilganligida ko‘rinadi. “Uning kichik janrlar borasidagi ijodi sermahsul. Borxes – to‘liqlik va ixchamlikning jonli timsolidir. Men bunga o‘xshash boshqa parcha (iqtibos) va zakovat namunasini bilmayman” [1; 158] deb yozadi Syuzen Santang. Haqiqatdan u shaklan mo‘jaz, lekin mohiyatan katta, yaxlit, bir butunlik kasb etgan ijod namunalarini yaratdi

Borxesdan o‘rganish mumkin bo‘lgan juda ko‘p jihatlar bor. Shulardan birinchisi, shubhasiz, so‘zga bo‘lgan muhabbatdir. Muhabbat esa, mas‘uliyatni, iztirobni, yonib turishni talab qiladi. Uning hikmatlari, esselari, hikoyalari shu qadar siqiqki, ularning har birini

roman qilish mumkin. Lekin u yirik janrlarda ijod qilishni yoqtirmasdi. U hikoyachi bo‘lib tug‘ildi va hikoyachi bo‘lib olamdan o‘tdi. U go‘zallik shaydosi edi. Go‘zallik esa xuddi uning hikoyalari kabi qisqa, bir lahzalik, bir necha soniyalik bo‘ldi. Siz bilan uzoq yashagan go‘zallik qariydi, xunuklashadi, siyqalashadi. Adib hikoyalari ham shunday qisqa va go‘zal, siyqalikni, ko‘pso‘zlikni yoqtirmaydi. Borxes asarlarini o‘qigan kishi falsafa bilan adabiyotning, nazm bilan nasrning o‘zaro qorishiq namunasiga duch keladi; uning asarlarini yuqorida aytganimizdek, xitoy, hind, islom, antik, Rim, Yevropa falsafa maktablaridan ayro holda o‘rganib bo‘lmaydi, ba’zida ijodkor asarlarida falsafa badiiy vositaga aylanib qoladi; asarni to‘liq anglash uchun o‘sha falsafadan xabardorlik ham zarur bo‘ldiki, bu asarlarni hamma ham, ayniqsa, voqeaparastlikka o‘rgangan o‘quvchi birdan anglab yetolmaydi. Uning ijodi zamirida olamparvarlik, insonparvarlik, madaniy merosini egallash, milliylikni saqlash, har xil falsafiy talqinlar yotsa-da, lekin uning cheksiz koinot sirlarini bilishga, dunyo mohiyatini anglashga, inson va uning “Men”ini idrok qilishga, olamning asl mohiyatini izlashga bo‘lgan intilishlari va izlanishlari uning ijodida o‘z aksini topgan va bu asarlarining rang-barang bo‘lishiga olib keladi. Uning “Birovdan hech kimga”, “Kabbalaning asoslanishi”, “Jahannamning davomiyligi”, “Abadiylik tarixi”, “Paraselsus atirguli”, “O‘lim va Bussol”, “Sharq”, “1001 kecha” metaforalari”, “Begona”, “Pushaymonlik”, “Jahannam va Jannat haqida” kabi asarlari yuqoridagi fikrimizning asosi. Bu asarlarda INSON, TIRIKLIK

mohiyati falsafiy tahlilga tortilgan, o‘z xulosalari obrazli tarzda talqin qilingan.

Adib ijodiga nazar tashlar ekansiz, bu ijod namunalari betakror va o‘ziga xos ekanligiga amin bo‘lasiz. Bu ijodning o‘ziga xosligi nimada? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Borxes ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u xohlagan ijtimoiy voqelikni biror falsafiy ta’limotga, xohlagan siyosiy hodisani biror tarixiy voqeaga bog‘lay oladi va uning publitsistikasining yangicha talqinlar kenglik va butunlik, falsafiylik, aniq bo‘lgan misollar va bilimga tayanadigan tahlillar bilan ajralib turadi. Uning asarlari faqat yangilik bermay, balki yangicha tahlil, yangicha talqin, izoh va tushuncha, yangicha tasavvur imkoniyatlarini beradi. Yana shuni aytish mumkinki, uning har bir asari rang-barangdir. U yozgan har bir mavzu ichida yana mavzular doirasida besh-olti mavzuni yozib o‘tishi bu shunchaki ish emas. Bu ijod mavzular rang-barangligi bilan birgalikda juda ko‘p voqealar, falsafiy ta’limotlar, tarixiy shaxslar va ularning hayotidan lavhalar, har xil xalqlar madaniyatidan izohlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

U ijtimoiy mavzularga, ayniqsa kishilik jamiyatida yuz berayotgan urushlarni qalamga oldi. Insoniyatni katta-katta fojealarga olib borayotgan bu urushlar uni iztirobga solardi. U Italiyaning “Panorama” jurnaliga bergan katta intervyusida (1983-yil iyun) o‘zining urush, zulm va terrorizmga bo‘lgan nafrati haqida gapiradi, o‘zini “siyosatchi emas, balki odobli odam, biron bir partiyaning a’zosi emas, lekin Lotin Amerikasida yovuzlikni fosh qilishga intilgan shaxs” deb e’tirof etadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u urush haqida juda ko‘p yozdi. Uning aksariyat asarlarida urush

mavzusiga urg‘u berib ketgan o‘rinlarni, tarixiy urush voqealarni ko‘zatishimiz mumkin. Misol tariqasida “Badqahr xaloskor” hikoyasini olib ko‘raylik: “...buzrukvor Bartalame de Las Kasasning 1915-yildagi fatvosi hindular uchun musibatli bo‘ldi” [2; 43]. Misollarni davom ettirish mumkin: “Shimol o‘rtasida urushgan uch milliard uchuz million nafaqaxo‘r” [2; 43], “Qilich izi”. Bu hikoyalar ham aynan urush voqeasiga bag‘ishlangan: “1922-yili Kennot shaharchalaridan birida ko‘pchilik qatori Irlandiya mustaqilligi uchun bo‘lgan maxfiy janglarda men ham qatnashardim. Omon qolgan o‘rtoqlarimning ayrimlari hozir tinchgina mehnat qilib, yashab yurishibdi ayrimlari esa – bu ziddiyatga nima deysiz – ingliz bayrog‘i ostida dengizlarda, cho‘llarda jang qilishmoqda. Ulardan eng sharafiga sazovorlaridan biri kazarma hovlisida uyqusiragan soldatlar tomonidan otib o‘ldirilgan. Ayrimlari (ularni juda ham baxtsiz deb bo‘lmaydi) esa fuqarolar urushining noma’lum janglarida jon berganlar” [3; 21].

1971-yilda Oksford universitetidagi uchrashuvda Borxes ikkinchi jahon urushi haqida to‘xtalib, jumladan shunday deydi: “II jahon urush – bir-birini tarog‘ini tortib olishga harakat qilgan ikkita kalning urushi – xuddi mana shu urushdir” [1; 187].

Shuni aytib o‘tish joizki, Borxes asarlarining, ijodining tom ma’nodagi Bosh qahramoni kitob va kitoblar edi. Yoshligidan yozuvchi va faylasuflarning asarlari to‘plangan kattagina kutubxonada voyaga yetgan Borxes uchun kitobdan azizroq narsa yo‘q edi. “Agar kitoblar yo‘qolsa, u bilan birga tarix va insoniyat ham yo‘qoladi” deb kitobga katta hurmat izhor qiladi. Buyuk Xitoy



imperator Shi Xuandi Xitoy tarixini o‘zidan boshlanishini istagan va uch ming yil davomida yaratilgan barcha narsalarni, jumladan, kitoblarni yo‘q qilishga buyruq berganini Borxes shunday izohlaydi: “Shi Xuandi yoqqan kitoblarning achchiq hidi hamon dimog‘imdan ketmaydi” [5; 228]. Borxes qaysi shahar yoki mamlakatga borsa avvalo uning ishi kitob, kitob do‘koni va kutubxona bo‘lar edi. “Men jannatni kutubxonaga o‘xshataman” [5; 228] deyishida hayotiy mantiq bor. Uning kitobga bo‘lgan muhabbati iqtibos san‘atini mukammal egallashga va kitoblardan iqtiboslar keltirishga, kitobiy taqrizlar orqali ijodning yangi jabhalarini yaratishga, o‘zga mavzu matnlariga variatsiyalar (Variatsiya (lot. variatio – o‘zgarish) (genetikada) – musiqa shakli. Ma‘lum bir majmuani tashkil qiluvchi birliklar o‘rtasidagi farq. Unda asosiy musiqiy mavzu o‘zining bir yoki bir qancha unsurlari (ritm, sur‘at, faktura, ohang va b.) unsurlarini tashkil qiladi. Variatsiya mustaqil asarlarning bir qismi bo‘lishi ham mumkin) yozishga, takrorlanmas esselar yaratishga yordam berdi va bu uni adabiyotning eng baquvvat ustunlaridan biriga aylanishi uchun katta hayotiy va xayoliy tarbiya berdi:

“Inson qo‘lidagi turli-tuman qurol-yaroq, asbob-uskunalar orasida eng g‘aroyibi, shubhasiz, kitob sanaladi. Qolganlarini uning jismoniy davomi, deyish mumkin. Mikroskop va teleskop – ko‘zning davomi, telefon – ovozning, omoch va qilich – qo‘lning. Biroq kitob – butunlay boshqa narsa, kitoblar – xotiralar va tasavvurlarning davomidir. Shouning “Sezar va Kleopatra”sida Aleksandriya kutubxonasi haqida so‘z boradi va uni insoniyat xotirasi jamlangan koshona,

deyishadi. Darhaqiqat, kitob odamzotning xotira xazinasidir” [6].

“Borxes XX asrning estetik qismatini timsollashtiruvchi butun, dunyo adabiyoti qonunchiligini yashab qolishini ta‘minlovchi yagona yozuvchi” [1; 189] degan edi adabiyot tarixchisi va tanqidchisi Horald Blum. Haqiqatdan ham Borxes estetika yo‘nalishi rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Uning ijodi va hayoti davomida har bir narsadan, hatto kitob va kitob muallifidan ham badiiy estetika izlashi, uning ijodi estetika bilan uyg‘unlashib ketishiga erishishi, har bir narsadan estetik zavq olishi va har bir hodisaga estetik ko‘rinish berishi Borxesning estetika timsoli bo‘lishiga olib keldi. Bu esa Borxesni mashhur qilib yubordi.

“U o‘ta murakkab falsafiy, diniy-mistik ta‘limotlarni yengil esse yoki hikoya tarzida bayon etishga va ularni real voqelik bilan bog‘liq holda tasvirlashga intiladi. Natijada bular Borxes ijodining barcha jabhasida rang-baranglik, takrorlanmas, kutilmagan voqelik, g‘ayritabiiy fikrlar, g‘ayritabiiy izohlar kelib chiqadi. Umuman, Borxes qo‘liga tushgan har qanday kitobdan ana shunday yangilik topa olardi” [1; 176] deydi Xorl Blum.

Borxes asarlarini o‘qish oson ish emas, ular xususida yozish esa undan ham qiyinroq, u kimlar haqida yozmadi deysiz. U eng ko‘p murojaat qilgan mavzu – kitob, uning ijodi bosh qahramonidir. Bu haqida uning o‘zi “Bobil kutubxonasi” asarida shunday yozadi: “Men jannatni kutubxonaga o‘xshataman. O‘lganda kimningdir mehribon qo‘llari kutubxona panjaralaridan meni pastga otsin, cheksiz koinot – menga qabrison. Shamol esa mayin par bo‘lsin. Uning uchun nafaqat odam, hatto xudo ham o‘qilishi, anglanishi zarur



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

bo‘lgan kitobdir. Borliqni u “Bobil kutubxonasi” deb ataydi” [7; 6].

“Injil”da yozilishicha odam Xudo dargohiga yetish uchun minora qurishga ahd qilibdi. Odamning bu shakkokligi Xudoga yoqmabdi va u kishilarning tilini bir-birini tushunmaydigan darajada chalkashtirib yuboribdi. Natijda Bobil minorasi bitmay qolibdi. Qadimgi odamlar nihoyasiga yetkazolmagan minorani Borxes kitoblar bilan qurmoqchi bo‘ladi. Shuning uchun ham tinimsiz o‘qib, o‘rganadi, izlanishda bo‘ladi va yozadi.

Adibning yozishicha, koinot olti burchakli ulkan kutubxonadir (koinot kutubxonasi) odamlar esa undagi kitobxonlardir. Mazkur kutubxonada borliqning, mavjudlikning g‘aroyibotlari, sir-asrorlari, idrok etilmagan hikmatlari bitilgan kitob – Alpkitob mavjud. Kitobxonlardan biri uni o‘qib, xudosifat bo‘lgan va odam kitobga aytilgan. Qolganlar ham shunday xislatga erishish va borliq sirlaridan voqif bo‘lish uchun Alpkitobni topishga bel bog‘lagan, ammo ularning barcha harakatlari zoye ketgan. Ularga kimdir A ga yetish uchun B ni, B ga yetish uchun V ni topish zarur deb maslahat beradi. Bu aslida Borxesning o‘z izlanishlaridan chiqargan xulosasi edi. Bu haqida shunday deb yozadi. “Men umrimni ana shunday izlanishlarda o‘tkazdim. Menga koinot kutubxonasining allaqaysi tokchasida borliq, sir-asrori bitilgan Alpkitob bordek tuyuladi. Agar bu kitobni men topa olmasam hech bo‘lmaganida ming yilda topa olmasam kimgadir uni topib o‘qish nasib etsin. Odamzod ertami, kechmi, yer yuzasidan qirilib ketishi mumkin ekan. Sirli va qimmatbaho asarlarga to‘la koinot –

kutubxonasi va Alpkitob saqlanib qolsin deb Xudoga yolvordim” [8; 7].

Yozuvchi-faylasufning ushbu fikrlari zamirida olamparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari yotsa-da, cheksiz koinot sirlari birgina kitobga jo bo‘ladi deb qarashi bir qarashda g‘ayriilmiy tuyulsa-da, lekin ilohiy qiymatga egaligi bilan ma‘lum ahamiyatga ega.

Borxes nazarida nafaqat Alpkitob balki undagi har bir harf, chiziq va belgilar ham sir-u sinoatga to‘la, chunki butunning hislatlari qismida ham mavjud bo‘lishi zarur. Ammo butunning xususiyatlarini hamma ham idrok eta olmaydi. Chunki oddiy aql – oddiy harf, chiziq va belgilarnigina anglashi mumkin xolos.

Alpkitob sirlarini to‘liq anglash uchun esa Alpodam kerak. Borxes xudodan, kimdir ming yilda Alpkitobni topib o‘qisin deb so‘raganida Alpodamning kelishi muqarrar eknini nazarda tutgan. Borxes tilga olgan “Alpodam”, “Alpkitob”, “Koinot kutubxonasi”, “Bobil kutubxonasi” iborolari majoziy ma‘no-mazmun kasb etsa-da yozuvchi ularni real haqiqat sifatida qabul qiladi.

Borxesning “Ezid Bitiklari” hikoyasi ham kitobxonlar o‘rtasida anchadan buyon bahs-munozara kelmoqda. Asarda tutqunlikdan najot izlashi haqida fikr yuritiladi. Umr bo‘yi tutqinlikdan xalos bo‘lishga intiladi. Hatto ba‘zan o‘limni ham haqiqiy najot sifatidan qarshi oladi.

Asarda tasvirlangan Mahbus – qahramon devordagi allaqanday chiziqlardan, aniqrog‘i qafasdagi yaguar terisidagi ola-bula chiziqlardan najot qidiradi. Nogahon uning xayoliga yaguar xudoning ilk timsoli, teridagi ola-bula izlar esa uning boyliklari degan fikr



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

keladi. Afsuski, inson zoti ushbu bitiklarni o‘qiy olmaydi. Shuning uchun “dunyo”, “jamiyat”, “koinot” degan takabburona iboralar – Ezid bitigining zaif aks-sadosi xolos. “Xudo borliqni o‘zida to‘liq jo etgan birgina so‘z bilan olamni yaratgan, shuning uchun uning birorta so‘zi olamning o‘zidan kam emas”. Biror so‘z bilan olamni yaratgan xudo boshqa bir so‘z bilan uni yo‘q qilishi mumkin. Ammo inson zoti olamda qanday o‘rin tutadi, degan savolga yozuvchi javob bermaydi. U o‘quvchining g‘ayriodatiy fikrlarga ro‘para qilib, bu kabi savollarga javob izlashga uning o‘zini majbur etadi.

Borxesning eng yaqin hamkorlaridan, hammualiflaridan biri bo‘lgan do‘sti Syuzen Sontang uning kitob va kitoblar olamiga munosabati haqida shunday deb xotirlaydi: “Agar kitob yo‘qolsa, tarix va u bilan insoniyat yo‘qoladi. Siz haqsiz. Kitoblar faqat bizning xotira va tushlarimizning o‘tkinchi hisoboti emas. Ular bizni chegaradan chiqishimizga yordam beruvchi timsollarni in‘om etadi. Kimdir kitob o‘qishni bekorchilik, haqiqiy hayotdan xayolot olamiga qochish deb hisoblaydi, ammo kitobning qadri, unga talabning tushib ketganligi juda ham og‘ir. Kitobning vazifasi va bir-biridan ajratuvchi, uni o‘qishning asl maqsadini chilparchin etuvchi yangi g‘oya kundan-kunga keng tarqalmoqda. Ular bugun o‘rinda yotib yoki kutubxonaning bir burchagiga tiqilib olib, chiroq nurlari ostida kitob varaqlashni xohlashmayapti. Yaqinda biz maxsus ekranda xohlagan kerakli matnni chiqarishimiz, uni o‘zgartirishimiz, uning oldiga savollar qo‘yishimiz, umuman unda ishtirok etishimiz mumkinligi haqida gapirishyapti. Kitoblar ko‘zgudagi matnlar va ularda ishtirok etish

ko‘rinishiga kelib ulardan ma’lumot olish, jo‘ngina foydalanilsa qo‘lda terilgan so‘zlar reklama hokimlik qilayotgan oddiy bir reallik ko‘rinishiga kelib qoladi. Nurli kelajak bizga shunga o‘xshash narsalarni tayyorlab, xuddi havas qilgulik demokratiyani bashorat qiladi. Lekin, albatta, siz va men kitobning oxiri va o‘z fikr xayollariga cho‘milishdan to‘xtash, ozmi-ko‘pmi nimani bildirishini yaxshi tushunamiz [1].

Borxesning kitob sevishi, kuchli kitobxon bo‘lishiga – ijodining asosini har xil falsafiy talqinlar, cheksiz koinot sirlarini bilishga, dunyo mohiyatini anglashga, inson va uning “Men”ini idrok qilishga olamning asl mohiyatini izlashga bo‘lgan intilish sabab bo‘lgan. U ayniqsa olam va odam o‘rtasidagi bog‘liqlikni, tabiat va inson dunyosining mushtarakligini teran anglaydi, o‘z ijodiga singdiradi: “...siynalari bo‘liq, boshi ko‘kka yetgudek bo‘ychan, Missisipini Parona, Urugvay, Amazonka va Orinka daryolarining mushfik egasidir. Har yili Meksika bo‘g‘ozidagi tashlanadigan hisobsiz chiqindi to‘rt yuz million tonnadan ortiq baliqni tubida tushab qo‘yganidanmi, daryo suvining ranggi ham sohilida umrguzaronlik qilishni taqdiri azal manglayiga bitgan, hindu bilan oq tanlidan turalgan mulat badanining tusida. Irmoqlari boshlangan qishloqlardan yana shuncha miqdorda kir-chir, chiqindilar tashlanishiga qaramay, olis-olislardan yo‘lga chiqqan bu daryo adoqsiz botqoqliklar-u, serob changalzorlar ila ufqlargacha cho‘zilib ketgan, u har yer, har yerida hech qachon o‘chog‘idan o‘t o‘chmaydigan qasrlar, chordevor kulbalar oralab baliqqa serob badbo‘y va xushmanzara, sovuqqon va vaxshiy bir saltanat kabi oqib yotardi” [2; 43].



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Jahon adabiyotining xilma-xil oqimlari, xilma-xil turlari, tarixi, buguni, turli xalqqa, mintaqaga mansub namoyandalari, ularning asarlari haqida Borxeschalik ko‘p yozgan va ko‘p o‘qigan boshqa bir yozuvchini topish qiyin. U klassikadan tortib, modernizmgacha bo‘lgan butun bir adabiyotni o‘z esse, badia, she‘r, hikoya, ma‘ruzalarida jamlashtira oldi va ularga yangicha, uyg‘oq shaxs, uyg‘oq yozuvchi nuqtayi nazaridan baho bera oldi. Uning xoh klassika bo‘lsin, xoh avangard adabiyot, birontasini ijirg‘anib, nazar-pisand qilmay o‘qiganini sezmaydiz. U qaysi oqimga mansubligidan qat‘i nazar, har bir asardan ma‘no, fikr, ramz, so‘z, go‘zallik izlab ko‘rardi. U favqulodda kitobga muhtalo bo‘lganlardan, adabiyotning xizmatkori edi.

Ehtimol, uning aksariyat badiiy asarlari – ogohlantiruvchi ertaklardir. Uning hikoyalari orasida oldindan sezish, ogohlantirishlarning talqinlari mavjud. Uning nasrida haqiqiy va xayoliy narsalar bir-birlariga, xuddi ko‘zgularga o‘xshab aks ettirilgan yoki sezilmaydigan tarzda bir-biriga singib ketgan, go‘yo labirintdagi harakatlar singari. Ko‘zgu, labirint, tush – bular u tomonidan eng sevib tasvirlanadigan obrazlardir. Borxes hikoyalari bir necha yo‘nalishda tasniflangan: ular rivoyat, noreal tasvirlar yoki sof badiiy matn ko‘rinishida. Aksar hollarda tanqidchilar ularni mifologik omillar asosida talqin qiladi. Bularning barchasi, albatta, adabiyotshunoslik uchun muhimdir. Ammo har qanday talqin uchun eng muhimi – “yashirin maqsad” ni, yozuvchining o‘zi ta’kidlaganidek, ijodning falsafiy va badiiy ahamiyatini e’tiborga olish muhimdir. Borxes o‘z intervyularida, maqola va hikoyalarida bir necha bor, u uchun falsafa va san’at teng va deyarli bir xil ekanligini,

uning ko‘p yillik falsafiy tadqiqotlari (jumladan, xristian, islom, buddizm, so‘fiylik, taoizm va boshqalarni)ni o‘z ichiga olgan badiiy tasavvur qilish uchun yangi imkoniyatlarni izlashga qaratilganligini ko‘p ta’kidlaydi. Shu sababli Borxes o‘zining intellektual metaforalarini yaratgan holda, uning tafakkur olamini shakllantirgan G‘arb sivilizatsiyasining muqaddas afsonalari va asotirlariga asoslanib, qabul qilingan tushunchalarni tan olmaydi.

The linguistic landscape of a society is intricately tied to its cultural worldview. The Sapir-Whorf Hypothesis posits that language shapes thought and, consequently, how people interpret reality. This hypothesis underlines the anthropocentric nature of linguistic processes, where human perception is seen as the foundation for language and communication. From an anthropocentric viewpoint, language not only represents the external world but also encodes the cultural and cognitive frameworks through which individuals perceive their environment. This dynamic is evident in how different cultures use language to categorize and describe phenomena in ways that reflect their unique values and worldviews [1]. For example, in some Indigenous languages, the concept of time may be more fluid, emphasizing cyclical or event-based understandings of temporality, rather than linear timeframes common in Western languages [4]. Such linguistic differences reflect deeper cultural variations in how humans relate to the world around them. Through anthropocentric lenses, language becomes more than a communicative tool—it is a window into the cognitive processes and cultural narratives that guide human existence.

The term “linguistic landscape” traditionally refers to the visible language in

public spaces, such as signage, advertisements, and street names. However, in a broader sense, the linguistic landscape includes the variety of ways language is used in different social and cultural contexts to reflect and construct reality. The anthropocentric perspective views the linguistic landscape as a cultural artifact, shaped by human actions and perceptions [5]. Gorter’s interpretation of the linguistic landscape expands its meaning beyond visible signs to include how language, influenced by human actions and perceptions, shapes and reflects reality. His anthropocentric view underscores the idea that language actively constructs cultural and social identities, showing its deep connection to how humans experience and understand the world. In multilingual societies, the linguistic landscape often reflects power dynamics, social hierarchies, and cultural identities. For example, the dominance of a particular language on public signs may signify the cultural and political power of its speakers, while the presence of minority languages can be an indicator of cultural diversity or resistance [6]. This anthropocentric focus on how humans shape and are shaped by their linguistic environment highlights the reciprocal relationship between language and social identity. Moreover, the way humans modify their linguistic landscape, such as the introduction of bilingual signage or the promotion of endangered languages, reflects anthropocentric efforts to preserve cultural heritage and maintain linguistic diversity. These actions emphasize the role of humans not just as users of language, but as agents of linguistic change who actively participate in shaping their communicative environments.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Language plays a crucial role in mediating human experience, shaping how people interpret their interactions with the world and others. According to Vygotskian theories of sociocultural development, language serves as a primary tool through which individuals internalize and process their social experiences [7]. This suggests that language is not only a reflection of individual cognition but also a key medium through which societal norms and values are transmitted. For instance, anthropocentric approaches to language recognize that metaphors used in everyday speech are often grounded in bodily and sensory experiences. Cognitive linguists like Lakoff and Johnson [8] argue that metaphors are central to human thought and help individuals understand abstract concepts through more concrete, familiar experiences. Phrases like “grasping an idea” or “seeing the point” rely on physical metaphors to express cognitive actions, demonstrating the close relationship between language, the human body, and the mind.

This anthropocentric focus on the embodied nature of language reveals how deeply intertwined language is with human experience. It highlights that language is not a neutral medium but a tool that shapes how people perceive, interpret, and engage with the world around them. The principle of linguistic relativity, often associated with Edward Sapir and Benjamin Lee Whorf, supports the anthropocentric notion that language influences thought and shapes human perception. According to this theory, speakers of different languages experience the world in unique ways because their languages encode different categories of meaning [2].

Anthropocentric perspectives on linguistic relativity emphasize that humans are not passive recipients of language but active creators of meaning. For example, in languages that have grammatical gender, speakers often attribute gendered characteristics to inanimate objects, which can affect their perceptions of those objects. In Spanish, the word for “sun” (*el sol*) is masculine, while in German, “sun” (*die Sonne*) is feminine. Studies have shown that speakers of these languages often describe the sun with characteristics traditionally associated with masculinity or femininity, demonstrating how language shapes thought at a fundamental level [9]. From an anthropocentric perspective, this phenomenon underscores the active role that humans play in constructing their understanding of the world through language. It also suggests that language is not simply a reflection of the external world but a cognitive tool that humans use to create and manipulate their reality.

Anthropocentric views of language emphasize its role in shaping personal and collective identity. Language is a primary means by which individuals express their identity and align themselves with particular social or cultural groups. For instance, the use of dialects or sociolects can signal belonging to a specific community, while language choice can reflect cultural pride or political resistance [10]. In multilingual contexts, language becomes a powerful tool for negotiating identity. Speakers often switch between languages or language varieties depending on the social context, a phenomenon known as code-switching. This linguistic flexibility allows individuals to navigate different social



identities, aligning themselves with different cultural groups in different contexts. From an anthropocentric perspective, such linguistic behavior demonstrates how humans use language not only to communicate but to actively construct and perform their social identities.

Conclusion. Anthropocentric approaches to language place humans at the center of linguistic analysis, recognizing that language is not just a passive tool for communication but an active medium through which humans construct their reality, shape their cognitive experiences, and express their identities. Through the lens of anthropocentrism, language becomes more than a means of conveying information—it becomes a reflection of human thought, culture, and social interaction. This perspective highlights the intricate relationship between language, cognition, and worldview, demonstrating that the ways in which humans perceive and experience the world are deeply influenced by the languages they speak. In examining the role of language in shaping human experience, the concept of linguistic

relativity underscores how speakers of different languages may conceptualize the world differently. Anthropocentric theories reveal that humans are not merely shaped by language but are active agents in using language to navigate and modify their environment, shaping both individual and collective identities. The flexibility and adaptability of language in multilingual contexts further emphasize the human capacity to use language as a tool for social negotiation and cultural expression. Ultimately, the anthropocentric view of language asserts that language is a uniquely human phenomenon, inseparable from the cognitive and cultural processes that define human existence. By understanding language through this lens, we gain insight into how humans use linguistic tools to interpret the world, construct meaning, and engage with others. Future research in linguistic anthropology and cognitive linguistics will continue to explore these dynamics, providing deeper insights into the profound connection between language, thought, and human experience.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sapir E. The Status of Linguistics as a Science // *Language*, 1929. – № 5(4). – PP. 207-214.
2. Whorf B.L. *Language, thought and reality: selected writings*. Technology Press of Massachusetts Institute of Technology: Cambridge, Mass., 1956.
3. Levinson S. C. *Space in Language and Cognition: Explorations in Cognitive Diversity*. – Cambridge University Press, 2003.
4. Evans N. *Language and Time: The Multiple Dimensions of Temporal Expression in Indigenous Australian Languages* // *Frontiers in Psychology*, 2015. – № 6. – PP. 1-15.
5. Gorter D. *Linguistic Landscape: A New Approach to Multilingualism / Multilingual Matters*, 2006. – PP. 233-245.
6. Landry R., Bourhis R. Y. *Linguistic Landscape and Ethnolinguistic Vitality: An Empirical Study* // *Journal of Language and Social Psychology*, 1997. – № 16 (1). – PP. 23-49.
7. Выготский Л.С. *Мышление и речь*. – М.-Л., 1934.
8. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – University of Chicago Press, 1980.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

FALSAFA

TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIIY FALSAFIY QARASHLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Go‘zal ERGASHEVA¹

¹ISFT instituti dotsenti

KALIT SO‘ZLAR
Ijtimoiy-falsafiy qarashlar, tarbiya jarayoni, pedagogik metodika, tarbiyaviy faoliyat, falsafiy tamoyillar, ijtimoiy muammolar, qadriyatlar, nazariya va amaliyot integratsiyasi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Социально-философские взгляды, учебный процесс, педагогическая методология, воспитательная деятельность, философские принципы, социальные проблемы, ценности, интеграция теории и практики.
KEY WORDS
Socio-philosophical views, educational process, pedagogical methodology, educational activity, philosophical principles, social problems, values, integration of theory and practice.

ANNOTATSIYA
Mazkur maqolada tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish metodikasi tahlil qilingan. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tarbiyaviy jarayonlarni samarali tashkil etish, shuningdek, tarbiyaviy faoliyatda ijtimoiy muammolarni hal qilishda falsafiy tamoyillarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif tarbiya jarayonida zamonaviy ijtimoiy-falsafiy bilimlar va qadriyatlarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilgan. Shu bilan birga, pedagogik jarayonni yanada takomillashtirish uchun ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan.
АННОТАЦИЯ
В данной статье анализируется методология использования социально-философских взглядов в процессе образования. Показана эффективная организация образовательного процесса на основе социально-философского подхода, а также значение философских принципов в решении социальных проблем в образовательной деятельности. Автор исследует теоретические и практические аспекты применения современных социально-философских знаний и ценностей в образовательном процессе. Также разработаны механизмы использования социально-философских взглядов для дальнейшего совершенствования педагогического процесса.
ABSTRACT
This article analyzes the methodology of using socio-philosophical views in the process of education. Effective organization of educational processes based on the social-philosophical approach, as well as the importance of philosophical principles in solving social problems in educational activities are shown. The author researched the theoretical and practical aspects of the application of modern socio-philosophical knowledge and values in the educational process. At the same time, mechanisms for using socio-philosophical views have been developed to further improve the pedagogical process.

Kirish. Tarbiya jarayoni inson shaxsini shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim vositasi sifatida jamiyat

taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Har bir davrda tarbiya jarayonini tashkil etishda ijtimoiy-falsafiy qarashlar muhim ahamiyat



kasb etgan. Tarbiya jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan shaxslarni shakllantirishning dolzarb jarayoni hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tarbiya jarayoniga falsafiy yondashuv kiritish nafaqat pedagogik samaradorlikni oshiradi, balki tarbiya jarayonini chuqur ijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiya usullarini takomillashtirishda ijtimoiy muammolarni tahlil qilish, shaxsni ijtimoiy jihatdan yetuk va mas'uliyatli qilib tarbiyalash masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy tamoyillarni qo'llash orqali o'quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Ushbu maqola tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish metodikasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish bo'yicha ilmiy-adabiy manbalarni tahlil qilish ushbu masalaning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga imkon beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda turli davr va maktablarning falsafiy qarashlari hamda pedagogik tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

Aristotel [2; 74], Platon, Konfutsiy [5; 129] kabi faylasuflar tarbiya va inson shakllanishi masalalarida ijtimoiy muhitning ahamiyatini qayd etgan. Ularning asarlarida tarbiya jarayonini ijtimoiy axloqiy me'yorlar asosida tashkil qilish tamoyillari yoritilgan. Ayniqsa,

Konfutsiyning axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari bugungi tarbiya jarayonida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Yan Amos Komenskiy [6; 98], Jon Lokk, J.J. Russo kabi mutafakkirlar tarbiyada shaxs erkinligi va ijtimoiy javobgarlikni uyg'unlashtirish masalalariga e'tibor qaratgan. Ayniqsa, J.J. Russo [3; 263] tarbiya jarayonida tabiat va jamiyat bilan uyg'unlikka erishish g'oyalarini ilgari surgan. Ushbu qarashlar zamonaviy tarbiya usullarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmida Paulo Freire [4; 19], Ivan Illich kabi tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy-falsafiy qarashlar ta'lim va tarbiya jarayonida keng tadbiiq etila boshlandi. Paulo Freire o'zining "Bosim ostidagi pedagogika" asarida shaxsni ijtimoiy muhitni o'zgartirishga qodir faol subyekt sifatida tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan.

Al-Farobiy [1], Beruniy, Yusuf Xos Hojib [7], Ahmad Yassaviy kabi buyuk allomalar tarbiyaning ma'naviy va ijtimoiy asoslarini yoritgan. Ularning asarlarida insonni komil shaxs sifatida tarbiyalashda jamiyatning roli va ahamiyati chuqur talqin etilgan. Ayniqsa, Al-Farobiyning axloqiy fazilatlarni shakllantirish borasidagi g'oyalari tarbiyaviy jarayonni boyitishda muhimdir.

Zamonaviy adabiyotlarda tarbiya jarayonini ijtimoiy muammolar bilan bog'lash masalalari keng yoritilgan. Jumladan, ijtimoiy pedagogika, gender yondashuv, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar tarbiya jarayonining ko'lami va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish nafaqat shaxs rivojlanishiga, balki



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan pedagogik metodikalar tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan samarali foydalanish metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-falsafiy tamoyillar asosida tashkil qilish uchun, avvalo, ushbu tamoyillarni belgilash zarur. Bunda insoniyatning tarixiy-falsafiy tajribasi, milliy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy masalalar hisobga olinadi. O'quvchilarni tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va individual erkinlik tamoyillari bilan tanishtirish bu bosqichning asosiy vazifasidir.

Tarbiya mazmuni milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga qaratiladi. Ushbu bosqichda tarbiyaviy materiallar ijtimoiy muammolarni aks ettiradigan mavzularni qamrab olishi lozim. Masalan, adolat, tenglik, inson huquqlari, ekologik mas'uliyat kabi mavzularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish muhim.

Tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlarni singdirish uchun interaktiv usullar qo'llanadi. Munozaralar, rolli o'yinlar, ijtimoiy loyihalar va masalalarni tahlil qilish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu usullar yosh avlodni ijtimoiy masalalarni o'z nuqtani nazaridan baholash va yechim topishga undaydi.

O'quvchilar ijtimoiy loyihalarda qatnashish orqali o'zlari o'rgangan falsafiy va ijtimoiy tamoyillarni amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masalan, ekologik aksiyalar, ijtimoiy adolatni targ'ib

qilishga qaratilgan tadbirlar yoki xayriya faoliyati shular jumlasidandir.

Tarbiya jarayonining samaradorligini baholash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqiladi. O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyat, tanqidiy fikrlash darajasi va jamoatchilik faoliyatidagi ishtiroki baholanadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning jarayonda innovatsion yondashuvlarni qanday qo'llagani ham tahlil qilinadi.

Tarbiya jarayonida qo'llangan usullar va yondashuvlar asosida ilg'or tajribalarni umumlashtirish va pedagoglar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Bu kelgusida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodika tarbiya jarayonini ijtimoiy-falsafiy qarashlar asosida takomillashtirish uchun nazariy va amaliy jihatdan kompleks yondashuvni taklif qiladi.

Natijalar. Tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy yondashuvni qo'llash o'quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan boyitadi, balki ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda ham samarali bo'ladi.

Birinchidan, ijtimoiy-falsafiy tamoyillarning tarbiya jarayoniga integratsiyasi yosh avlodda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Munozaralar, ijtimoiy masalalar tahlili va falsafiy muammolarni o'rganish orqali o'quvchilar o'z qarashlarini shakllantirish va asoslash ko'nikmalarini



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

egallaydi. Bu, o‘z navbatida, ularning shaxs sifatida yetuklikka erishishini ta‘minlaydi.

Ikkinchidan, tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish ijtimoiy adolat, mas‘uliyat va jamiyatga foydali bo‘lish kabi tushunchalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu qarashlar asosida o‘quvchilar jamiyatning axloqiy qadriyatlari va me‘yorlariga muvofiq ravishda harakat qilishni o‘rganadi. Masalan, ekologik muammolarni hal qilish yoki inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha loyihalarda qatnashish shunday tamoyillarning amaliy ifodasidir.

Uchinchidan, ijtimoiy-falsafiy yondashuvning tarbiyaviy jarayonga qo‘shilishi milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat o‘z milliy merosini chuqur anglaydi, balki boshqa madaniyatlarni ham hurmat qilishni o‘rganadi. Natijada, ularning global miqyosda ijtimoiy masalalarga yondashuvlari yanada kengayadi.

Shuningdek, muhokama jarayonida aniqlanganki, tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagoglarning roli juda muhim. Ularning ijtimoiy-falsafiy bilimlari va metodik tayyorgarligi jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, pedagoglarni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan tanishtirish va ularga maxsus malaka oshirish dasturlarini taklif qilish zarur.

Yakuniy xulosa shuki, ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish tarbiya jarayonini yanada boyitadi va yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning uzluksiz

rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-ma‘naviy zaminni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa. Tarbiya jarayonida ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish shaxsning har tomonlama rivojlanishida va jamiyatning ijtimoiy-ma‘naviy asoslarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-falsafiy tamoyillarni pedagogik faoliyatga integratsiya qilish orqali tarbiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat: ular yosh avlodda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas‘uliyat va milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy-falsafiy bilimlarga ega bo‘lgan pedagoglar tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishi mumkin. Shu sababli, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish muhimdir. Tarbiya jarayoniga ijtimoiy-falsafiy qarashlarni tatbiq qilish nafaqat o‘quvchilarning, balki jamiyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta‘sir qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy-falsafiy qarashlardan foydalanish tarbiya jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini boyitish imkonini beradi. Bu jarayon shaxsni nafaqat bilimli va tarbiyali, balki jamiyatning mas‘uliyatli a‘zosi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar va tajribalar davom ettirilishi tarbiyaviy jarayonning dolzarb masalalariga samarali yechim topish imkonini beradi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Aristotel. Politika. Toshkent: Fan nashriyoti, 1985.
3. Illich I. Deschooling Society. – London: Calder and Boyars, 1971.
4. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – Nyu-York: Continuum Publishing, 1970.
5. Konfutsiy. Lun'yu: Qoidalar kitobi. Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
6. Коменский Я. Великая педагогика. – Москва: Просвещение, 1982.
7. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1990.
8. Russo J.J. Emil yoki tarbiya haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

BADIIY ASAR QURILMASIDA ESTETIK ME’YORLAR VA MEZONLAR PARAGDIGMASI TAHLILI

Dilbar QODIROVA¹

¹Falsafa fanlari nomzodi, ISFT instituti professori

KALIT SOʻZLAR	ANNOTATSIYA
Badiiy asar, meʼyor, mezon, shakl, mazmun, kompozitsiya, ritm, garmoniya, qarama-qarshilik, gʻoya, uslub, janr.	Maqolada badiiy asar qurilmasida estetik meʼyor va mezonlarning paradigmasi, badiiy asarni strukturasini tashkil etuvchi asosiy mezonlar boʻlmish badiiy asarning gʻoyaviy va rivojlantiruvchi mezonlari, badiiy asarning tarkibiy qurilmasini tashkil qiluvchi miqdor mezonlari, asarning kompozitsion jihatlarini tashkil etuvchi mantiqiy-shakliy mezonlarining oʻrni tahlil qilingan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Художественное произведение, норма, критерий, форма, содержание, композиция, ритм, гармония, контраст, идея, содержание, стиль, жанр.	В статье проанализирована парадигма эстетических норм и критериев в структуре художественного произведения, идейно-развивающие критерии произведения, являющиеся основными критериями, составляющими структуру художественного произведения, количественные критерии, составляющие структурное устройство произведения, роль логико-формальных критериев, составляющих композиционные аспекты художественного произведения.
KEY WORDS	ABSTRACT
Artwork, norm, criterion, form, content, composition, rhythm, harmony, contrast, idea, style, genre.	The article analyzes the paradigm of aesthetic norms and criteria in the structure of an artistic work, the ideological and developmental criteria of the work, which are the main criteria that make up the structure of an artistic work, quantitative criteria that make up the structural structure of an a work, the role of logical and formal criteria that make up the compositional aspects of the artistic work.

Kirish. Badiiy asar qurilmasini, strukturasini tahlil qilsak, u bir qancha komponentlardan tashkil topgan boʻlib, ularning oʻziga xos estetik mezonlari mavjud. Shuning bilan birga mezonlarning ham oʻz oʻlchovlari va meʼyorlari bor. Biz ularni shartli ravishda quyidagicha tizimlashga harakat qildik;

1. badiiy asarning gʻoyaviy mezonlari: uslub, mavzu, mazmun;

2. badiiy asarni rivojlantiruvchi mezonlar; qarama-qarshilik dialektikasi, dinamika, xarakter;

3. badiiy asarning tarkibiy qurilmasini tashkil qiluvchi miqdor mezonlari-meʼyorlar; garmoniya, ritm, simmetriya va boshqalar;

4. badiiy asarning mantiqiy-shakliy mezonlari; shakl, janr va kompozitsiya.

Ular estetik talablarga mos kelsagina asar badiiylikka aylanadi va insonga estetik zavq baxsh etadi. Yuqoridagi tizimning uygʻunligi va meʼyori esa, badiiy asarning estetikligini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maʼlumki, qadimgi yunonlar tartibsizlik, xunuklikni xaos soʻzi bilan, tartibli, koinot uygʻunligini va idealni kosmos soʻzi bilan



belgilaganlar. Go‘zallikning qonuniy prinsipi estetik me‘yor bo‘lib, u saqlangan joyda hamisha go‘zallik mavjud bo‘ladi. Insoniyat tarixida go‘zallik, nafosat, olijanoblik, tragediya, komediya, katarsis, uyg‘unlik, tartib, san‘at, vazn, poetika, musiqa, kalokagatiya, kanon, misesis, simvol, obraz, semiotik belgilar, rang, nur kabi tushunchalar shakllanib bordi. Pifagor kosmos tushunchasini tartibli birlik sifatida kiritadi. Uning asosiy xususiyati garmoniyadir. Pifagorchilar garmoniyaga xilma-xilliklarning birligi, qarama-qarshiliklarning kelishuvi, uyg‘unligi sifatida qaraganlar. Pifagor va uning izdoshlari, “koinot uyg‘unligi” deb nomlangan ta‘limotni yaratdilar, pifagorchilar, kosmos musiqiy uyg‘unlik prinsipi asosida tashkil etilgan degan ajablanarli xulosaga kelishdi [1]. Garmoniya Aflotun tomonidan ham faol qo‘llangan kategoriyadir. U me‘yor, mutanosiblik, simmetriya tushunchalariga yaqin. Aflotunning fikriga ko‘ra, uyg‘unlik faqatgina o‘xshashligi sababligina birlashuvchi mavjudlik emas. Geraklitga ergashgan holda, Aflotun uyg‘unlik birlamchi qarama-qarshilikdan hosil bo‘lganligini takrorlaydi. Aflotun garmoniyasiz hech bir narsada go‘zallik mavjud emasligini ta‘kidlagan edi. Estetik me‘yorlarning kelib chiqishida sinergetika munosib o‘rin tutadi. Sinergetika dunyoga yangicha qarash bo‘lib, fanlardagi yangiliklarni umumlashtirish, o‘z-o‘zini tashkil qilish, chiziqsiz tafakkur asosida global evolyutsion jarayonni tahlil qiluvchi fanlararo ilmiy tadqiqotdir. Bu holat ko‘pincha xaosdan tartibga o‘tish asosida kechadi. Xaos faqatgina dunyoni buzuvchisi bo‘lmay, qandaydir sharoitlarda, ma‘lum sabablarga ko‘ra, tuzuvchilik vazifasini bajarishi

mumkinligini ham ko‘rsatdi. Ushbu fikrlar Sharqda ham ma‘lum darajada o‘z ifodasini topgan. Masalan: Sharqning buyuk mutafakkiri Mavlono Rumiy ham o‘z xikmatlarida ushbu fikrni keltirganlar: “Tabassum yig‘ilarda nihondir. Ey sof va pok kishi, xazinani vayronalardan qidir”.

Alisher Navoiy ham shunga yaqin xikmatni keltirgan edi.

Ista yirtuq janda kiyganlarda ma‘ni maxzanin -

Kim, bu yanglig‘ ganj o‘lur ul nav‘ vayronlar aro.

Ma‘no xazinasini yirtiq kiyim kiyganlardan izla, chunki bunday xazina shunday vayronalarda bo‘ladi [2]. Avesto ta‘limoti bo‘yicha ham tabiatdagi va insonlar jamiyatidagi hodisalarning hammasi, bir-biriga teskari va ikki yaratuvchining kurashidan kelib chiqadi. Bu yaratuvchilarning biri Axura Mazda bo‘lib, u yorug‘lik, obodonlik, farovonlik, salomatlik tinchlik va boshqa yaxshiliklarni yaratsa, ikkinchisi Axriman (Angra Manyu) Axura Mazda yaratgan yaxshi narsalarga qarshi kurashadi. Bu kurashning natijasi zulmatga qarshi yorug‘likning g‘alabasi bilan tugaydi [3].

Ijodkor uchun beqaror bir qancha tovushlar ranglar, so‘zlar, imo-ishoralar ichida eng go‘zalini, barqarorini, me‘yordagisini, garmo-niyani ilg‘ay olish uchun, albatta, estetik did va intuitsiya zarur.

Muhokama va natijalar. San‘at va falsafani qiyoslasak, san‘atdagi bilish, eng avvalo, asarning bosh mag‘zi bo‘lmish g‘oya va mavzuda ifodalanadi va badiiy asar qurilmasining qanday estetik me‘yorlarga ega bo‘lishi lozimligini, g‘oya va mavzu belgilab beradi. G‘oyaviy mezonlarga uslub, janr,



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

mavzu, mazmun kiradi. Badiiy asar tuzilmasining birlamchi omillaridan biri bu g'oya bo'lib, mavzuga ham asos bo'ladi. Mavzu – ijodkor tomonidan asar g'oyasini yoritish va tasvirlash uchun tanlangan hodisalar doirasidir. Ijod jarayonining ibtidosida mazmun ustuvor maqomda turadi, u o'ziga mos shaklni topganidan keyin mazmunning shakllanishi ro'y beradi. Ular bir-birining to'qimasiga singib ketadigan estetik yaxlitlikni tashkil etadi. Mazmun, bu muayan narsa, hodisa, jarayonlarning o'ziga xos sifati xususiyatlari, muhim belgilari va elementlarining yig'indisini anglatadi. “Har bir badiiy asarning mazmuni unda aks ettirilgan voqea orqali g'oyalar va obrazlar tizimini bildiradi. Demak, g'oyaviy mezonlar badiiy asarning mohiyatini va rivojlanish jarayonini belgilab beradi” [4].

Badiiy asarni rivojlantiruvchi mezonlar. Badiiy asar dinamikasini aynan qarama-qarshilik prinsipi belgilab beradi. Qarama-qarshilik bu – moddiy olamdagi barcha predmet va hodisalarning mavjud bo'lishi, rivojlanishi jarayonida o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan, birisiz ikkinchisi mavjud bo'la olmaydigan ziddiyatli tomonlar birligini ifodalovchi falsafiy tushuncha. Qarama-qarshilik san'atni harakatga keltiruvchi va rivojlantiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi va quyidagilarda o'z ifodasini topadi; badiiy asarning ichki strukturasida, aqliy va ruhiy-hissiy jihatlarida, san'at turlarining spesifikatsida va h.k.

Badiiy asar strukturasida qarama-qarshilikni ifodalovchi terminlar mavjud bo'lib: kolliziya (to'qnashuv) – san'at asarida (adabiyotda, teatrdagi) xarakterlar va vaziyatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va

to'qnashuvlar; kontrast (fr. contraste) – asarning badiiy jozibasini va ta'sirchanligini oshirish maqsadida, keskin ravishda ifodalangan qarama-qarshilikdan iborat san'at namunasi.

Ijodkor va badiiy asarning ratsional va ruhiy-hissiy jihatlaridagi qarama-qarshilik. Insonning real hayotdagi mavjud konfliktlarning bari san'at asarida ham badiiy aks etadi. Ular: xarakterlararo konflikt; qahramon va muhit; ichki-psixologik konflikt va h.k. [5]. Badiiy asarning dinamikasida drammatizm ham muhim o'rin egallaydi. Drammatizm – badiiylik modusi. Kulminatsiya bu – badiiy asardagi qarama-qarshilikning rivojlanishida hissiyotlarning apafeozidir. Arastuning san'at vositasida forig'lanishi ham aynan shu damda yuz beradi [6].

San'at turlarining o'ziga xos jihatlaridagi qarama-qarshilik.

Ranglar qarama-qarshiligi (kontrast ranglar) – rang-tasvir suvratlarda ishlatiladigan ranglarning bir-birlariga teskari turlari bor. Ular och va to'q, iliq va sovuq, yorqin va xira ranglardir.

Musiqaning nomuvofiq tarzda, g'ayritabiiy ravishda yangrashi (dissonans) va tovushlarning o'zaro hamohang tarzda, o'zaro muvofiq ravishda yangrashi (kossanans) deyiladi. Qadim zamonlardan kossanans koinot, insonning ruhiy dunyosining uyg'unligi ramzi sifatida qabul qilingan [7].

Me'morlik san'atida muqobila (qarama-qarshi zid o'zaro monand) ikki binoning qarama-qarshi qo'sh uslubda joylashuviga aytiladi.

Teatr san'atida Esxil o'z tragediyalariga ikkinchi aktyorni olib kirdi va shu bilan fojiaiy to'qnashuvlarni ancha teran ishlash va



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

hatti-harakat jihatlarini kuchaytirishga erishdi. Satira esa, hayotdagi salbiy hodisalarni, kamchilik va nuqsonlarni qattiq masxaralaydigan, qoralaydigan o'tkir hajviy asardir.

Eng muhimi ana shu kontrastlar va qarama-qarshiliklar asosida vujudga kelgan estetikaning bosh mag'zi bo'lgan go'zallik yanada go'zallashadi va Evdemokl ta'kidlagan eng asosiy estetik tushunchalaridan biri “garmoniya” vujudga keladi. Garmoniya o'zida har bir unurning mohiyatidan kelib chiquv-chi tafovutlar nisbatini namoyon qiladi. So'nggi yaxlitlik oddiy bir-birini to'ldirishdan, aloqa va kelishilganlikdan iborat bo'lmay, balki haqiqiy ziddiyatlardan kelib chiqqan bo'lishi lozim va faqat shuning sharofati bilan, ideal holdagi jonli yaxlitlik vujudga keladi. Garmoniya, ritm kabi san'atning qurilmaviy komponentlari, asardagi go'zallik va nafosatni belgilab beradi. V.Shestakov, garmoniyaning estetikaning mezoniy tushunchalariga-kategoriyalarga qo'shgan. Demak, har qanday go'zallik asosida esa, uyg'unlik, ya'ni garmoniya yotadi. Garmoniya falsafada – o'xshash bo'lmagan va hatto qarama-qarshi elementlarning muvofiqlashtirilishidir. Estetika va badiiy ijodda – shaklning barcha qismlari va elementlarining yaxlitligi, izchilligi, tabiiy bog'lanishini anglatuvchi kategoriyadir. San'at turlaridagi garmoniyaga to'xtalsak.

Me'morlikda garmoniya, binoning atrof manzarasiga masshtab bo'yicha mosligini, kompozitsion rejaning barqarorligi va birligini, ayrim bo'limlarning bir-biriga muvofiqligini bildiradi va u ansambl bilan ham bog'liqdir. Ansambl – (*frans.* ensemble –

birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik) – arxitekturada – bir xildagi arxitektura kompozitsiyasini tashkil etuvchi imoratlar yig'indisi [8].

Musulmon Sharq musiqasi nazariyasida ham, yo'qimli, hamohang tovushlar va intervallar muloyimat (*arab.* mutanosiblik, hamohanglik) uning aksi esa, munofirat iborasi bilan nomlangan.

Tasviriy san'atda ham ranglar garmoniyasi mavjud bo'lib, ranggasvirda ishlatilgan turli ranglar bir-biri bilan uzviy bog'lansa, hamohang bo'lsa, ular ranglar garmoniyasini tashkil etadi. Aksincha, ranglar bir-birlarini inkor etsa, bir-birlari bilan bog'lanmasa, disgarmoniyaning keltirib chiqaradi. Shuningdek, garmoniya simmetriya mutanosiblik proporsiya, ansambl va arxitektonika tushunchalarini birlashtirib estetiklik kasb etadi.

Ritm ham miqdor bilan uzviy bog'liqdir. Ritm – yunon tilidan olingan bo'lib, “oqaman” ma'nosini anglatadi. Ritm turlariga metr va o'lchovlar kiradi. Ritm tabiiy hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishidir. Ritm siklli va vaqtli bo'ladi. Pifagor asarlarida, evritmiya ta'limoti haqida gap boradi. Evritmiya deganda olim, insonning barcha hayotiy hodisalaridan, munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ham aniqlagan.

Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, birinchi yaratilgan musiqa ritmi “zarbi qadim” (“qadimiy zarb”) deb ataladi. Bu ritm go'yo inson tomirining urishidan olingan bo'lib, juda sodda “tan-tan” shaklida bo'lgan [9]. Musiqadagi ritmning nazariy va amaliy muammolarini musulmon Sharq olim-lari ilmi



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

iyqo (ritm) fanida o‘rganishgan. Ritm haqidagi tadqiqotlar Ibn Sino, Safiuddin al-Urmaviy, Jomiy, Zaynulobidin al-Husayniy, Kavkabi va boshqalarning asarlarida mavjud. Ritm tuzilmasini advor (doiralari) shaklida tahlil qilishgan [10].

She’riyatda Arastu, ritmli nutqni “ziynatli nutq” deb aytaydi. Poeziyaning ilk bosqichlarida mehnat qo‘shiqlari bevosita ritmik undovlarni o‘zida aks ettirgan. She’rda turoq, misra va bandlarning bir xil o‘lchov va miqdorda takrorlanishi, ritmni hosil qiladi. Ritm badiiy adabiyotda vazn hamda ilmi qofiya bilan hamohangdir va u qofiya va uning turlari, tuzilishi, uning badiiy san’atlar va vazn bilan munosabati, she’rning ohangdorligi kabi masalalarni tadqiq etadi.

Me’morchilikda ritm, elementlarning ichki qonuniyatlar asosida navbatma-navbat kelishidir. Ular orasidagi bo‘shliq ham bir hil bo‘lib, ritmik qatorni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Konstruksiyaning qo‘llanishi natijasida, uning plastikasi, ritmi, simmetrik muvozanati, moduli me’morchilikda estetik ruhiyatni paydo qiladi. Naqsh mujassamoti ham ritmga asoslangan hol-da yaratiladi: bir, yoki, bir necha naqsh bo‘laklarining takrorlanishi, yoki oralab kelishi natijasida, asarga tugallik yoki cheksizlik bag‘ishlanadi. Tasviriy san’atda ritm qurilishi simmetriyaning turli unsurlariga, shuningdek, bir xil yoki bir-biriga o‘xshash yaqin shakl va narsalar (chiziq, harakat, nursoya, bo‘yoq dog‘lari va h.k.) ning teng hajm va oraliqda tekis me’yorlar qaytarilishi, yoki, oralab kelishiga asoslanadi.

Badiiy asarning mantiqiy-shakliy mezonlari: kompozitsiya, janr va shakl. Kompozitsiya (lot. compositio – tuzish,

birlashtirish) – badiiy asar qismlarining muhim nisbati. Kompozitsiya tushunchasi san’atning barcha turlari uchun dolzarb. Arastu “Poetika”sidayoq unga asos solingan. Ma’lumki ko‘pgina san’at turlaridagi badiiy yaxlitlik asosan ibtido, markaz va intihodan, yoki boshqa ibora bilan aytilganda, tugun, kulminatsiya va yechimdan iboratdir. San’at turlari o‘z tasviriy-ifodali vositalari tizimiga ega. Adabiyotda so‘z, tasviriy san’atda rang, yorug‘lik, chiziq, nur, soya, musiqada ohang, ritm, haykaltaroshlikda hajm, o‘lcham, me’morchilikda mutanosiblik tizimi amal qiladi, ular asar kompozitsiyasida ham o‘ziga xos ravishda ifodalanadi. U ijodkordan avvalambor, mutanosiblik, nisbat hissini estetik anglash tuzilmasining unsurlarini (estetik ehtiyoj, estetik hissiyot, estetik tasavvur va h.k.) va, eng asosiysi, estetik me’yor hissini talab qiladi.

San’atkor g‘oyasidan, ijodiy niyatidan kelib chiqib bo‘lg‘usi asarning janri belgilanadi. Janrlarning yangilanib turishi san’at kuch-qudratining ramziy ifodasi, uning hayotiy va g‘oyaviy mazmundorligi garovidir. San’at turlarida janrlar sistemasi muttasil harakatda yashaydi: yangi janrlar vujudga keladi, takomillashadi, iste’moldan chiqadi; har bir alohida janrda ham doimiy sifat o‘zgarishlari kuzatiladi; badiiy ijod amaliyot janrning shakliy va mazmuniy xususiyatlariga muntazam o‘zgartirishlar kiritib boradi.

Xulosa. Yuqoridagi fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda, badiiy asar qurilmasida estetik me’yorlar va mezonlar paragdigmasi tahliliga xulosa qilamiz. Birinchidan, san’atning umunazariy masalalarida badiiy asar qurilmasining eng asosiy estetik mezonlari to‘rt guruhga bo‘linadi. 1. G‘oyaviy



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

mezonlar. 2. Rivojlantiruvchi mezonlar. 3. Miqdor mezonlari; 4. Mantiqiy-shakliy mezonlari. Ushbu mezonlar barcha san'at turlari va badiiy faoliyatlarda asosiy o'rin egallaydi. Ikkinchidan, qarama-qarshilik asosida garmoniya-uyg'unlik yaratadi. Uchinchidan, garmoniya va ritm insonga estetik zavq beradi va ular gedonizm, lazzatbaxshlik bilan bog'liqdir. To'rtinchidan,

uslub, g'oya, mavzu, badiiy asarning qanday bo'lishini ko'rsatib bersa, qarama-qarshilik, xarakterlar, dinamika uni rivojlantirsa, garmoniya va ritm unga sayqal berib, go'zallikka aylantiradi hamda, ularning barchasi ma'lum bir tartib va shakllar, kompozitsiya asosida yaxlitlikka badiylikka aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Field Michael, Martin Golubitsky. Symmetry in chaos: a search for pattern in mathematics, art, and nature // Society for Industrial and Applied Mathematics, 2009.

2. Alisher Navoiy. Xikmatlar. – Toshkent: Sharp, 2006.

3. Boyce Mary, ed. A History of Zoroastrianism: The early period. Vol. 1. Brill, 1989.

4. Waters Lindsay. Literary Aesthetics: the Very Idea. Chronicle of Higher Education, 2005. – № 52.

5. Schaper Eva. Aristotle's catharsis and aesthetic pleasure. The Philosophical Quarterly, 1950. – PP. 131-143.

6. Scruton Roger. The aesthetics of music. – Oxford University Press, 1997.

7. Hutcheson Francis, Peter Kivy. An inquiry concerning beauty, order, harmony, design. The Hague: Nijhoff, 1973.

8. Rajabov Ishoq. Maqomlar. – Toshkent: San'at nashriyoti, 2006.

9. Miller Paul D. Rhythm science. – MIT Press, 2004.

10. Kadirova D. Badiiy uslublarning estetik mohiyati // Falsafa va huquq, 2022. – Toshkent.

11. Kadirova D.S. Nafosat falsafasining mohiyati maqsadi va vazifalari // Namangan Davlat Universiteti Axborotnomasi. – Namangan, 2022. – PP. 194-195.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

PSIXOLOGIYA

YOSHLARNI OTA-ONALIKKA TAYYORLASHDA SHARQ MAMLAKATLARI TAJRIBASI

Zarnigor XAYRULLAYEVA¹

¹International school of finance technology instituti mustaqil o'qituvchisi

KALIT SO'ZLAR
Ota-onalikka tayyorlash, konservativ jamiyat, jinsiy tarbiya, resurslar, qo'llab-quvvatlash dasturlari, tarbiyalash texnikasi, moliyaviy yordam, oilaviy hayotga tayyorlash.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Подготовка к родительству, консервативное общество, половое воспитание, ресурсы, программы поддержки, методы воспитания, финансовая помощь, подготовка к семейной жизни.
KEY WORDS
Preparation for parenthood, conservative society, sex education, resources, support programs, parenting methods, financial assistance, preparation for family life.

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada yoshlarni oila hamda ota-onalikka tayyorlashning psixologik omillari, xususiyatlari, Sharq mamlakatlari (Arab davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy)da yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, madaniy, ijtimoiy va shaxslararo tayyorgarlik xususiyatlari o'rganilgan. Yoshlarni ota-onalikka tayyorlashga yordam beradigan turli dastur va tashabbuslar O'zbekiston bilan qiyosiy tahlil qilingan.
АННОТАЦИЯ
В данной статье исследуются психологические факторы, особенности подготовки молодежи к семье и родительству, особенности подготовки молодежи к семейной жизни, культурное, социальное и межличностное обучение в восточных странах (Арабские государства, Япония, Южная Корея, Китай). Различные программы и инициативы, призванные помочь молодым людям стать родителями, были подвергнуты перекрестному анализу с Узбекистаном.
ABSTRACT
This article explores psychological factors, features of preparing young people for family and parenthood, features of preparing young people for family life, cultural, social and interpersonal training in Eastern countries (Arab States, Japan, South Korea, China). Various programs and initiatives to help prepare young people for parents have been cross-examined with Uzbekistan.

Kirish. Har qanday jamiyatda ham oila ijtimoiy taraqqiyot manbayi va axloqiy tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat ulug'lari oilani nafaqat jamiyat, balki davlatchilik asoslarining qurilishida ham ilk maktab deb bilganlar [1; 3].

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro

munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi

texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'yimoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti, bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdoshlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqlashlarning yuzaga kelishga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi [2; 4].

Oila katta bir qo'rg'on, avlodlarning boshlanish, jamiyat davomchisi demakdir. Shu jihatdan ota-onaga yuklanayotgan vazifa ko'lamida juda keng. Yurtimizda yoshlarni oilaga tayyorlash bo'yicha qator islohotlar o'tkazilmoqda. Ammo oilani ota-onalikka tayyorlash alohida bir mavzudir. Otalik yoki onalik insonga katta mas'uliyat, o'ziga bo'lgan ishonch, sherigini tushunish va uni his qilish, tug'ilajak bola uchun namuna bo'lish va yana qator vazifalarni yuklaydi.

S.V.Kovalevning ta'kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga xos to'g'ri tasavvurlar yetarli emasligi sababli turmush qurganlarida oila-nikoh munosabatlaridan qoniqmaslik holatlari ko'p uchraydi. Shuning uchun yoshlar o'sib ulg'ayadigan va o'qish joylarida ularni oilaviy hayotga, turmushga tayyorlash, ularda baxtli oila va farovon turmushni ta'minlaydigan zarur sifat va fazilatlarni shakllantirish, ularni

bo'lg'usi oila to'g'risidagi romantik, shirin xayollardan, har xil chalg'ishlardan qutqarish bilan bog'liq tarbiyaviy shart-sharoitlarni yaratish to'g'risidagi qimmatli maslahatlarni ilgari suradi.

Oilaviy munosabatlar barqaror bo'ladi, qachonki:

1. Maqsad, bolalar tarbiyasi bilan bog'langan bo'lsa;
2. Maqsad, er-xotinning shaxs sifatida yanada rivojlanib borishini asoslasi;
3. Maqsad, oila uchun zaruriy narsalarni, uyni shinam va orastaligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa.

Ko'rinib turibdiki, oila barqarorligi-oila a'zolarining o'zaro hurmatga, sevgi-muhabbatga, javobgarlik-burch hissiga va er-xotinning psixologik va jinsiy o'zaro mosligiga asoslangan juda murakkab, ko'p qirrali va ko'p darajali munosabatlari natijasidan iboratdir. Oilada shaxslararo munosabatlar madaniyatining shakllanganligi oila a'zolarining jamiyatda o'z o'rnini, qadrini topishga o'z istak va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa yoki shakllanmasa. Unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo'qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo'ladi. Oila a'zolari jamiyatda ham o'z o'rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi shuki, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tarixi

Oilani ijtimoiy institut sifatida idrok etish va uni ilmiy jihatdan o'rganish an'analari tarixi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrdan boshlab jahonning turli burchaklaridagi taniqli sotsiologlar va



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

antropologlar (L.Morgan, M.Kovalevskiy, B.Malinovkiy, P.Sorokin, keyinchalik A.Xarchev, S.Golod va boshqalar) oila muammolarini o‘zlarining aniq tadqiqot mavzulari sifatida o‘rgana boshladilar. Rus olimi A.G. Xarchevning kitoblarida bu ikki tushunchani (nikoh va oila) farqlovchi jihatlar aniq belgilangan. Xususan, uning talqinida “nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi tarixan o‘zgaruvchan o‘zaro munosabatlarni bildirib, shu orqali jamiyat ularning jinsiy hayotlarini tartibga soladi, o‘zaro er-xotinlik munosabatlarini hamda farzandlari bilan shakllanadigan munosabatlarni, bu boradagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi, yo‘naltiradi” [3]. Oila esa nikohga nisbatan murakkabroq tabiatli munosabatlarni ifodalaydi, chunki u nafaqat er va xotinlarning o‘zaro munosabatlarini, balki ularning farzandlari, qarindosh-urug‘lar, ikkalalari uchun yaqin bo‘lgan insonlar munosabatlarini ham qamrab oladi.

Oilani turlarga bo‘lganda, turli olimlar turlicha yondashdilar. Masalan, sanktpeterburglik olim S.I. Golod (1998) faqat er va xotin hamda ularning farzandlaridan iborat 15 ta oilani tasavvur etgan holda ularning oila davrasidagi ijtimoiy nufuzlari va rollari nuqtayi nazaridan oilani toifalarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi. Xususan, u monogam oiladagi munosabatlarni oilaviy tabaqalar nuqtayi nazaridan farqlashni taklif etgan. Undan tashqari, Golod o‘z kitobida oxirgi yillarda Rossiyada keng tarqab borayotgan o‘ziga xos tabaqali oilalarga ham ilmiy jamoatchilikning diqqatini qaratadi [4; 66].

Oila va undagi tarbiyaning usul, vosita va omillari ko‘proq yozma pandnomalarda,

Kaykovusning “Qobusnoma”, “Saodatnoma”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si, “To‘ti shohnoma”, “Odobnoma” kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Mutafakkir va ma’rifatparvarlarning ijodiy faoliyatida oila muammosi asosiy o‘rinni egallagan.

Davoniyning fikricha: “Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo‘lgan hulqodob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, yeyish-ichish, o‘z qilmishi uchun mas’uliyatni sezish, shirinsuxan bo‘lish, yaxshilik, ezgulik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim”. Rudakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotida ota-onaning burchi haqida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Aksariyat odamlar, hatto ma’rifatli zotlar ham farzandlari tarbiyasiga e’tiborsizlik bilan qarab, donishmandning bolasi johil bo‘lib qolayotganligidan afsuslanadi. Buning uchun oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat bo‘lgandagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Inson tug‘ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtojdir. Uning ilk tarbiyachilari, albatta, ota-onasidir.

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul maoliy Kaykovusning “Qobusnoma”sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o‘rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. “Qobusnoma” falsafiy-didaktik asar bo‘lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o‘z ichiga oladi. Uning “Farzand parvarish qilmoq zikrida” degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag‘ishlanadi. “Qobusnoma”da ota-onaning



qator vazifalari sanab o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bolaga yaxshi ism qo'yish;
2. Oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. To'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
4. O'qish-yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmiy qilish;
5. Harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. “Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahrining kelsa, o'z qo'ling bilan urmagan, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgan. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin”. Kaykovusning “Qobusnoma” asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda [5; 14].

Tadqiqot metodologiyasi

Sharqiy mamlakatlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, madaniy, ijtimoiy va shaxslararo tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Bu mamlakatlarda diqqat qilish kerak bo'lgan ba'zi asosiy jihatlar quyidagilar:

Sharqiy mamlakatlarda oilaviy hayotga oid an'analar, qadriyatlar va umidlar muhim hisoblanadi. Farzandlik taqvisi, oqsoqollarni hurmat qilish va oilani qo'llab-quvvatlash kabi tushunchalar e'zozlanadi va qattiq amal qilinadi.

Sharqiy oilalardagi o'zaro munosabatlarda hurmat, qo'llab-quvvatlash va muloqot muhim hisoblanadi. Asosiy

moliyaviy savodxonlik o'rgatiladi va moliyaviy mustaqillikning muhimligi va oila tarkibidagi pulni mas'uliyatli boshqarish bolaga yoshligidan ongiga singdiriladi. Oilada ularning sharoitlariga mos ravishda tejash, byudjetlashtirish va investitsiya strategiyalari muhokama qilinadi va oilaviy moliyaviy majburiyatlar ko'rib chiqiladi.

Sharq oilaviy madaniyati uyg'unlikni saqlashga va qarama-qarshiliklardan qochishga qattiq ishonishi mumkinligi sababli nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Sharqiy oilaviy hayotda tajribaga ega bo'lgan murabbiylar, do'stlar va jamoat a'zolarini qo'llab-quvvatlash tarmog'i yaratilgan bo'lib yo'l-yo'riq va tegishlilik hissini taklif qilish uchun mahalliy qo'llab-quvvatlash tizimlari, madaniy tashkilotlar va jamoat guruhlari bilan aloqalar tashkil etilgan.

Sharqiy mamlakatlarda oilaviy hayotni boshqarishda yoshlarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan madaniy muammolar bilan tanishtiriladi va tayyorlanadi. Madaniy tajribalar Sharq mamlakatlarda xilma-xil bo'lishi mumkin va har bir oilaning o'ziga xos dinamikasi mavjud. Sharqiy mamlakatlarda muvaffaqiyatli oilaviy hayot uchun zarur bo'lgan boy xilma-xillik va moslashuvchanlik qadrlanadi va yoshlarni ochiq fikr bilan shug'ullanishga undaladi.

Arab davlatlarining yoshlarni ota-onaga tayyorlash tajribasi mintaqada turlicha. Ba'zi mamlakatlar yoshlarga ta'lim berish va qo'llab-quvvatlash uchun muhim qadamlar qo'ygan bo'lsa, boshqalari hali ham bu sohada qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Qatar kabi ba'zi mamlakatlarda har tomonlama



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

jinsiy tarbiya berish va mas’uliyatli tarbiyani rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Ushbu mamlakatlarda yoshlarga reproduktiv salomatlik, oilani rejalashtirish va ota-onaning vazifalari to’g’risida ma’lumot berish dasturlari tashkil etilgan. Masalan, BAAda Sog’liqni saqlash va profilaktika vazirligi maktablar va universitetlarda har tomonlama jinsiy ta’lim berish uchun “Sog’liqni saqlash bo’yicha ta’lim va targ’ibot dasturi”ni boshladi.

Tunis va Marokash kabi boshqa Arab davlatlari ham reproduktiv salomatlik bo’yicha ta’lim va xizmatlarni yaxshilashga harakat qilishdi. Ushbu mamlakatlar maktabga asoslangan dasturlarni amalga oshirdilar va kontratsepsiya va jinsiy sog’liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdilar. Tunis, xususan, reproduktiv salomatlik ta’limiga, jumladan, jinsiy va reproduktiv salomatlik ta’limini maktab o’quv dasturiga integratsiyalashuviga ilg’or yondashuvi uchun maqtovg’a sazovor bo’ldi [5].

Biroq, ko’plab Arab davlatlarida, ayniqsa ko’proq konservativ jamiyatlarda muammolar hali ham mavjud. Jinsiy salomatlik va ko’payish bilan bog’liq an’anaviy madaniy me’yorlar va tabular yoshlarga har tomonlama ta’lim berish va qo’llab-quvvatlashni qiyinlashtirishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarda reproduktiv salomatlik bo’yicha samarali ta’lim va xizmatlarni yoshlarga yetkazish uchun tegishli infratuzilma, resurslar va o’qitilgan mutaxassislar yetishmasligi mumkin. Bundan tashqari, bolalar nikohi va erta homiladorlik kabi masalalar mintaqaning ayrim qismlarida keng tarqalgan. Ushbu masalalar to’g’risida xabardorlikni oshirish va

ularga qarshi kurashishga qaratilgan sa’y-harakatlarga qaramay, madaniy va ijtimoiy omillar ularni samarali hal etishda taraqqiyotga to’sqinlik qilishi mumkin.

Umuman olganda, ba’zi Arab davlatlari har tomonlama jinsiy tarbiya va qo’llab-quvvatlash dasturlari orqali yoshlarni ota-onalikka tayyorlashda sezilarli yutuqlarga erishgan bo’lsalar-da, barcha yoshlar ota-onalar to’g’risida qarorlar qabul qilish uchun zarur ma’lumot va manbalarga ega bo’lishlarini ta’minlashda hal qilinishi kerak bo’lgan muammolar mavjud.

Yaponiyada oilalarni ota-onaga tayyorlashga yordam beradigan bir nechta dastur va manbalar mavjud. Ushbu dasturlar ko’pincha homiladorlik haqida ma’lumot berish haqida o’ylash, tug’ish va ota-ona, shuningdek, kutgan va yangi ota-onalar uchun qo’llab-quvvatlash va yo’l-yo’riq taklif sifatida.

Yaponiyada ota-onalarni kutish uchun umumiy manbalardan biri bu prenatal darslar bo’lib, bu juftliklarga tug’ish va tarbiyalashga tayyorgarlik ko’rishga yordam beradi. Ushbu darslar odatda prenatal salomatlik, tug’ish bo’yicha ta’lim, chaqaloqni parvarish qilish va emizish kabi mavzularni qamrab oladi. Yaponiyadagi ko’plab kasalxonalar va sog’liqni saqlash markazlari ushbu darslarni taklif qilishadi, ba’zilari hatto hukumat tomonidan subsidiyalanadi.

Prenatal darslardan tashqari, yangi ota-onalarga bolani tarbiyalash muammolarini hal qilishda yordam beradigan bir qator manbalar ham mavjud. Ota-onalar uchun jurnallar, veb-saytlar va kitoblar Yaponiyada keng tarqalgan bo’lib, bolalarning rivojlanishi, ovqatlanishi va

intizomi kabi mavzular bo'yicha ma'lumot va maslahatlar beradi.

Shuningdek, ota-onalarga bir-biri bilan bog'lanish va tajriba almashish uchun joy ajratadigan qo'llab-quvvatlash guruhleri va jamoat dasturlari mavjud. Bu guruhlar, ayniqsa, ota-onalik talablaridan o'zini yolg'iz yoki g'amgin his qilishi mumkin bo'lgan yangi ota-onalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, Yaponiyada oilalarni ota-onalikka tayyorlash ta'lim, qo'llab-quvvatlash va jamoat resurslarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Kutayotgan va yangi ota-onalarga bolani tarbiyalash muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim va vositalarni taqdim etish orqali Yaponiya oilalarning gullab-yashnashi va ota-ona safarida muvaffaqiyat qozonishi uchun yaxshiroq jihozlanishiga yordam beradi.

Yaponiyada oilalarni ota-onaga tayyorlash ota-onalar va bolalarning farovonligini ta'minlashga yordam beradigan an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy amaliyotlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Bu yerda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy jihatlar:

1. Antenatal ta'lim: Yaponiyada antenatal ta'limga kuchli e'tibor beriladi. Psixologik hamda jismoniy jihatdan ota-ona bo'lishning ijtimoiy jihatleri o'rgatiladi. Bo'lajak ota-onalarga ushbu dastur tug'ruqdan oldingi parvarish qilish, tug'ilishga tayyorgarlik, emizish va tug'ruqdan keyingi tiklanish kabi mavzularni qamrab oladi.

2. Qo'llab-quvvatlash tarmoqlari: Yaponiyada bo'lajak ota-onalar uchun qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratish juda muhimdir. Bunga homiladorlik paytida ham, bola tug'ilgandan keyin ham yordam

beradigan oila, do'stlar va jamoat resurslari kiradi. Ko'pgina juftliklar ota-onalar guruhlariga qo'shilishadi yoki boshqa yangi ota-onalar bilan bog'lanish uchun seminarlarda qatnashadilar.

3. Ota-ona ta'tillari siyosati: Yaponiyada ishlaydigan ota-onalarni qo'llab-quvvatlash uchun saxiy ota-ona ta'tillari siyosati mavjud. Onalar tug'ruqdan oldin va keyin dam olish huquqiga ega, otalar esa farzandi bilan bog'lanish uchun otalik ta'tilini olishga da'vat etiladi. Ish beruvchilar ushbu siyosatni qo'llab-quvvatlashlari shart, garchi ba'zi ota-bobolarni ta'til imtiyozlaridan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiladigan madaniy to'siqlar hali ham mavjud.

4. Bolalarni parvarish qilish imkoniyatlari: bolalarni sifatli parvarish qilish Yaponiyadagi ko'plab ota-onalar uchun, ayniqsa, talab taklifdan yuqori bo'lgan shaharlarda muhim tashvish tug'diradi. Ko'p oilalar, bolalar bog'chalari yasli markazlari tayanishadi. Hukumat bolalar bog'chalarini kengaytirish va ularni ushbu muammoni hal qilish uchun yanada qulayroq qilish ustida ishlamoqda.

5. Ota-onalar darslari: antenatal ta'limdan tashqari, Yaponiyada bolalarni rivojlantirish, intizom va ovqatlanish kabi mavzular bo'yicha ko'rsatmalar berish uchun ota-onalar darslari mavjud. Ushbu darslar ota-onalarga o'z rollarida o'zlarini ishonchli his qilishlariga yordam beradi va bugungi jamiyatda bolalarni tarbiyalash muammolarini hal qilish uchun yaxshi jihozlangan [6; 35].

Janubiy Koreya yoshlarni ota-onaga tayyorlashga yordam beradigan turli dastur va tashabbuslarni amalga oshirdi. O'quvchilarga reproduktiv salomatlik, kontratsepsiya va



oilani rejalashtirish bo'yicha ta'lim berish uchun maktablarda har tomonlama jinsiy ta'lim berishga asosiy e'tibor qaratildi. Bunga munosabatlar va ota-onalarning jismoniy, hissiy va ijtimoiy jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi.

Bundan tashqari, Koreya hukumati oila va ota-ona ko'nikmalarining ahamiyatini targ'ib qilish bo'yicha kompaniyalarni boshladi. Ushbu kompaniyalar ota-onaning muammolari va vazifalari to'g'risida xabardorlikni oshirishga va yoshlarga bolalarni tarbiyalash texnikasi, tug'ruqdan oldin parvarish qilish va erta bolalikni rivojlantirish to'g'risida ma'lumot olish uchun resurslar berishga qaratilgan. Kelajakdagi ota-onalar va yosh oilalar uchun ota-onalar darslari, maslahat xizmatlari va moliyaviy yordam kabi qo'llab-quvvatlash dasturlari mavjud. Ushbu dasturlar yoshlarni o'ziga ishongan va qobiliyatli ota-onalar bo'lislari uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratilgan.

Umuman olganda, Janubiy Koreya yoshlarni ota-onalik vazifalarini boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va yordam bilan jihozlashga harakat qildi. Mamlakat xabardorlik, ta'lim va ijtimoiy yordamni targ'ib qilish orqali kelajak avlodlarni oilani tarbiyalash muammolari va quvonchlariga tayyorlashga yordam berishni maqsad qilgan.

Xitoy yoshlarni ota-onalikka tayyorlash bo'yicha turli tashabbuslarni amalga oshirdi. Asosiy jihatlardan biri bu ta'lim dasturlari, shu jumladan maktabga asoslangan kurslar, jamoat seminarlari va onlayn manbalar. Ushbu dasturlar homiladorlik, tug'ish, bola rivojlanishi, ota-ona ko'nikmalari va oilani rejalashtirish haqida ma'lumot berishga qaratilgan.

Xitoyda er-xotinlarga ota-onalikning mas'uliyati va muammolarini tushunishga yordam berish uchun nikohdan oldin maslahat xizmatlari taklif etiladi. Ushbu xizmatlar moliyaviy rejalashtirish, muloqot qobiliyatlari, nizolarni hal qilish va birgalikda qaror qabul qilish bo'yicha munozaralarni o'z ichiga olishi mumkin.

Bundan tashqari, Xitoy hukumati onalik va otalik ta'tillari, bolalarni parvarish qilish uchun subsidiyalari va ota-onalar uchun soliq imtiyozlari kabi oilaviy siyosatni targ'ib qildi. Ushbu tashabbuslar yosh oilalar uchun qulay muhit yaratishga va bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ba'zi moliyaviy yuklarni yengillashtirishga qaratilgan [7].

Umuman olganda, Xitoyning yoshlarni ota-onaga tayyorlashga yondashuvi ta'lim, maslahat va qo'llab-quvvatlovchi siyosatning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Resurslar va qo'llab-quvvatlash orqali maqsad er-xotinlarga ongli qarorlar qabul qilishda yordam berish, ota-onalar ko'nikmalarini rivojlantirish va farzandlari uchun tarbiya muhitini yaratishdir.

O'zbekistonda turli ta'lim va ijtimoiy dasturlar orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha mustahkam an'analar mavjud. So'nggi yillarda hukumat oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish, oilaviy aloqalarni mustahkamlash va yosh juftliklarning oila qurishini qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratdi.

O'zbekistonda asosiy tashabbuslardan biri bu yoshlar va oilalarga bir qator xizmatlarni, jumladan, maslahatlar, munosabatlar va ota-onalar bo'yicha seminarlar va yosh juftliklarga moddiy yordam ko'rsatishni taklif qiluvchi oilaviy markazlarni tashkil etishdir. Ushbu markazlar, shuningdek, oilaviy birdamlikni



targʻib qilish va yoshlar uchun qulay muhit yaratish boʻyicha tadbirlar va tadbirlarni tashkil etadi.

Bundan tashqari, Oʻzbekistondagi maktablar oilaviy taʼlimni oʻz oʻquv dasturlariga kiritadilar, oʻquvchilarga munosabatlar, ota-onalar va uy xoʻjaligini boshqarish haqida maʼlumot beradilar. Shuningdek, oilaviy qadriyatlar va urf-odatlarining ahamiyati, shuningdek, oila aʼzolarining huquq va majburiyatlari toʻgʻrisida xabardorlikni oshirishga qaratilgan dasturlar mavjud.

Hukumat yosh oilalarni qoʻllab-quvvatlash siyosatini joriy etdi, masalan, er-xotinlarning farzand koʻrishini moddiy ragʻbatlantirish, uy-joy uchun kreditlar va grantlar berish va oilaviy doʻstona ish joyi siyosatini amalga oshirish. Ushbu tashabbuslar yosh oilalarga moliyaviy yukni kamaytirish va ularni oila qurishga undashga qaratilgan.

Xulosa va takliflar

Yoshlarni oilaga tayyorlash, ular sogʻlom munosabatlarni oʻrnatish, nizolarni boshqarish va oila birligidagi rol va majburiyatlarini bajarish uchun zarur koʻnikma va bilimlarga ega boʻlishlarini taʼminlash uchun muhimdir. Yoshlarni oilaga tayyorlash muhimligining asosiy sabablari:

1. Mustahkam poydevor yaratish: yoshlarni oilaviy qadriyatlar, muloqot va oʻzaro hurmatning ahamiyati toʻgʻrisida tarbiyalash ularga kelajakdagi munosabatlar uchun mustahkam poydevor yaratishga yordam beradi. Yoshlar oilaviy rishtalarning ahamiyatini tushunganlarida, ular oʻsib ulgʻaygan sayin oilaviy munosabatlarga ustuvor ahamiyat berishadi.

2. Oiladagi buzilishlarning oldini olish: yoshlarga samarali muloqot, muammolarni hal qilish va nizolarni hal qilish koʻnikmalarini oʻrgatish orqali biz oilalar ichidagi buzilishlarning oldini olishga yordam beramiz. Shaxslar ushbu koʻnikmalar bilan jihozlanganda, ular oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga yaxshiroq tayyorlanadilar.

3. Hissiy farovonlikni oshirish: oila shaxsning hissiy farovonligini shakllantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Yoshlarni oilaga tayyorlash orqali biz ularga sogʻlom munosabatlarni saqlash uchun zarur boʻlgan hissiy chidamlilik, hamdardlik va hamdardlikni rivojlantirishga yordam bera olamiz.

4. Ota-ona koʻnikmalarini oʻrgatish: oʻz farzandiga ega boʻlishni tanlaganlar uchun yoshlarni oilaga tayyorlash ularga ota-onalarning muhim koʻnikmalarini oʻrgatishni oʻz ichiga oladi. Bolaning rivojlanishini, samarali intizom strategiyasini va tarbiya muhitini taʼminlashning muhimligini tushunish baxtli va barkamol bolalarni tarbiyalash uchun juda muhimdir.

5. Madaniy va ijtimoiy normalar: oilaviy hayot bilan bogʻliq madaniy va ijtimoiy meʼyorlarni oʻrganish yoshlar uchun oʻz jamoalari ichidagi munosabatlarni boshqarish uchun muhimdir. Ushbu meʼyorlarni tushunish odamlarga xilma-xillikni hurmat qilish, turli xil oilaviy tuzilmalarni qadrlash va oʻzgaruvchan ijtimoiy kutishlarga moslashishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston oilaviy qadriyatlarni targʻib qilish, qoʻllab-quvvatlash xizmatlarini koʻrsatish va oilani shakllantirishga koʻmaklashish siyosatini



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

amalga oshirish orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ularni ota-onalikka tayyorlash bilan alohida alohida mavzu hisoblanadi. Farzand tarbiyasi uning jismoniy hamda psixologik jihatdan sog'lom, jamiyatga

foydali shaxs bo'lishi uchun, albatta ota-onalar har jihatdan bunga tayyor bo'lishi lozim. Oilalarni ota-ona bo'lishga tayyorlash va sog'lom muhitni tashkil etish uchun mukammal ishlangan maxsus dastur ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. Akramova F.A. G'.B.Shoumarov tahriri ostida oila psixologiyasi. – Toshkent, 2011.
3. Haydarova S. Oila psixologiyasi fanidan ma'ruza matni. – Guliston, 2016.
4. Харчев А.Г. Брак и семья в СССР. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: 1979.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun darslik, 2007.

6. Ishanova M. Oila pedagogikasi (o'quv qo'llanma). – Andijon, 2019.
7. Arab oila: arab Madaniyati oila – Arab davlatlarining advokatlari. Arab advokatlari onlayn. (almuhamin.online)
8. Yaponiyada bolani tarbiyalash: xususiyatlar, hozirgi usullar va an'analar. – Uy va oila 2024 (modern-info.com)
9. Xitoycha tarbiya: ota-onalar farzandlarining ta'lim-tarbiyasi ustida qanday ishlaydi? – Daryo yangiliklari



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

YOSHLAR SIYOSATIGA DOIR QONUNCHILIK IJROSINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Ilhom KARIMOV¹

¹International school of Finance and Technology instituti o'qituvchisi

KALIT SO'ZLAR	ANNOTATSIYA
Yoshlar, yoshlar siyosati, yoshlarga oid davlat siyosati, qonunchilik, davlat, yoshlar muammolari.	Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonunchilik ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatning eng katta ijtimoiy-demografik qatlami bo'lgan yoshlar orasidagi muammolar tahlil qilingan. Yoshlar orasidagi muammolarni bartaraf etish hamda yoshlar siyosatiga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan tegishli takliflar berilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Молодежь, молодежная политика, государственная политика в отношении молодежи, законодательство, государство, молодежные проблемы.	В данной статье анализируется реализация законодательства в сфере молодежной политики в Узбекистане, а также проблемы среди молодежи, крупнейшего социально-демографического слоя страны. Соответствующие предложения были высказаны по устранению проблем среди молодежи и реализации законодательства о молодежной политике.
KEY WORDS	ABSTRACT
Youth, youth policy, state policy of youth, legislation, state, youth problems.	This article analyzes the implementation of legislation in the field of youth policy in Uzbekistan, as well as problems among young people, the largest socio-demographic stratum of the country. Relevant proposals were made to eliminate problems among young people and implement legislation on youth policy.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda davlat hokimiyati organlarining yoshlar muhiti vakillariga, ularning ijtimoiylashuvi jarayoniga bo'lgan e'tibori tobora ortib bormoqda. Bir qator ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar jamiyat va yoshlar tuzilishini unda sodir bo'layotgan jarayonlarning ajralmas mavzusi sifatida tadqiq etadilar.

Sotsiologiya, iqtisodiyot, yurisprudensiya, siyosatshunoslik, konfliktologiya va boshqa shu kabi fanlar bo'yicha olimlarning asarlarini tahlil qilish "Yoshlar" tushunchasiga to'liq ta'rif berish imkonini beradi.

"O'zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuniga

asosan, yoshlar o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslardir. Yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi [1], zamonaviy tushunchalarga ko'ra, yoshlar boshqa ijtimoiy-demografik guruhlardan ajratib turuvchi ma'lum bir o'zgaruvchi potensialni ko'taruvchidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Yoshlar siyosatining muhim jihatlarini tahlil etish, yoshlar siyosatini mamlakat taraqqiyotidagi roli va ahamiyatini keng yoritib berish masalalari Sh.Oripov, S.Jo‘rayev, M.Qirg‘izboyev, B.Jo‘rayev, A.Yunusov, N.Latipova, A.Abdullayev, L.Tangriyev, D.Bo‘ronova kabi olimlarning tadqiqotlari va ilmiy risolalarida o‘z aksini topgan. Yevropalik P.Uillis, L.Krisxolm, M.Benks, D.Katler, R.Makdonald, A.Furlong kabi olimlarning asosiy tadqiqotlari yoshlarga oid siyosatning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan. Shuningdek, G.Blakelining “Yoshlar siyosati” (Youth policy) [2], B.Kolesning “Yoshlar va ijtimoiy siyosat” (Youth and social policy) [3], N.M.Latipovaning “Yoshlar sotsiologiyasi” [4], R.Ubaydullayeva va A.Atamirzayevning “O‘zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa” [5] kabi asarlari, “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” [6] mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Sh.Oripovning “Yoshlar siyosati – barqaror taraqqiyot kafolati” [7] kitobi, BMTning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining “Yoshlar siyosatini shakllantirish bo‘yicha qo‘llanma” (Youth policy formulation manual) nomli risolasi [8; 13] yoshlar masalasi hamda davlatning yoshlarga oid siyosatiga doir ilmiy xulosalar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Davlatning yoshlarga oid siyosati va yoshlarga oid qonunchilikni amalga oshirish holati to‘g‘risida, shuningdek, unga nisbatan tashqi muhit to‘g‘risida operativ axborot olish fikr-mulohazalar axboroti deb ataladi. Yoshlar

ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari tizimning ham, uning alohida tarkibiy qismlarining ham hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari haqidagi fikr-mulohazalar doirasida to‘plangan ma‘lumotlarni olish imkonini beradi, buning asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlarini kuzatish imkoni ham mavjud. Boshqaruv tizimidagi fikr-mulohazalar ma‘lumotlarining sifatli va obyektiv elementi imperik tadqiqotlar jarayonida olingan sotsiologik ma‘lumotlar tashkil qiladi. Biroq, sotsiologik ma‘lumotlarni olish usullarining turlicha bo‘lishi yoshlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat organlarini boshqaruv faoliyatining bajarilish ko‘rsatkichlarini o‘lchashda to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin emas.

Muallif davlatning yoshlar siyosati sohasi misolidan foydalanib, davlat boshqaruvi jarayonida sotsiologik ma‘lumotlardan foydalanish zarurligi to‘g‘risida dalillarni amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari bo‘yicha keltiradi. Bu esa, muallifning fikriga ko‘ra, butun sohaning rivojlanishiga, uning alohida elementlariga, xususan, ma‘lum bir avlod yoshlari uchun ijtimoiy haqiqatni tahlil qilishga o‘z hissasini qo‘shadi. Yoshlarning ijtimoiy hayotidagi turli sohalaridagi holatini prognoz qilish imkonini beradi. Muallif yoshlarga oid qonunchilik amaliyotining samaradorligi va natijadorligini baholashning hozirgi amaliyotidagi yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun avvalo uni aniqlash va yoshlarning yangi ehtiyojlariga mos ravishda ayrim tuzatishlar kiritishni taklif etadi. Shuningdek, muallif yoshlar siyosati sohasida samarali tizimni barpo etishga hissa qo‘shayotgan yoshlar siyosati bo‘yicha mutaxassislarning hududiy boshqaruv



faoliyatini sotsiologik qo'llab-quvvatlash istiqbollari bo'yicha o'z takliflarini beradi.

2024-yil fevral-mart oylari davomida “Google forms” elektron platformasi orqali “Yoshlar va yoshlar siyosati” mavzusida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu anketa usulida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda Chilonzor 1-son kasb-hunar maktabining o'quvchilari, 30 yoshgacha bo'lgan o'qituvchi-pedagoglar, “International school of finance and technology” institutiining talaba-yoshlari, shuningdek, ko'ngilli yoshlar ishtirok etishgan.

Zamonaviy jamiyatning axborot muhiti yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida aholining eng sezgir guruhi sifatida shakllanishiga, ya'ni ijtimoiy normalar, qadriyatlar, xatti-harakatlarning shakllari va ularning assimiliyatsiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarning ijtimoiy rivojlanishi, ularning axborot madaniyati va axborotga bo'lgan ehtiyojlari ko'p jihatdan jamiyatning axborot maydonining mazmuni, yosh avlodga ijtimoiy qadriyatlarni tarqatish shakllari, davlat muassasalari (jumladan yoshlar siyosati institutlari) va yoshlar o'rtasidagi axborot o'zaro aloqasi yo'llari bilan belgilanadi. Yosh avlodning axborotga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi insonning axborotni idrok etish va qayta ishlashdagi cheklangan imkoniyatlari bilan ortiqcha axborotning mavjud kuchli oqimlari o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatda sodir bo'ladi, bu esa qimmatli axborotlarni topishni qiyinlashtiradi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan so'rovnomada jami ishtirok etgan

respondentlar soni 723 nafar bo'lib, shundan 44,5 % (322 nafar) 14-18 yosh, 27,4 % (198 nafar) 19-25 yosh, 22,3 % (161 nafar) 26-30 yosh hamda 5,8 % (42 nafar) 30 yoshdan kattalardir. Respondentlarning ma'lumoti darajasi bo'yicha tahlil qilinganda 34,7 % o'rta, 55 % o'rta-maxsus va 10,2 % oliy ma'lumotli ekanligi aniqlandi.


So'rovnoma ishtirokchilari “Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi va boshqa yoshlar tashkilotlari faoliyati bilan tanishmisiz?” degan savolga 58,9 % respondentlar “ha” javobini, 30,4 % respondentlar “yo'q” javobini belgilashgan, shuningdek, 10,7 % respondentlar javob berishga qiynalishlarini qayd etishgan.

So'rovnomada ishtirok etgan yoshlarning 45,4 % “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni haqida ma'lumotga ega ekanliklarini, 40,2 % bu haqida bilmasligini hamda 14,4 % javob berishga qiynalishini bildirgan.

Turli mahalliy yoshlar loyihalari va tadbirlarida yoshlar ishtiroki ko'rsatkichlari tahlili quyidagicha: 53,5 % – “ha”, 43,8 % – “yo'q” hamda 2,6 % – “javob berishga qiynalaman”.

Respondentlarga “Yoshlar uchun turli imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat dasturlari haqida bilasizmi?” degan savol bilan murojaat qilinganda 45,4 % “Men ular haqida bilaman”, 13,6 % “Men ularni bilaman va foydalanaman (foydalanganman)”, 17,6 % “Bilaman, lekin ulardan foydalanish qiyin yoki imkonsiz”, 23,5 % “Men ular haqida hech narsa bilmayman” – deb javob berishgan. (1-diagramma).

Yoshlar uchun turli imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat dasturlari haqida bilasizmi?



1-diagramma.

Yoshlardan ular orasida mavjud muammolar haqida soʻralganda quyidagi muammolar haqida fikrlar bildirilgan: bandlik muammolari, ishsizlik – 45,5 %, moliyaviy qiyinchiliklar (pul yetishmasligi, yuqori narxlar va boshqalar) – 32,5 %, taʼlim, oliy maʼlumot olishdagi qiyinchiliklar (yuqori narx va h.k.) – 22 %, madaniy savodxonlikning pastligi, yoshlar maʼnaviyatining buzilishi – 19,9 %, boʻsh vaqtning koʻpligi 18,3 %, giyohvandlik, kashandalik va alkogolizm – 13,6 %, ota-onalar/katta avlod bilan nizolar, qarindoshlar va doʻstlarning oʻzaro tushunmovchiliklari – 12,7 %, uy-joy muammosi – 11,9 %, kelajakka ishonch yoʻq – 10,8 %, voyaga yetmaganlar jinoyati – 10,4 %, shaxsiy hayotning buzilishi – 9,5 %, yoshlar

orasida ommaviy madaniyat, diniy ekstremizm va turli buzgʻunchi gʻoyalarning tarqalishi – 8,9 %, norozilik kayfiyatining mavjudligi – 8,7 %, javob berishga qiynalaman – 7,9 %, boshqa – 1,5 % (2-diagramma).

Yoshlar oʻz huquqlarini himoya qilishning quyidagi usullarini maqbul deb hisoblaydilar: 54,8 % tegishli davlat organlariga murojaat qilish, 13,4 % muzokaralar va oʻzaro maslahatlashuvlar oʻtkazish, 10,1 % sudga borish, 8,6 % javob berishga qiynalaman, 6,6 % men hech narsa qilmayman, 6,1 % jamoat tashkilotlariga murojaat qilish, 0,4 % boshqa.

Respondentlar hukumat yoshlar masalasida ustuvor vazifa sifatida quyidagilarni amalga oshirishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X


2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

2-diagramma

Sizningcha yoshlarning eng dolzarb muammolari nimalardan iborat?





www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

№	Vazifalar	% ko‘rsatkichi
1	Arzon va sifatli ta’limni ta’minlash	31,1
2	Yuqori mehnat sharoitlarini yaratish	10,8
3	Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy yordamni takomillashtirish	7,9
4	Arzon uy-joy tizimini rivojlantirish	4,7
5	Huquqiy madaniyatni oshirish	4,4
6	Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik, kashandalik, alkogolizmning oldini olish	5
7	Yoshlarning fuqarolik faolligini rag‘batlantirish	2,8
8	Yoshlarning ayrim (faqat ijtimoiy himoyaga muhtoj) toifalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlarni qabul qilish	2,9
9	Qonunchilik tizimini takomillashtirish	2,1
10	Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish	2,5
11	Yoshlarga oid loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun respublika va mahalliy budjetlardan moliyalashtirishni ko‘paytirish	7,5
12	Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish	7,7
13	Ijtimoiy xayriyani rivojlantirish (fondlar tomonidan yoshlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlash)	3,3
14	Javob berishga qiynalaman	6,8
15	Boshqa	0,5


So‘rovnoma ishtirok etgan respondentlardan yoshlarning bandligi masalalari bo‘yicha ham so‘ralgan bo‘lib, ularning fikr va mulohazalari o‘rganilgan. Xususan, respondentlardan davlat tuzilmalarining yoshlar bandligini ta’minlashga ko‘rsatayotgan yordami darajasini baholash so‘ralganda quyidagicha javoblar belgilangan: 23,9 – hamma narsada yordam beriladi, 43 % – qisman yordam beriladi, 22,7 % – faoliyat qoniqarsiz hamda 10,4 % – javob berishga qiynalaman ded javob

bergan. Shu bilan birga yoshlar ularning bandligini ta’minlashda nimalar to‘siq bo‘layotganligi haqida ham o‘z fikrlarini bildirgan. Ular quyidagilardan iborat: 22,4 % ish tajribasining yetishmasligi, 31,3 % kam ish haqi, 18,5 % poraxo‘rlik, korrupsiya holatlarining mavjudligi, 5,7 % olingan ta’limning ish joyining funksional talablariga mos kelmasligi, 2,9 % mehnat bozorida yosh mutaxassislarining past raqobatbardoshligi, 11,6 % ish o‘rinlarining yetishmasligini asosiy to‘siqlardan deb bilishsa, 2,9 % salomatlik

holati, 5,7 % respondentlar esa hech qanday to‘siq yo‘q deb hisoblashadi. Shuningdek, pensionerlarning ish joylarini band qilganligi, telefon o‘yinlari ham yoshlarning bandligini ta‘minlashdagi to‘siqlar sifatida respondentlar tomonidan e‘tirof etilgan.

Shuningdek, so‘rovnoma ishtirokchilaridan “Yoshlarning asosiy muammolarini hal etishda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam darajasini besh ballik tizimda baholash” bo‘yicha ham fikrlar olingan (3-diagramma).

3-diagramma.



Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida quyidagi fikr va mulohazalarni bildirish o‘rinli:

Yoshlarga oid davlat siyosati ijtimoiy hodisa sifatida davlat ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, qonunchilik nuqtayi nazaridan yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini

nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlarning turli toifa va guruhlariga mansubligidan kelib chiqib, ularning o‘ziga xos ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganish hamda shundan kelib chiqqan holda aniq yo‘nalish va mexanizmlarni tanlash imkonini beradi. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatiga doir qonunchilik ijrosini yanada aniqroq tahlil qilish uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Yoshlarga oid davlat siyosati o'ziga xos murakkab dinamik tizim bo'lib, unda tizimning har bir bo'g'ini faoliyati asosiy maqsadga – shaxsning erkin rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishga, jamiyat yosh a'zolarining individual moyilligi va qobiliyatlarini ochib berishga, shuningdek, yosh avlodni ijtimoiy ahamiyatga ega rollarni bajarishga tayyorlashi kerak. Yoshlarga oid siyosatning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini shakllantirish va amalga

oshirishda jamiyat taraqqiyoti hozirgi bosqichining barcha xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Yoshlarga oid davlat siyosatiga doir muammolarni bartaraf etishning muhim sharti ushbu faoliyatga yoshlar qatlamini keng jalb qilish hamda ularning siyosiy faolligini oshirishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, yoshlar siyosati sohasining ijtimoiy tarkibiy qismi bo'lgan barcha yosh toifalari va qatlamlarining fikrini inobatga olish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/3026246#3026283>
2. Blakely G. Youth policy. University of Bradford. – London; Routledge, 2005.
3. Coles. Youth and social policy: youth citizenship and young careers. – University of York, London. UCL Press. 1995.
4. Latipova N. Yoshlar sotsiologiyasi. – Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020.
5. Ubaydullayeva R., Atamirzayev A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2008.

6. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2019.

7. Oripov Sh. Yoshlar siyosati – barqaror taraqqiyot kafolati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. – B. 25-47.

8. United Nations. Economic and social commission for asia and the pacific. Youth policy formulation manual. – New York, 1999.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

TA'LIM VA O'QITISH METODIKASI

НЕКОТОРЫЕ ФУНКЦИИ И МЕТОДЫ КОНТРОЛЯ В УПРАВЛЕНИИ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ

Гулноз БАХОДИРОВА¹

¹Доктор философии по педагогическим наукам, доцент

KALIT SO'ZLAR	ANNOTATSIYA
Faoliyat, ta'lim sifati, monitoring, ta'lim sifatini boshqarish modellari va usullari, ko'nikmalar, ta'lim muassasasi, strategiya, funksiyalar.	Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish sust, chunki ta'limga bo'lgan yuqori ijtimoiy talab ko'plab ta'lim muassasalariga eski strategiyaga rioya qilishga imkon beradi va iqtisodiyot va jamiyatdagi o'zgarishlarga qaramay, ma'lum ta'lim natijalari bilan ular aholi talabiga e'tibor berishadi. Maqolada ta'lim tizimidagi zamonaviy muammolarning tavsifi berilgan. Ta'lim sifatini nazorat qilishning funksiyalari va usullari ko'rib chiqiladi, shuningdek, universitetlarda ta'lim sifatini monitoring qilish natijalarining qisqacha tahlili beriladi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Деятельность, качество образования, мониторинг, модели и методы управления качеством образования, навыки, образовательное учреждение, стратегия, функции.	Реформирование и модернизация системы образования в нашей стране идет медленно потому, что высокий общественный спрос на образование позволяет многим учебным заведениям придерживаться старой стратегии и, несмотря на изменения в экономике и обществе, при определенных результатах обучения по-прежнему ориентируются на спрос населения. В статье дается описание современных проблем в системе образования. Рассматриваются функции и методы контроля за качеством образования, а также дан краткий анализ результатов мониторинга качества образования в вузах проведенного нами онлайн-опросника.
KEY WORDS	ABSTRACT
Activities, educational institution, learning model, monitoring, models and methods for education quality management, strategy, skills, quality of education, functions.	Improving the quality of education is an urgently important, socially and economically significant problem. The reform and modernization of the education system in our country is going with minimal effort since the high public demand for education allows many educational institutions to adhere to the old strategy and despite changes in the economy and society, with certain learning outcomes, they continue to focus on the demand of the population. The article describes the current problems in the education system. The functions and methods of quality control of education are considered, as well as brief analysis of the results of monitoring the quality of education in universities conducted by us with the help of online questionnaire.

Введение. Качество образования – комплексная характеристика образовательной деятельности и подготовки обучающегося, выражающая степень их соответствия государственным образовательным стандартам,



государственным требованиям или потребностям физического или юридического лица.

Качество образования раскрывается в таких понятиях, как – качество преподавания, качество педагогических кадров, качество образовательных программ, качество материально-технической базы, информационно-образовательной среды, качество обучающихся, качество управления образованием и т.д. [6]

Исследовав и проанализировав эти понятия как критерии качества образования, мы выявили следующие имеющиеся проблемы в системе образования нашей страны:

- низкая цифровая грамотность и уровень квалификации профессорско-преподавательского состава и обучающихся;
- качество Интернета (скорость, не во всех ОУ имеется);
- состояние материально-технической базы образовательных учреждений;
- учебно-методическое обеспечение;
- психологическая и физиологическая нагрузка на обучающихся и т.д.

Все вышеперечисленные проблемы, с которыми нам предстоит работать, существенно сказываются на качестве образования.

Целью нашего исследования является найти ответы на поставленные вопросы, а также разработать выводы и предложения по повышению качества образования в нашей стране.

Методы. В нашем исследовании, нами применялись методы анализа, сравнения,

обобщения, интерпретации результатов научных исследований, представленных в работах исследователей.

Результаты одного из таких исследований было опубликовано сайтом журнала Seoworld, который опубликовал рейтинг лучших стран по уровню образования, который сравнивает качество дошкольного, школьного и высшего образования, а также возможности, которое даёт образование для международной карьеры.

Эксперты журнала собрали информацию для рейтинга из открытых источников Института статистики ЮНЕСКО, Программы развития Организации Объединенных Наций (ПРООН), Индекса уровня образования (Education Index) и из собственных исследований Seoworld Magazine. В последние годы рейтинг возглавляют такие страны как США, Великобритания, Китай, Япония, Германия [7] и другие страны. Инвестиции в образовательные системы, доступ к современным учебным ресурсам и государственная поддержка делают эти страны эталоном качества в сфере образования.

Образование, а особенно высшее, оказывает значительное влияние на карьерные перспективы и дальнейшую жизнь.

Вопрос высокого качества в образовании привлекает большое внимание и интерес не только со стороны делового сектора, но и значительный интерес к пониманию качества среди академических вузов и исследований внешних органов, таких как, аккредитационные

агентства. Причина такого интереса в росте глобализации и экономики, основанной на знаниях, где качественные выпускники проявляют свой вклад в ее развитие.

Обобщив анализ теоретической научной литературы, мы выделили некоторые показатели качества обучающегося: знания, полученные ранее по профильным для обучающегося учебным дисциплинам, цифровые знания (знание IT технологий), владение иностранными языками, желание учиться, интеллект, духовность, одаренность, память, дисциплинированность, настойчивость, работоспособность.

Исследование. Традиционный метод преподавания стал намного скучным, он не работает. Простой, обычной передачи знаний для школьников и студентов недостаточно, нужны, современные формы взаимодействия обучающего и обучаемого: например blended learning – смешанная модель обучения, где можно объединить несколько видов обучения (интернет, классно-урочная, компьютерная и т.д.).

Гаджеты изменили доступ к информации, ученик, студент сегодня не «сидит в классе», образование не должно ограничиваться в пределах аудитории или класса, используя современные технологии он может в одно и то же время, находится, где угодно и исследовать весь мир.

Возможности использования синхронных и асинхронных методов обучения, помогают обучающимся получить дополнительные учебные ресурсы, которые влияют на повышение качества образования.

Поскольку преподаватели сталкиваются с быстро меняющимися требованиями общества, им требуется все более широкий и сложный набор компетенций, чем раньше. В частности, повсеместность цифровых устройств и обязанность помогать студентам становиться цифровыми компетентными требуют от преподавателей развивать собственную цифровую компетентность.

Исследования выявили недостатки в отношении готовности учителей к преподаванию с использованием цифровых технологий [12].

Одним из способов выявления и определения компетенций, необходимых учителям для преподавания стала разработка различных рамок, например, комплексной DigCompEdu (Европейская комиссия, 2017) [4], рамки ИКТ-компетентности для учителей (ЮНЕСКО, 2021).

Conclusion. AI's potential to transform education is undeniable, but its negative impacts cannot be overlooked. This study highlights critical risks, including reduced human interaction, overdependence on technology, educational inequality, and threats to privacy and teaching jobs. Addressing these challenges requires a balanced approach that preserves the human essence of education while leveraging AI's capabilities. By fostering equitable access, ethical practices, and emotional support, we can ensure that AI enhances, rather than undermines, the educational experience.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Economic Forum (2022). The Impact of AI on Education.
2. UNESCO Report on Education 2030 (2021).
3. Korean Education Review (2022). AI in South Korean Classrooms.
4. Cybersecurity Ventures (2022). Data Breaches in Education.
5. Oxford Economics (2021). AI and the Future of Teaching Jobs.
6. Harvard Education Review (2020). Emotional Intelligence in AI Classrooms.
7. <https://keymakr.com/blog/how-ai-is-impacting-on-the-education-system/>
8. <https://www.eschoolnews.com/digital-learning/2024/02/05/impact-of-artificial-intelligence-in-education/>
9. https://www.researchgate.net/publication/383015165_AI_in_Education_The_Impact_of_Artificial_Intelligence_on_Education
10. <https://www.classpoint.io/blog/the-pros-and-cons-of-ai-in-education>



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

SIYOSAT VA TARIX

ZAMONAVIY TASHQI SIYOSAT BO‘YICHA E‘TIBORLI MANBA^{*} (taqriz)

Laziz RAHMATOV¹

¹Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

Shu kunlarda “Oltin meros press” nashriyotida atoqli olim, siyosiy fanlar doktori, professor Qodir Jo‘rayevning “O‘zbekiston respublikasi va jahon hamjamiyati” nomli ilmiy-ommabop maqolalar to‘plami chop etildi.

U mamlakatimizning zamonaviy tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari sohasida o‘ziga xos yangi manbadir. Kitobni 2016-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi eng muhim voqealarning tahliliy solnomasi deyish ham mumkin. To‘plamda muallif O‘zbekistonning ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarini hamda va zamonaviy xalqaro munosabatlarning dolzarb yo‘nalishlarini o‘zining 100 ga yaqin eng sara maqolalarida aks ettirishga harakat qilgan.

Bugungi kunda transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirayotgan, barqaror taraqqiyot maqsadlari sari dalil intilayotgan, hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, nizolarni tinch-diplomatik yo‘llar bilan hal etish va milliy manfaatlar mutlaq ustuvorligi tamoyillariga asoslangan qat’iy tashqi siyosat olib borayotgan O‘zbekiston Respublikasi butun dunyo uchun

hamkorlikka ochiq, ishonchli va mas’uliyatli sherikka aylandi.

Muallif uzoq yillar xalqaro munosabatlarda uncha faol bo‘lmagan davlatdan qisqa fursatda jadal rivojlanayotgan, hatto jahonning eng qudratli kuch markazlari bilan ham muvozanatli, teng huquqli va o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatishga qodir mamlakatga aylangan Yangi O‘zbekistonning asosiy yutuqlari sabablarini tizimli asosda ko‘rsatib beradi.

Ayniqsa, so‘nggi yetti yil ichida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qat’iy siyosiy irodasi va mislsiz sa’y-harakatlari natijasida muqaddam bir qadar tarqoq va zaif, hatto, bir-biri bilan ancha ziddiyatli ichki munosabatlarga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari endilikda xalqaro maydonda yagona va yaxlit, bahamjihat va ahil, integratsiyalashayotgan va konstruktiv jug‘rofiy-iqtisodiy makon sifatida gavdalana boshlagani tadrijiy misollarda bayon etiladi.

Darhaqiqat, yangi davrda mintaqa davlatlari o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik, yaqin do‘stlik va strategik sheriklik

^{*}Manba www.xabar.uz sahifasidan olindi

munosabatlari izchil rivojlanib, bir-birini qo‘llab-quvvatlash ruhi tobora kengayib borayotgani g‘oyat quvonarlidir. Bu o‘rinda 2017-yil 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT shafe‘ligida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro konferensiyaga bag‘ishlab yozilgan **“SAMARQAND SAMMITI: mintaqaviy xavfsizlik yaxlit va bo‘linmasdir”**, deb nomlangan maqolada olimning quyidagi nuqtayi nazari diqqatga sazovor: “Markaziy Osiyodagi xavfsizlik yaxlit va bo‘linmasdir. U faqatgina mintaqada joylashgan barcha davlatlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari evaziga ta‘minlanishi mumkin”.

Bundan tashqari, hamkor davlatlar bilan munosabatlarning yuksalish dinamikasi, AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi kabi yetakchi davlatlar bilan o‘sib borayotgan strategik sheriklik aloqalari, Yevropa, Yaqin Sharq, Janubi-sharqiy Osiyo mintaqalarining boshqa davlatlari bilan yangi bosqichga chiqayotgan hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ham kitobda batafsil qamrab olingani ayni muddaodir.

Unda jamlangan maqolalarda, eng avvalo, davlatlararo munosabatlarning uzoq va yaqin tarixi, umumiylik, madaniy va diniy qadriyatlar mushtarakligi, an‘ana va urf-odatlar o‘xshashligi kabi omillarga urg‘u beriladi. Bunda alohida qayd etish kerak bo‘lgan jihati shundaki, mamlakatimiz rahbarining oliy darajadagi har bir tashrifi yoki boshqa muloqotlar nafaqat siyosiy-diplomatik, balki savdo va iqtisodiy-sarmoyaviy, xavfsizlik, madaniy-gumanitar mazmun-

mohiyat bilan boyitilib, aniq kelishuvlar hamda yirik loyihalar asosiy natijaga aylanayotgani olimning sinchkov nazaridan chetda qolmaydi.

Muallifning fikricha, xalqaro maydonda oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan geosiyosiy to‘qnashuvlar kechayotgan bugungi murakkab vaziyatda **O‘zbekistonning eng dolzarb masalalar bo‘yicha tutgan mavqei, tinchlik va hamkorlikka asoslangan progressiv va konstruktiv yondashuvlari uning tinchliksevar tashqi siyosatida konseptual jihatdan mujassam etilgan.**

Bu tub milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda jug‘rofiy joylashuvi va mafkurasidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlar bilan do‘stona tashqi siyosat yo‘nalishiga asoslanadi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Parlamentlararo Ittifoq, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon savdo tashkiloti, Islom taraqqiyot banki singari xalqaro moliya institutlari bilan tobora faollashib, yuksalib borayotgan aloqalarga ham keng e‘tibor qaratiladi.

Kitobda ayniqsa, YUNESKO faoliyati va uning mamlakatimiz bilan ko‘p qirrali aloqalari turkum maqolalarda aks etgani e‘tiborimizni tortadi. 1995-2004-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

bosh eksperti sifatida faoliyat yuritgan muallif bu borada keng mushohadalarni ilgari suradi.

Jumladan, 2023-yil 13-aprelda Milliy axborot agentligi muxbiri bilan bo‘lib o‘tgan suhbat chog‘ida juda qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o‘tadi: “YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga shu paytga qadar O‘zbekistondagi 5 ta obyekt kiritilgan bo‘lib, bular – Xivadagi Ichan qal’a majmuasi, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi, Samarqand – madaniyatlar chorrahasi hamda Buyuk ipak yo‘lining Zarafshon-Qoraqum koridoridir. YUNESKOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga o‘zbek xalqi nomoddiy madaniy merosining 14 ta elementi kiritilgan. Bular – Shoshmaqom (Tojikiston bilan birgalikda), Boysun madaniy an’analar, Katta ashula, Askiya zukkolik san’ati, Palov bilan bog‘liq madaniyat va an’analar, Navro‘z bayramini nishonlash an’analari, Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi: atlas va adras tayyorlashning an’anaviy texnologiyalarini saqlash, Lazgi, Miniatyura san’ati, Baxshichilik, Ipakchilik va an’anaviy ipak tayyorlash san’ati, Xo‘ja Nasriddin haqidagi an’anaviy hikoyalar, O‘zbekiston kulolchilik san’ati, Illyuminatsiya san’ati: naqqoshlik, Iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an’analari.

YUNESKOning Butunjahon tabiiy merosi ro‘yxati ham mavjud bo‘lib, bu ro‘yxatga O‘zbekistonning ikkita obyekt kiritilgan. Bular G‘arbiy Tyan-Shan (2016) hamda “Turon cho‘llari” (2023)dir. YUNESKO “Jahon xotirasi” reestri 1992-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi hujjatli meros – qog‘oz, audiovizual, raqamli yoki boshqa har qanday formatdagi muhim va

doimiy qiymatga ega bo‘lgan hujjatlar yoki hujjatlar to‘plamining qaytarib bo‘lmaydigan yo‘qotilishining oldini olish, avaylab-asrash va keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

2023-yilga qadar YUNESKOning “Jahon xotirasi” reestriga O‘zbekiston Respublikasidan Toshkent shahrida saqlanayotgan Muqaddas Usmon Qur’oni, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari kiritilgan edi. 2023-yilda esa O‘zbekiston tarixiga oid yana 2 ta hujjatlar to‘plami – Mavlono kulliyoti va Buxoro Amirligining qushbegi ma’muriyati arxivlari to‘plami ushbu reestrda joy oldi. Yana bir muhim yo‘nalish YUNESKOning Butunjahon biosfera qo‘riqxonalarini tarmog‘i bo‘lib, unga O‘zbekistonning 2 ta obyekt kiritilgan. Bular – Chotqol davlat biosfera rezervati (1978) va Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (2021)”.

Q.Jo‘rayev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining tajribali deputati, 30dan ortiq qonun loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan qonun ijodkori sifatida parlament diplomatiyasi, Oliy Majlisning xalqaro hamkorlik aloqalari, xususan, xorijiy mamlakatlarning qonun chiqaruvchi organlari bilan hamkorlik bo‘yicha do‘stlik guruhlari faoliyati, parlament nazorati instituti, xalq vakillari bo‘lgan deputatlarning xorijdagi vatandoshlar haq-huquqlarini himoya qilish borasida o‘z sabb borayotgan o‘rni, tashqi siyosat sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, mamlakatimizning xalqaro shartnomalari va konsullik masalalari bo‘yicha qabul qilingan yangi hujjatlar hamda xorijiy mamlakatlardagi elchilarimizning



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

hisobotlarini milliy parlamentimizda eshitib borish mexanizmiga alohida to'xtalib o'tadi.

Chunonchi, "Parlamentlararo hamkorlik guruhlarini faoliyatining asosiy yo'nalishlari" nomli maqolasida bu muhim jarayonlarda qonun chiqaruvchi organning o'rniga alohida baho beriladi: "O'z navbatida, parlamentning tashqi siyosat sohasidagi faoliyatda ishtiroki nafaqat xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish, elchilarni lavozimga tasdiqlash orqali, balki bevosita xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama o'zaro munosabatlarda ishtirok etish orqali ham amalga oshirilmoqda".

Maqolalarda chuqur o'ylangan, amaliy tajribadan kelib chiqqan holda tashqi siyosatga doir ko'plab e'tiborga molik ma'lumotlar, O'zbekistonning jahonda e'tirof etilayotgan muhim xalqaro tashabbuslari va qat'iy pozitsiyalari keltirilgani kitobning salmog'i va salohiyatini yanada oshiradi. 2016 yoki 2017-yilda e'lon qilingan maqolalar bilan tanishar ekansiz, ularni keyingi yillar, deylik 2023 yoki 9 2024-yildagi tadrijiy rivojlanishi bilan qiyosiy solishtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shunda keng qamrovli va uzoq muddatli aloqalarning barcha yo'nalishlardagi o'sish dinamikasi, xalqaro reyting va indekslardagi ijobiy natijalar mamlakatimiz nufuzini va xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

1. So'nggi yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash Oliy maktabi, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida professor sifatida ishlab kelayotgan va 25 yillik pedagogik ish faoliyatiga ega, qator Ilmiy kengashlar va Ilmiy seminarlar a'zosi, 10ga yaqin fan nomzodlarini yetishtirib chiqqan, nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham ko'plab ilmiy maqolalari e'lon qilingan, o'ndan ziyod darslik va o'quv qo'llanmalar muallifi Q.Jo'rayevning mazkur ilmiy-ommabop kitobi tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar sohasida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqotchi olimlar, mavzuga oid qalam tebratayotgan jurnalistlar uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

MUZEYLARDA ZAMONAVIY INNOVATSIYALARNING QO‘LLANILISHI: YEVIROPA TAJRIBASI

Jo‘rabek TO‘RAMURODOV¹

¹ISFT instituti Gumanitar va tabiiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi (assistenti)

KALIT SO‘ZLAR
Virtual va kengaytirilgan voqelik (VR va AR), interaktiv eksponatlar, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt (AI), raqamli eksponatlar, Pokemon GO o‘yini, IKEA Place ilovasi, AR ko‘zoynaklari, Microsoft HoloLens, Google Glass.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Виртуальная и дополненная реальность (VR и AR), интерактивные экспонаты, мобильные приложения, искусственный интеллект (AI), цифровые экспонаты, игра Pokémon GO, приложение IKEA Place, AR-очки, Microsoft HoloLens, Google Glass.
KEY WORDS
Virtual and Augmented reality (VR and AR), interactive exhibits, mobile applications, artificial intelligence (AI), Raqamli exhibits, Pokémon GO game, IKEA Place app, AR glasses, Microsoft HoloLens, Google Glass.

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada, raqamli eksponatlar, interaktiv tajribalar va virtual reallik kabi innovatsiyalar yordamida madaniy merosni saqlash va tashrif buyuruvchilarga yangi uslubda taqdim etishning muhim omillari tahlil qilinadi. Bunday innovatsion yondashuvlarning madaniyat va san‘atning yangi bosqichiga o‘tishda muhim rol o‘ynashi, ular muzeylarning global madaniy hayotdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi, va madaniy merosning saqlanishi va rivojlanishida yangi istiqbollarni ochadi.
АННОТАЦИЯ
В данной статье анализируются важные аспекты сохранения культурного наследия и представления его посетителям в новом формате с помощью инноваций, таких как цифровые экспонаты, интерактивные опыты и виртуальная реальность. Такие инновационные подходы играют важную роль в переходе культуры и искусства на новый этап, способствуют укреплению позиции музеев в глобальной культурной жизни и открывают новые перспективы для сохранения и развития культурного наследия.
ABSTRACT
This article analyzes the key aspects of preserving cultural heritage and presenting it to visitors in a new format through innovations such as digital exhibits, interactive experiences, and virtual reality. Such innovative approaches play a crucial role in advancing culture and art to a new stage, help strengthen the position of museums in global cultural life, and open new prospects for the preservation and development of cultural heritage.

Kirish. Butun dunyoda zamonaviy texnologiyalarda tub o‘zgarishlar ketayotgan davrda ushbu o‘zgarishlarga moslashish kun mavzusiga aylanmoqda. Tabiiyki, bu kabi o‘zgarishlar turli xil sohalarning rivojlanishiga, jamiyatlarning farovonlashuviga katta hissa qo‘shmoqda. Avvallari faqatgina fantastik kino, seriallarda ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan innovatsiyalar bugungi kunda kundalik hayotimizda

uchramoqda. Bunday yangiliklar muzey sohasini ham chetlab o‘tmadi. So‘nggi yillarda, dunyoning turli burchaklaridagi muzeylarning o‘zgarishi va rivojlanishi texnologik innovatsiyalar orqali sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, virtual va kengaytirilgan voqelik (VR va AR), interaktiv eksponatlar, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt (AI) va raqamli eksponatlar muzey tajribasini yangilash va boyitishda

muhim rol o'ynamoqda. Ushbu innovatsiyalardan muzeylarda foydalanish tashrif buyuruvchilarning sonini oshib borishiga, ilmiy tadqiqotchilar, havaskorlar va o'quvchilarga tarixiy jarayonlarni tushunishga, bu jarayonlar haqida tasavvur paydo bo'lishiga va muzeylarning reputatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida muzey atamasiga ham izoh berib ketsak o'rinli bo'ladi.

Muzey (qadimgi yunoncha: *musion* – “muzalarga bag'ishlangan joy”) – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa hisoblanadi [4]. Muzeylar tarixiy va madaniy merosni saqlash va tarqatishning muhim muassasalaridir. Muzeylar orqali tarixning bir qismi bo'lagi jonlanadi. Muzeylar jamiyatga ta'sir o'tkazish vositalaridan biri hisoblanadi. U orqali vatanga muhabbat, o'tmishda yashagan ajdodlariga hurmat va iftixor tuyg'ulari kabi hislatlar shakllanadi. Muzeylarning shakllanishida albatta yevropaliklarning o'rne beqiyosdir. Yevropaliklarning antik davr madaniyatiga qiziqishi natijasida Florensiya, Rim, Drezden va boshqa joylardagi antik davr yodgorliklaridan iborat to'plamlar zamonaviy muzeylarning shakllanishiga debocha bo'ldi. Hozirgi davrda Londondagi Britaniya muzeyi, Parijdagi Luvr muzeyi, Florensiyadagi Uffitsi muzeylari fondlaridagi eksponatlarining soni va sifati bilan mashhurdir. Ushbu maqolada Yevropada muzeylarda qo'llanilayotgan zamonaviy innovatsiyalarni ko'rib chiqamiz.

Metodologiya. Mavzuni o'rganishda kuzatish, analiz va sintez, ma'lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Yevropa muzeylarining ahamiyati shundaki, muzeylarda nafaqat mahalliy balki Osiyo, Afrika, Amerikadagi turli xalqlarga oid eksponatlarning mavjudligi u yerga tashrif buyuruvchilarning salmog'ini yil sayin oshirib bormoqda. Har yili eng ko'p odam tashrif buyuruvchi muzeylarning top10 taligida Yevropadagi muzeylar ko'pchilikni tashkil etadi. Bunday natijani doimiy saqlab qolish uchun Yevropadagi muzeylar zamonaviy innovatsiyalardan maksimal darajada foydalanishga harakat qilmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, zamonaviy texnologiyalar, masalan, virtual va kengaytirilgan voqelik (VR va AR), interaktiv eksponatlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt (AI) va raqamli eksponatlar, muzeylar tajribasini yangilash va boyitishda muhim rol o'ynayapti. Ushbu innovatsiyalar haqida batafsil ma'lumot berib borsak.

Virtual Reality (VR) va Augmented Reality (AR). 1980-yillarda paydo bo'lgan VR (virtual haqiqat) texnologiyasi uzoq yillar davomida rivojlanib, hozirda juda rivojlangan va ayniqsa so'nggi yillarda juda tez o'sib bormoqda. VR texnologiyasining keng qo'llanilishi bilan, u endi odamlarning kundalik hayotiga kirib, yangi audio-vizual tajriba taqdim etmoqda. VR texnologiyasi, uch o'lchovli ob'ektlarni ko'rishda foydalanuvchilarni cheklolardan ozod qilish uchun integratsiyalashgan axborot rejimida uch o'lchovli virtual olamni yaratish orqali ishlaydi. VR texnologiyasi yordamida kuzatuvchilar, virtual dunyo va foydalanuvchilar o'rtasida axborot almashinuvi osonlashadi.

Virtual haqiqatning mohiyati – bu kompyuterda kompyuter grafikasi tizimi va



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

turli interfeys qurilmalari yordamida yaratilgan uch o‘lchovli virtual dunyo. Foydalanuvchiga ko‘rish, eshitish va tegish kabi sezgilar simulyatsiyalari orqali uch o‘lchovli makonda ob’ektlarni vaqtida va cheklovlarisiz kuzatish imkoniyatini beradi [4]. VR texnologiyasi orqali foydalanuvchilar haqiqiy dunyodan to‘liq ajralib, boshqariladigan 3D dunyoda harakatlanishlari, o‘zaro aloqada bo‘lishlari va tajriba olishlari mumkin. VR texnologiyasi foydalanuvchilarni to‘liq immersiv dunyoga olib kiradi, bu esa real dunyodan ajralishni va virtual dunyoda harakat qilishni ta‘minlaydi. Bu tajriba, foydalanuvchilarni virtual dunyoda real dunyodagidek his qilishlariga yordam beradi. Ba’zi VR tizimlari kengaytirilgan voqelik (AR) texnologiyasi bilan birgalikda ishlaydi, bu esa foydalanuvchilarga real dunyo elementlarini virtual muhit bilan integratsiya qilish imkonini beradi. VR texnologiyasi foydalanuvchilarga haqiqiy dunyodan ajralgan holatda, yangi va jonli tajribalarni yaratishga yordam beradi, bu esa uni turli sohalarida qo‘llash uchun juda qulay va samarali qiladi. VR texnologiyalari yordamida tashrif buyuruvchilar tarixiy asarlarning 3D modellarini ko‘rishlari va ular bilan interaktiv o‘zaro aloqada bo‘lishlari mumkin. Bu texnologiya eksponatlarni yangi burchaklardan ko‘rish va ularga chuqurroq kirish imkonini beradi. Muzeylar immersiv, interaktiv eksponatlarni taqdim etish orqali mehmonlarning qiziqishini oshirish uchun VRdan foydalanadilar. Finlyandiya Milliy Muzeyida ZOAN Studio tomonidan yaratilgan bir ko‘rgazma mavjud bo‘lib, unda odamlar 1863 yilga, R. W. Ekmaning *The Opening of the Diet 1863* nomli kartinasini Aleksandr II

tomonidan ko‘rish uchun vaqtni orqaga qaytarishlari mumkin. VR ko‘zoynagi odamlarni kartinaning ichiga kirgandek his qilish imkonini beradi. Tashrif buyuruvchilar o‘zlarini sahnada topadilar va 3D ko‘rinishda Oyna zali atrofini ko‘rib chiqishlari mumkin [6]. Ular imperator va turli ijtimoiy tabaqalar vakillari bilan suhbatlashishlari yoki ilgari imperator saroyi bo‘lgan, hozirda Prezident saroyi deb nomlanuvchi Ko‘zgular zaliga tashrif buyurishlari mumkin. Ko‘rgazmaning maqsadi tarixiy asarlarni raqamli dunyo bilan uyg‘unlashtirib, tashrif buyuruvchilarga tarixga kirish tuyg‘usini berishdir. VR tajribasi Finlyandiya’dagi eng yirik VR studiyasi bo‘lgan Zoan Oy tomonidan qurilgan. Kompaniya Finlyandiyaning dunyodagi eng virtual jamiyatga aylantirishni o‘z missiyasiga aylantirdi. VR texnologiyasi tarixiy joylarni, qadimgi madaniyatlarni va jismoniy shaklda erishib bo‘lmaydigan ob’ektlarning murakkab tafsilotlarini o‘rganishga imkon yaratadi. Shuningdek, u turli auditoriyalarni jalb qiladi va tarix va san’atni innovatsion usullar bilan hayotga olib kelishi mumkin. Luvr muzeyida VR texnologiyasidan foydalanish orqali tashrif buyuruvchilar ko‘plab mashhur san’at asarlarini, masalan, “Mona Liza”ni virtual ravishda yaqindan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ushbu tajribalar orqali muzeyning tarixiy kontekstini, san’at asarlarini batafsilroq o‘rganish mumkin. VR tajribalarida muzeyning arxitekturasini, tarixiy joylari va turli eksponatlar haqida interaktiv ko‘rsatmalar taqdim etiladi. Bu tajribalar san’at asarlarini virtual ravishda ko‘rish va ular haqida qo‘shimcha ma’lumot olish imkoniyatini beradi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Britaniya muzeyida VR

texnologiyasidan foydalanib, tarixiy voqealar va qadimiy madaniyatlarni interaktiv tarzda ko‘rsatadigan tajribalar yaratilgan. Misol uchun, virtual tur orqali qadimiy Misrning piramidalari yoki Rim imperiyasining qurilish usullari bilan tanishish mumkin. “**Ancient Lives**” loyihasi yordamida tashrif buyuruvchilar qadimiy qog‘ozlar va matnlarni virtual ravishda o‘rganish imkoniyatiga ega. VR orqali qadimiy yozuvlarni o‘qish va ular bilan muloqot qilish imkoniyati yaratiladi. Global muzeylar VR texnologiyasini katta ishtiyoq bilan qabul qilib, uni immersiv sayohatlar, interaktiv eksponatlar va hayratlanarli vizual hikoyalar yaratish uchun muvaffaqiyatli tarzda ishlatmoqdalar. VR imkoniyatlari kuratorlarga san‘at asarlarini va tarixiy obyektlarni yanada chuqurroq kontekstda taqdim etish va ularning haqiqiy ko‘lamini namoyish etish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, tashrif buyuruvchilarning san‘at va tarix bilan aloqasini yanada boyitadi va ularning tajribalarini yanada jonliroq va esda qolarliroq qiladi. Rijks muzeyida (Amsterdam) VR texnologiyasi yordamida san‘at asarlarini o‘rganish tajribasi taqdim etiladi. Masalan, tashrif buyuruvchilar Rembrandtning “Night Watch” asarining batafsil virtual ko‘rinishini ko‘rishlari mumkin. Muzey VR texnologiyasidan foydalanib, san‘at asarlarining yaratilish jarayonini ko‘rsatadigan interaktiv ko‘rgazmalar tashkil etadi. Bu orqali tashrif buyuruvchilar san‘atkorning ijodiy jarayonini virtual tarzda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Muzeylar raqamli tarkibni texnik vositalarga joylashtirish orqali eksponatlarni boyitishda AR texnologiyasidan foydalanmoqdalar. AR texnologiyasi – bu real

dunyo bilan raqamli dunyoni birlashtirib, foydalanuvchilarga yanada interaktiv va immersiv tajribalarni taqdim etuvchi texnologik qurilma yoki platformadir. Dalgarno va Lee (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyasining ishlatilishi ish beruvchilarga virtual ob’ektlar bilan real vaqtda o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beradi, bu esa ularning sezgilarini stimulyatsiya qilishga yordam beradi [5]. AR qurilmalari real vaqt rejimida real dunyoga qo‘shimcha raqamli ma’lumot, grafika, animatsiya yoki boshqa vizual elementlarni qo‘shadi, bu orqali foydalanuvchilar o‘z atrofidagi dunyoni yangicha nazarda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. AR qurilmalari, masalan, smartfonlar, planshetlar yoki maxsus AR ko‘zoynaklari, atrof-muhitni tahlil qilish uchun kameralar va sensorlardan foydalanadi. Bu qurilmalar real dunyo tasvirini olish va uni raqamli dunyoning elementlari bilan birlashtirish imkonini beradi. AR texnologiyasi foydalanuvchining real muhitiga raqamli grafikalar, animatsiyalar va boshqa vizual qo‘shimchalarni ustma-ust qo‘yib, yangi bir manzara yaratadi. Bu raqamli elementlar real dunyo bilan birlashtiriladi va foydalanuvchilarga interaktiv tajriba taqdim etadi. AR qurilmalari foydalanuvchilarga real vaqt rejimida raqamli elementlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatini beradi. Masalan, foydalanuvchilar ekrandagi obyektlarni o‘zgarishlar kiritish yoki ularga javob berish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. AR qurilmalari, foydalanuvchining joylashuvi va yo‘nalishini aniqlash uchun GPS ma’lumotlaridan foydalanadi. Bu yordamida raqamli elementlar foydalanuvchining real dunyo ko‘rinishiga



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

to‘g‘ri joylashtiriladi. AR qurilmalari real dunyo obyektlariga qo‘shimcha ma‘lumotlarni ko‘rsatishi mumkin. Masalan, san‘at asarining tafsilotlarini, tarixiy ma‘lumotlarni yoki interaktiv ko‘rsatmalarni taqdim etish orqali foydalanuvchilarga qo‘shimcha ma‘lumot beriladi.

Smartfonlar va planshetlar: AR ilovalarini ishga tushirish va real hayotga raqamli elementlarni joylashtirish uchun keng qo‘llaniladi. Masalan, Pokemon GO o‘yini yoki IKEA Place ilovasi.

AR ko‘zoynaklar: Maxsus AR ko‘zoynaklari yoki optik qurilmalar, masalan, Microsoft HoloLens yoki Google Glass, foydalanuvchilarga real vaqt rejimida raqamli ma‘lumotlarni ko‘rsatish va ular bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatini beradi.

AR o‘yinlar va ta‘lim platformalari: AR qurilmalari interaktiv ta‘lim dasturlari va o‘yinlarda ishlatiladi, foydalanuvchilarga o‘rganish va o‘yin tajribasini yanada qiziqarli va immersiv tarzda taqdim etadi. AR texnologiyasi foydalanuvchilarga real dunyo bilan raqamli elementlarni birlashtirib, yangi tajribalar yaratishga yordam beradi va ta‘lim, o‘yin, san‘at va boshqa ko‘plab sohalarida keng qo‘llanilmoqda. AR interaktiv tajribalarni taqdim etib, ta‘lim jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi. Ushbu texnologiya mehmonlarga qo‘shimcha ma‘lumotlarni ko‘rish, animatsiyalarni kuzatish va tarixiy rekonstruksiyalarni o‘rganish imkonini beradi. AR orqali tomoshabinlar eksponatlar bilan yanada chuqurroq aloqada bo‘lishadi, bu esa o‘rganishni dinamikroq va qulayroq qiladi, shuningdek, hikoyalarni yanada jozibali va kontekstual tushunishni kuchaytiradi. Britaniya Muzeyi AR texnologiyasidan

foydalanib, eksponatlarning interaktiv va vizual qo‘shimchalarini taqdim etadi. Masalan, “Museum of the Future” muzeyida tashrif buyuruvchilar eski madaniyatlar va tarixiy eksponatlar haqida qo‘shimcha ma‘lumotlar va 3D modellarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. AR texnologiyasi yordamida tashrif buyuruvchilar tarixiy obyektlar va ularning kontekstual tafsilotlarini real vaqt rejimida ko‘rishlari mumkin. Rijks muzeyi AR texnologiyasidan foydalanib, san‘at asarlarini interaktiv tarzda taqdim etadi. Masalan, AR ilovalari orqali eksponatlarning yaratilish jarayoni va san‘atkorlar haqida qo‘shimcha ma‘lumotlarni ko‘rish mumkin. Tashrif buyuruvchilar san‘at asarlarini o‘z smartfonlari yoki planshetlaridan ko‘rib, ular bilan bog‘liq tarixiy va kontekstual ma‘lumotlarni olishlari mumkin. Luvr muzeyida AR texnologiyasi yordamida muzeyning mashhur asarlarini yanada chuqurroq va interaktiv tarzda ko‘rish imkoniyatlari mavjud. Misol uchun, “Luvr AR” dasturi orqali san‘at asarlarining 3D modellarini ko‘rish va ularning tarixiy kontekstlarini o‘rganish mumkin. Tashrif buyuruvchilar AR orqali muzeyning tarixiy joylari va san‘at asarlarini virtual tarzda ko‘rish va ularga bog‘liq hikoyalarni o‘rganish imkoniyatiga ega. Van Gog muzeyi AR texnologiyasidan foydalanib, Van Gogning san‘at asarlarini interaktiv tarzda taqdim etadi. Masalan, AR ilovalari orqali tashrif buyuruvchilar san‘atkorning ijodiy jarayoni haqida qo‘shimcha ma‘lumotlar olishi mumkin. AR yordamida tasvirlar va animatsiyalar orqali Van Gogning asarlarini yangi jihatdan ko‘rish imkoniyatlari yaratiladi. Bu muzeylarda AR

texnologiyasidan foydalanish, tashrif buyuruvchilarga eksponatlarni yanada chuqurroq va qiziqarli tarzda o'rganish imkonini beradi, shuningdek, ta'lim tajribasini boyitadi va san'atning kontekstual tushunilishini kuchaytiradi.

Interaktiv ekspozitsiyalar. Interaktiv texnologiyalar muzeylarni yanada jalb etuvchi va ta'sirchan qiladi. *Luvr muzeyida* tashrif buyuruvchilarga tarixiy asarlarni va muzeyning arxitekturasini interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatini beruvchi turli ilovalar va ekspozitsiyalar mavjud. Masalan, “*Luvr Virtual Tour*” orqali foydalanuvchilar eksponatlarni virtual tarzda ko'rish va ularga bog'liq ma'lumotlarni o'rganishlari mumkin. *Kataloniya milliy san'at muzeyida* interaktiv ekspozitsiyalar orqali san'at asarlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradigan tajribalar mavjud. Misol uchun, foydalanuvchilar san'at asarlarini o'z smartfonlari yoki planshetlaridan ko'rishlari va ularga bog'liq ma'lumotlarni olishlari mumkin. Ushbu texnologiya orqali, tashrif buyuruvchilar san'at asarlarining tarixiy kontekstini, ishlab chiqarish texnikasini va san'atkorning maqsadini o'rganishlari mumkin. *Viktoriya and Albert (V&A) Muzeyida* virtual interaktiv galereyalar orqali tashrif buyuruvchilar eksponatlarning ishlab chiqarish jarayonlarini tushunishlari va o'zlarining san'at asarlarini yaratishlari mumkin. Bu kabi texnologiyalar ko'rgazmalarning o'zgacha salohiyatini yaratadi.

Mobil ilovalar. Yevropaning ko'plab muzeylarida mobil ilovalar (app) keng qo'llanilmoqda. Bu ilovalar tashrif buyuruvchilarga ko'rgazmalar, tarixiy

ma'lumotlar va interaktiv tajribalar haqida yanada chuqurroq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Mobil ilovalar muzeylarning tajribalarini zamonaviylashtiradi va tashrif buyuruvchilarning tajribalarini boyitadi. *Luvr muzeyi* o'zining rasmiy mobil ilovasini taklif etadi, bu ilova orqali tashrif buyuruvchilar muzey xaritasini, eksponatlar haqida ma'lumotlarni va turli multimedia materiallarni olishlari mumkin. Ilova orqali foydalanuvchilar audio qo'llanmalar, interaktiv xaritalar va eksponatlar haqidagi batafsil ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. Venadagi *San'at tarixi muzeyining* (Avstriya) mobil ilovasi foydalanuvchilarga eksponatlar, tarixiy obyektlar va muzey xaritasiga kirish imkoniyatlarini beradi. Ilova audio qo'llanmalar, interaktiv xaritalar va eksponatlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etadi. *D'Orsay muzeyida* muzeyning mobil ilovasi orqali tashrif buyuruvchilar eksponatlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishlari va shaxsiy yo'riqnoma yaratishlari mumkin. Bu ilovalar yordamida, tashrif buyuruvchilar o'zlariga mos ravishda muzeyni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- **Audio qo'llanmalar:** Mobil ilovalar audio qo'llanmalarni taqdim etadi, bu orqali foydalanuvchilar eksponatlar haqidagi ma'lumotlarni eshitishlari mumkin.

- **Interaktiv xaritalar:** Muzeyning interaktiv xaritalari yordamida foydalanuvchilar eksponatlar joylashgan joylarni osonlik bilan topishlari mumkin.

- **Qidiruv va filtrlash:** Foydalanuvchilar eksponatlarni qidirish va filtrlash imkoniyatlarini taqdim etuvchi funksiyalar.



Mobil ilovalar yordamida, muzeylar tashrif buyuruvchilarga o‘z tajribalarini yanada boyitishga, ko‘rgazmalarni osonroq tushunishga va ularga yanada qiziqarli va interaktiv usulda o‘rganishga yordam beradi.

Sun’iy Intellekt (AI). Sun’iy intellekt texnologiyasi muzeylarda yangi imkoniyatlarni ochadi. Yevropada bir qator muzeylar sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanishni boshladi. Robotik yordamchilar, interaktiv displeylar va chatbotlar — bu insonlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun ishlatiladigan AI texnologiyalarining misollaridir. Ushbu texnologiyalar turli ilovalarda, mijozlarga xizmat ko‘rsatishdan tortib, ko‘ngilochar sohalargacha qo‘llaniladi. Masalan, robot yordamchilar mijozlarga yordam berish, mahsulotlarni topishda yordam berish yoki tavsiyalar berishda foydalanilishi mumkin. Interaktiv displeylar ham tobora ommalashmoqda, foydalanuvchilarga raqamli kontent bilan tabiiyroq tarzda o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatini yaratadi [3]. Bu texnologiyalar muzeylar tajribasini yanada innovatsion va interaktiv qilishga yordam beradi. *Luvr muzeyida* sun’iy intellekt asosidagi chat-botlar va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar mavjud bo‘lib, ular tashrif buyuruvchilarga eksponatlar va ko‘rgazmalar haqida aniq va tezkor ma’lumotlar taqdim etadi. Ushbu chat-botlar tashrif buyuruvchilarga eksponatlar va ko‘rgazmalar haqida ma’lumot beradi, shuningdek, foydalanuvchilarning savollariga real vaqt rejimida javob beradi. *Britaniya muzeyi* AI yordamida tarixiy eksponatlarning raqamli rekonstruksiyalarini yaratadi. AI texnologiyalari eksponatlar haqida qo‘shimcha

ma’lumotlarni taqdim etish va ularga kontekstual tushuncha yaratishda yordam beradi. Shuningdek, AI texnologiyalari yordamida foydalanuvchilarga interaktiv tajribalar taqdim etiladi. *Van Gog Muzeyida* AI yordamida san’at asarlarini virtual tarzda ko‘rish va ularni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatlari taqdim etiladi. Bu, tashrif buyuruvchilarga Van Gogning asarlari haqida yanada chuqurroq ma’lumot olish imkoniyatini beradi. *San’at tarixi Muzeyida* (Vena shahri) AI yordamida eksponatlar tahlil qilinadi va yangi ma’lumotlar kashf etiladi. Bu texnologiya, muzey xodimlariga eksponatlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. *Louis Vuitton fondida* (Parij) AI va katta ma’lumotlar yordamida tashrif buyuruvchilarning qiziqishlari va tajribalarini tahlil qilish orqali individual takliflar taqdim etiladi. Bu innovatsiya, tashrif buyuruvchilarning muzey tajribasini shaxsiylashtirishga yordam beradi. AI texnologiyalari foydalanuvchilarga eksponatlarni yanada interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatini beradi. Foydalanuvchilarning qiziqishlari va xatti-harakatlari asosida maxsus tavsiyalar beriladi. Tarixiy eksponatlarning raqamli rekonstruksiyalari yordamida ularning o‘rganilishi va tahlili osonlashadi. AI ma’lumotlarni tez va samarali tahlil qilib, yangi tajribalar va xizmatlarni yaratishda yordam beradi. Yevropadagi muzeylarda AI texnologiyalari foydalanish tajribani yanada innovatsion, interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilishga yordam beradi. Bu orqali muzeylar o‘zlarining madaniy va tarixiy meroslarini yanada samarali saqlash va ularga kengroq auditoriya taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Raqamli Ekspонатlar va Onlayn Ko'rgazmalar. Raqamli texnologiyalar muzeylar uchun yangi auditoriya yaratishda muhim rol o'ynaydi. London shahridagi Milliy galereya muzeyi ko'plab asarlarni onlayn ko'rgazmalar orqali kata auditoriyaga taqdim etiladi. Bu yondashuv, masofadan turib muzey asarlarini ko'rishga imkon beradi va madaniy merosni kengroq auditoriyaga yetkazadi. *Musee de l'Orangerie* (Parij)da raqamli ekspонатlar va onlayn resurslar yordamida keng tarqalgan madaniy tajribalar yaratiladi, bu esa dunyo bo'ylab kengroq auditoriyani qamrab olish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Yevropadagi muzeylar zamonaviy innovatsiyalarni jadal qo'llash orqali ekspонатlarni nafaqat ko'proq jalb etuvchi, balki tashrif buyuruvchilar uchun yanada qiziqarli va ta'sirchan tajribalar yaratishga muvaffaq bo'lmoqda. Ushbu innovatsiyalar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqmoqda, balki muzeylarning o'zgaruvchan dunyoda qanday rivojlanishini ham aks ettirmoqda. Innovatsiyalar orqali muzeylar o'quv tajribasini yanada boyitadi,

tashrif buyuruvchilarni ma'lumot olish, tarixiy voqealarni tushunish va san'at asarlarini yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Zamonaviy texnologiyalar tashrif buyuruvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning muzeyga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi va ularga jonli va interaktiv tajribalar yaratadi. Raqamli va texnologik yondashuvlar orqali muzeylar tarixiy va madaniy merosni saqlash va ularga kengroq auditoriyani taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Bu merosni yanada kengroq va ko'proq odamlar bilan baham ko'rishga yordam beradi. Zamonaviy innovatsiyalar muzeylarning o'zgaruvchan dunyoda qanday rivojlanishini ko'rsatadi, ular global raqobat va texnologik rivojlanish bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlariga moslashadi. Yevropaning muzeylari bu innovatsiyalarni qo'llash orqali tarixiy va madaniy merosni saqlashda yangi usullarni ishlab chiqmoqda, tashrif buyuruvchilarga taqdim etiladigan tajribalarni yanada boyitib, o'quv va madaniy tajribani yanada qiziqarli va ta'sirchan qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rani S., Jining D., Shah D., Xaba S., Singh P. R. (n.d.). Exploring the potential of artificial intelligence and computing technologies in art museums / ITM Web of Conferences, 2023.
2. Wang B., Liu Y. The research on application of virtual reality technology in museums / Journal of Physics: Conference Series, 2019.
3. Chen C.-A., Lai H.-I. Application of augmented reality in museums – Factors influencing the learning motivation and effectiveness // Science Progress, 2021; 104 (3_suppl). doi:10.1177/00368504211059045
4. Setiawan P.A. Delivering cultural heritage and historical events to people through virtual reality / IOP Conference Series Earth and Environmental Science, 2021.
5. <https://www.louvre.fr/en/online-tours>
6. <https://www.kansallismuseo.fi/>



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

JURNALISTIKA

O‘ZBEKISTON MILLIY AXBOROT MAKONIDA SAYTLARNING O‘RNI

Zoxir TOSHXUJAYEV¹

¹O‘zJOKU “Raqamli media va internet jurnalistika” kafedrası o‘qituvchisi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Onlayn jurnalistika, sayt, jurnalist, axborot, Internet.	Ushbu maqolada onlayn jurnalistikaning axborot tarqatishdagi asosiy vositasi – saytlar va ularning milliy axborot makonidagi o‘rni va ahamiyati o‘rganilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Онлайн-журналистика, сайт, журналист, информация, Интернет.	В данной научной статье рассматривается основной инструмент интернет-журналистики в распространении информации – сайты, а также их роль и значение в национальном информационном пространстве.
KEY WORDS	ABSTRACT
Online journalism, website, journalist, information, Internet.	This scientific article examines the main tool of online journalism in disseminating information – websites, as well as their role and significance in the national information space.

Kirish. Sayt tushunchasi bugun kundalik hayotimizda eng ko‘p ishlatilayotgan vositalardan biriga aylanib bo‘lgan. Hammamiz ham har qanday kerakli ma‘lumotni olish, qidirish, topish uchun darrov saytlarga va ularning qidiruv funksiyalariga murojaat qilamiz.

Bugun jamiyatning asosiy qismi axborotga bo‘lgan ehtiyojni asosan onlayn media vositalari – sayt va ijtimoiy tarmoqlar yordamida qondirmoqda. Bu birinchi navbatda, internetning ommalashgani va hayotimizning ajralmas qismiga aylangani bilan bog‘liq [1; 6].

Aniq misol sifatida quyidagi fakti keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi internetdan

foydalanish holati bo‘yicha shunday ma‘lumotlarni taqdim etdi [5]:

Statistika agentligining uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan, 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, 10 yosh va undan katta yoshdagi aholining o‘z uyida internetdan foydalanayotganlar ulushi 67 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilda 49,9 %ni, 2022-yilda 59,6 %ni tashkil etgan.

O‘zbekistonda 2023-yilda o‘n va undan katta yoshlilar orasidan mobil telefondan foydalanuvchi aholi ulushi 99,1 %ga ko‘tarildi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilda 95,7 %, 2022-yilda 97,8 % bo‘lgan.

2023-yilda 100 ta uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan mobil telefonlar soni o‘rtacha 349 tani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2010-yilda



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

145 ta, 2015-yilda 234 ta, 2020-yilda 287 ta bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi statistik ko‘rsatkichlar yildan yilga o‘tib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Internet sayt”, “veb-sayt”, “portal” kabi tushunchalar jurnalistlar uchun ijod maydoni, iste’molchi uchun axborot va ma’lumotlar manbayi hisoblanadi. Saytlarning internet tarmog‘ida joylashganligi ularning interaktivligini ta’minlaydi va bu xususiyat elektron axborot tarqatish vositasiga an’anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda anchagina keng imkoniyat, erkinlik va ustunlik beradi.

Sayt [6] – onlayn jurnalistika vositasi sifatida ana shu ustunliklarni o‘zida mujassam etadi.

Bugungi kunda saytga bitta domen nomidan foydalanadigan, bir-biriga bog‘langan veb-sahifalar to‘plami, deb ta’rif berilyapti. Veb-saytlar shaxs, guruh, korxona yoki tashkilot tomonidan turli maqsadlarda yaratilishi mumkin. Barcha ommaviy veb-saytlar butun dunyodagi internet to‘rini tashkil qiladi va internet orqali ushbu tarmoqqa bog‘langan.

Yanada sodda qilib tushuntirsak, sayt – bu internetda joylashgan, ba’zi ma’lumotlarni (matn, ovoz, video, foto, hujjatlar, grafika, musiqa va shu kabi har qanday ma’lumotlarni) o‘z ichiga olgan manzil. Internet esa, ushbu manzillar to‘plamidir.

Birinchi sayt yaratuvchisi sifatida angliyalik olim ser Timoti Jon Berners-Li (Tim Berners-Li) e’tirof etiladi [7]. Tajribali mutaxassis Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan Yevropa yadroviy tadqiqotlar markazidagi (CERN – fransuzchada Conseil Européen pour la Recherche Nucléaire)

hamkasblariga gipermatnli hujjatlarni giperhavolalar orqali bog‘lab uzatishni taklif qiladi [8]. Berners-Li gipermatnni ichki qidiruv tizimlari va hujjatlarga, shuningdek, internatning informatsion resurslariga kira olish imkoniyatini namoyish qilib beradi.

Shu tariqa, Tim Berners-Li ilk saytni 1991-yilning 6-avgustida yaratdi. Ushbu sayt <https://info.cern.ch/> manzilida joylangan bo‘lib, hamon faol hisoblanadi.

Ilk sayt faqat giperhavolali matndan iborat, unda hech qanday grafik elementlar yoki vizual vositalar ishlatilmagan. Unda giperhavola orqali asosiy hujjatga o‘tish ko‘zda tutilgan.

Natijalar. Internet taraqqiyoti bosqichida saytlar aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishning asosiy vositasiga aylandi. An’anaviy ommaviy axborot vositalari ham o‘z veb-saytlarini yaratish orqali nashrlarning elektron versiyalarini o‘quvchi e’tiboriga havola eta boshladi.

Televideniye va radio efirlari ham jadal tarzda internetga ko‘cha boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab – internet bergan qulaylik va imkoniyatlarning ko‘pligidir.

Bugungi saytlar, veb-portallar nafaqat axborot berish, balki xizmat ko‘rsatish vazifalarini ham bajarmoqda [9]. Zamonaviy sharoitda internet orqali savdo va xizmat turlaridan foydalanayotgan iste’molchilar safi tobora kengayib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, onlayn mediada faoliyat yuritadigan jurnalistlarga an’anaviy ommaviy axborot vositalarida ishlaydigan ijodkorlarga qaraganda, biroz boshqacharoq talablar qo‘yiladi.

Virtual olamda ijod qiladigan jurnalistdan universallashuv, ya'ni bir paytning o'zida matn, audio va video bilan ishlay olish qobiliyatini talab qiladi. Bundan tashqari, matnni tahrir qila olish, audio, foto va video materiallarni montaj qilish, dizayn va bezash kabi texnik ko'nikmalarni o'zlashtirib borishni ham o'rta qo'yimoqda [10].

